

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA VA  
MAKTAB TA’LIMI VAZIRLIGI HUZURIDAGI  
IXTISOSLASHTIRILGAN TA’LIM MUASSALARI  
AGENTLIGI**

**IS’HOQXON IBRAT NOMIDAGI NAMANGAN DAVLAT  
CHET TILLARI INSTITUTI TURIZM VA TARJIMA  
KAFEDRASI**

**TILSHUNOSLIK FANIDAN**

**O‘QUV – USLUBIY MAJMUA**



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA VA  
MAKTAB TA‘LIMI VAZIRLIGI HUZURIDAGI  
IXTISOSLASHTIRILGAN TA‘LIM MUASSALARI  
AGENTLIGI  
IS‘HOQXON IBRAT NOMIDAGI NAMANGAN DAVLAT  
CHET TILLARI INSTITUTI**



**TURIZM VA TARJIMA KAFEDRASI  
SOLIYEV UMIDJON YULCHIVOYEVICH  
“TILSHUNOSLIK”  
FANIDAN  
O‘QUV – USLUBIY MAJMUA**

**Bilim sohasi:** 200000 – San‘at va gumanitar fanlar  
**Ta‘lim sohasi:** 230000 – Tillar  
**Ta‘lim yo‘nalishi:** 60230200 –Tarjima nazariyasi va amaliyoti (ingliz tili)

NAMANGAN 2025

Ushbu o‘quv uslubiy majmua Is‘hoqxon Ibrat nomidagi Namangan davlat chet tillari institutining 202\_\_ yil “\_\_\_\_” \_\_\_\_\_dagi “\_\_\_\_”- sonli kengashi qarori bilan tasdiqlangan fan dasturi asosida ishlab chiqilgan.

Tuzuvchilar: Soliyev Umidjon Yulchivoyevich

Fanning o‘quv uslubiy majmuasi kafedraning 2025 yil “\_\_\_\_” \_\_\_\_\_dagi “\_\_\_\_”-sonli yig‘ilish muxokamasidan o‘tkazilgan va fakultet kengashida ko‘rib chiqish uchun tavsiya etildi.

Kafedra mudiri: A.Ermirzayev

Fanning o‘quv uslubiy majmuasi “Til va tarjima” fakultetining kengashi muhokamasidan o‘tkazilgan va Institut kengashida ko‘rib chiqish uchun tavsiya etilgan.

Fakultet dekani: S.Misirov

Fanning o‘quv uslubiy majmuasi institut o‘quv-uslubiy Kengashining 2025-yil “\_\_\_\_” \_\_\_\_\_dagi “\_\_\_\_”-sonli yig‘ilishida ko‘rib chiqilgan va tasdiqlash uchun tavsiya etilgan.

Fanning o‘quv uslubiy majmuasi institut kengashining 2025\_\_ yil “\_\_\_\_” \_\_\_\_\_dagi “\_\_\_\_”-sonli majlis bayoni bilan ma’qullangan

## MUNDARIJA

<b>№</b>	<b>MAVZULAR NOMI</b>	<b>SAHIFALAR</b>
<b>1</b>	<b>O'QUV MATERILLAR</b>	
	Asosiy matn	
	Topshiriqlar variantlari	
	Masala va misollar	
	Keyslar to'plami	
<b>2</b>	<b>MUSTAQIL TA'LIM MASHG'ULOTLARI</b>	
<b>3</b>	<b>GLOSSARY</b>	
<b>4</b>	<b>ILOVALAR</b>	
	Fan dasturi	
	Ishchi fan dastur	
	Testlar	
	Tarqatma materiallar	
	Baholash mezonlarini qo'llash bo'yicha uslubiy ko'rsatmalar	

**I.O'QUV**  
**MATERIALLARI**

## 1. MA'RUZA MASHG'ULOTI. TILSHUNOSLIK FANINING O'RGANISH OBYEKTI.

### Reja:

1. Tilshunoslikni fan sifatida shakllanishi
2. Tilshunoslikning asosiy masalalari
3. Til funksiyalari
4. Tilshunoslik tarixida til va nutqning o'zaro farqlanishi
5. Til va nutq
6. Nutqda paralingvistik omillarning qo'llanishi
7. Til va tafakkurning o'zaro munosabati
8. Nutqni idrok qilish
9. Nutqni psixologik mexanizmlari

Tabiat va jamiyatdagi har bir narsa, hodisaning paydo bo'lish, rivojlanish tarixi bo'lgani kabi bu narsa va hodisalarni o'rganuvchi fanlarning ham o'z tarixi mavjud. Fanlar sistemasida o'zining munosib o'rniga ega bo'lgan tilshunoslik ham bundan mustasno emas.

Tilshunoslik fan sifatida shakllangandan boshlab to hozirgi kunimizgacha doimiy ravishda rivojlanib, takomillashib bordi. Bu davrda turli tadqiqot yo'nalishlari, bu yo'nalishlarga daxldor tushuncha va atamalar sistemasi maydonga keldi. Mazkur yo'nalishlar tilshunoslikni yangi g'oyalari, tadqiqot metodlari bilan boyitib, uning rivojiga katta ta'sir qildi. SHuning uchun ulardan bir qanchasi bugungi tilshunoslik uchun ham qadr-qimmatini yo'qotgani yo'q.

Tilshunoslik tarixidagi har bir yo'nalish muayyan ijtimoiy shart-sharoit talabi bilan paydo bo'lgan. SHu sababli har qanday lingvistik yo'nalish ana shunday tarixiy shart-sharoit kontekstidan kelib chiqib baholanmogi adolatdan bo'ladi.

Bir ob'ekt turli tomondan qaralib, turlicha baholanishi mumkin. Tilshunoslikda ham bir lingvistik tushuncha turli lingvistik yo'nalish vakillari tomonidan turlicha izohlangani, ularning ayrimlari lingvistika tarixida keng ilmiy jamoatchilik tomonidan ma'qullanib, an'anaga aylanib ketgan bo'lsa, ayrimlari muayyan bir davrgacha qo'llanib, keyinchalik iste'moldan chiqqaniga guvoh bo'lamiz.

Jamiyat taraqqiyoti oddiydan murakkabga qarab doimiy ravishda o'sib, o'zgarib borgani kabi, har qanday fan tarixi muayyan bosqichlardan iborat bo'lib, yangi bosqich avvalgisining bag'rida uning vorisi sifatida dunyoga keladi. Avvalgi bosqich yo'l qo'ygan kamchiliklarga tanqidiy baho bergan holda, ularni bartaraf etishga yordam beradigan tadqiqot metodologiyasi va metodlarini qidiradi.

"Tarixsiz kelajak yo'q", – degandi O'zbekistonning birinchi prezidenti Islom Karimov. CHunki tarix saboqlarini e'tiborga olmay turib, oldimizga qo'ygan ezgu maqsadlarga osonlikcha erishib bo'lmaydi. Bu har bir fanga dahldordir. U yoki bu fanning tarixiy taraqqiyot jarayonlarini, turli bosqichlardagi yutuq va kamchiliklarini e'tiborga olish yangi vazifalarni tez hamda oson yo'l bilan hal qilish imkonini beradi.

SHunday ekan, har bir fanning hozirgi holatini chuqur o'rganish uning tarixiy taraqqiyoti bilan bog'lab olib borilgandagina kutilgan samarani beradi. Demak, kishilarning aloqa vositasi bo'lgan tilning ichki tuzilishi, tuzilish birliklari, bu birliklarning nutqiy jarayonda voqelanishi, tilning jamiyat bilan munosabati, til va tafakkur munosabati, tillarning geneologik va tipologik tasnifi muammolari bilan shug'ullanuvchi "Tilshunoslik nazariyasi" bilan bu muammolarning o'rganilish tarixi masalalarini yoritib beruvchi "Tilshunoslik tarixi" o'zaro uzviy bog'liqdir. SHu bilan birga "Tilni o'rganish metodologiyasi va metodlari" ham "Tilshunoslik nazariyasi", "Tilshunoslik tarixi" bilan o'zaro aloqada. Ayni sababga ko'ra oliy o'quv yurtlarining Filologiya fakultetlarida bu uch tarmoq bir umumiy nom – "Tilshunoslik nazariyasi" nomi ostida o'rganib kelinadi.

Aslida tilshunoslik nazariyasi hamda tilni o'rganish metodologiyasi va metodlarining o'z tarixiy taraqqiyoti bor. SHuning uchun ham bu ikki tarmoq tarixiy taraqqiyotini "Umumiy tilshunoslik" kursidan alohida o'rganish foydadan xoli emas.

“Tilshunoslik tarixi” kursi bo‘yicha sho‘rolar davrida bir qancha asarlar maydonga keldi. Lekin bularda asosan hind-ovro‘po tilshunosligi vakillarining lingvistik qarashlari, lingvistik tafakkur rivojiga qo‘shgan hissalarini yuzasidan fikr yuritildi. Faqat tilshunoslik paydo bo‘lishida hind, xitoy, arab olimlarining xizmatlari eslab o‘tildi. Turkiy xalqlardan etishib chiqqan buyuk allomalarning lingvistika taraqqiyotiga qo‘shgan hissalarini nazardan chetda qoldi.

SHo‘rolar davrida yo‘l qo‘yilgan ana shu kamchilikka barham berish maqsadida ushbu kitobda turkiyshunoslar, xususan, o‘zbek olimlarining tilshunoslik nazariyasi takomili uchun qo‘shgan hissalarini yoritishga ko‘proq e‘tibor qaratildi. SHuning uchun asar ikki qismga bo‘linib, birinchi qismda hind-ovrupo, ikkinchi qismda esa o‘zbek tilshunosligi tarixi bayon qilindi.

“Hind-ovrupo tilshunosligi tarixi” qismida rus tilidagi “Tilshunoslik tarixi” kitoblaridan ma‘lum bo‘lgan materiallarga qisqaroq, ularda yoritilmagan mavzularga kengroq o‘rin berildi. Xususan, F.F.Fortunatov, A.A.Potebnya, G.S.Huxardt, E.Benvenist, L.Tener singari olimlarning lingvistik qarashlari kengroq bayon qilindi.

“Tilshunoslikka kirish” fani tilshunoslikning asosiy masalalarini, tilning paydo bo‘lishi va til taraqqiyotidagi umumiy qonuniyatlarni, til tavsifi borasigi muhim jihatlarni o‘rganadi.

Til kishilar o‘rtasidagi munosabatning eng muhim quroli bo‘lib, jamiyat taraqqiyoti jarayonida shakllangan va umuminsoniy manfaatlarga xizmat qiladi. Tilning paydo bo‘lishi va rivojlanishi jamiyat taraqqiyoti bilan bog‘liq ekan, inson kamoloti haqida fikr yurituvchi barcha fanlarning o‘rganish manbai tilga aloqador hisoblanadi.

Tilning tabiati, mohiyati kishilik jamiyatida bajaradigan vazifasi, strukturasi va bu strukturani tashkil etgan elementlarning o‘zaro munosabati, uning ichki mexanizmi, ishlash prinsiplari kabi muhim masalalarni ilmiy o‘rganishni, tilni har taraflama tadqiq qilishni talab qiladi.

Til kishilik jamiyati mahsulidir. Tilsiz hech bir voqelik va hodisani, insonning tabiatda, jamiyatda tutgan o‘rnini, jamiyat taraqqiyoti yo‘llarini bilish, o‘rganish mumkin emas.

Tilshunoslik fanining asosiy problemalaridan biri tilning ushbu fanning predmeti sifatidagi ta‘rifidir. Ma‘lumki, tabiiy inson tili faqat tilshunoslikda emas, balki yana bir qator fanlar tomonidan o‘rganiladigan murakkab obyekt bo‘lib, har bir fanning tilga bergan ta‘rifi ham turlicha bo‘lishi mumkin. Hattoki, tilshunoslik fanining o‘zida ham tilning yagona ta‘rifi yo‘q. Tilning ta‘rifi masalasi tilshunoslik fani tarixidagi eng muhim masalalardan biri bo‘lib, fan tarixida turlicha talqin qilingan va hozirgi kunda ham turli ilmiy maktablar va oqimlar orasida keskin bahslarga sabab bo‘lmoqda.

Darhaqiqat, tilshunoslikda mavjud bo‘lgan har bir nazariya, avvalo tilni qanday tushunishga asoslanadi. Tilni qanday tushunishning til haqidagi nazariyani yaratishda ahamiyati katta. Tilshunoslik fanining obyekti, predmeti va tilni ilmiy o‘rganish metodlari kabi masalalar ma‘lum darajada tilni qanday tushunishga bog‘liqdir. Tilshunoslik tarixida tilni turlicha ta‘riflash fanning predmetini ham turlicha tasavvur qilishga sabab bo‘ldi. Shuning uchun bu masalaning tilshunoslik tarixi asosiy etaplarida qanday hal etilganligini ko‘rib chiqish maqsadga muvofiqdir.

Tilshunoslik fanining predmeti, o‘rganish manbai o‘z ichki qonuniyatlariga ega bo‘lgan murakkab tizim –tildir. Tilning o‘ziga xos xususiyatlarini, taraqqiyot qonuniyatlarini o‘rganish mazkur ijtimoiy hodisaga har tomonlama to‘liq ta‘rif berish imkonini yaratadi. Til umumiy qonuniyatga bo‘ysunuvchi o‘ziga xos ramzlar tizimi bo‘lib, kishilik jamiyatidagi aloqa - munosabatning eng muhim quroli, fikr ifodasi hamda fikr yuritish asosi, voqelikni avloddan avlodga yetkazuvchi, insoniy kechinmalarni, his –tuyg‘ularni ifoda etuvchi vositadir. Tilshunoslik tarixida tilga turlicha yondashuvlarni kuzatish mumkin.

XX asrdan boshlab tilshunoslik fanining predmetini aniqlashda yangi davr boshlandi. Hozirgi zamon tilshunoslik fanining asoschisi mashhur shveysariyalik olim F. de Sossyur (1857-1913) nazariyasi ta‘sirida tilshunoslik fanining predmeti masalasi ham yangicha tus oldi.

F. de Sossyurning fandagi asosiy xizmati shundan iboratki, u birinchilar qatori tilning murakkab hodisa ekanligini aniqlagan holda, yangi mukammal va aniq, shakllangan umumiy tilshunoslik nazariyasini yaratib berdi.

Tilshunoslik fanining predmetini aniqlash va uni ta'riflashga intilgan F.de Sossyurning qarashlari tilshunoslik tarixidagi muhim masalalarni hal etishda sezilarli ta'sir ko'rsatdi. F.de Sossyur fikricha, til kishilik jamiyatida bajaradigan vazifasiga ko'ra aloqa quroli, fikr ifodalash vositasidir; ijtimoiy tabiati jihatidan til madaniy –tarixiy va ijtimoiy hodisa, ichki tuzilishiga ko'ra sof belgi - ishoralar tizimidir.

Boshqa bir qator olimlar (A.Shleyxer, G. Paul, M. Myuller), tilshunoslik maktablari (“Yosh grammatikachilar“ maktabi, Praga strukturalizmi, Kopengagen strukturalizmi, Amerika strukturalizmi) tilning asl mohiyatini ochib berish masalasiga o'z nuqtayi nazarlaridan yondashdilar. Ularning fikr - mulohazalari tilshunoslik sohasida erishilgan yutuqlardan hisoblansa–da, mazkur qarashlarning ba'zi jihatlari cheklangan edi.

Tilshunoslikning umumiy va xususiy tilshunoslik; nazariy tilshunoslik, amaliy tilshunoslik kabi qator bo'limlari mavjud bo'lib, tilning ayrim jihatlari asosida umumiy qoidalar chiqariladi.

Til - ijtimoiy hodisa. Til jamiyat taraqqiyoti jarayonida yuzaga kelgan. Til - tabiiy, biologik hodisa emas; tilning mavjud bo'lishi va uning taraqqiyoti tabiat qonunlariga bo'ysunmaydi. Til butun jamiyat tarixi jarayonidagi tadrijiy davrlarning mahsuli sifatida umuminsoniy manfaatga xizmat qiladi.

Tilshunoslikda til va nutq o'zaro farqlangandan buyon ularning birliklari ham bir-biri bilan o'zaro doimo aloqada bo'lgan alohida-alohida birliklar sifatida ajratiladigan bo'ldi.

N.A.Slyusareva ta'kidlaganidek, F.de Sossyur ta'limotining mohiyati, eng qisqa shaklda ifodalaganda, til (lang) va nutq (parol) farqlanishidir. Uning boshqa barcha nazariyalari mantiqan shu asosiy tezisdan kelib chiqadi.

V.YA.Zvegintsev F.de Sossyurning til-nutq qarama-qarshiligi asosida mazkur hodisalarning quyidagi farqli belgilarini ko'rsatadi.

1. Nutq individual, til umumiy hodisadir. Umumxalq tili doimo va albatta alohida nutqiy ko'nikmalarida til sistemasi chegarasida ma'lum o'zgarishga uchraydi.

2. Nutq psixik hodisa, til sotsialdir.

3. Nutqharakatchan, dinamik, til esa stabillikka, statiklikka intiladi.

4. Nutq tarixiy, til axronik xususiyatga ega.

5. Nutqiy elementlar o'rtasida sababiy tobelilik, til elementlari o'rtasida funktsional tobelilik mavjud.

6. Til lingvistik qonuniyatlarga bo'ysunadi. U lingvistik «regulyar», nutq esa lingvistik noregulyar, sporodik xarakterga ega.

7. Nutq doimo moddiylikka xos. U o'zining funktsiyasini real moddiy sifatga ega birliklar sifatida bajara oladi. Til abstrakt sistema sifatida mavjud. Bunday farqlanish substantsiya va forma o'rtasidagi farqlanish kabidir.

N.A.Slyusareva shu kunga qadar til va nutqqarama-qarshiligiga bag'ishlangan ishlarni umumlashtirgan holda, til va nutqni qutbiy ziddiyat (binar oppozitsiya) asosida uch xil yo'l bilan aniqlash mumkin ekanini ko'rsatadi:

1) bilish nazariyasi nuqtai nazaridan – gnoseologik aniqlash;

2) til va nutqning predmetlik xususiyati nuqtai nazaridan – ontologik aniqlash;

3) qo'llanish doirasi va foydalanish tarzi nuqtai nazaridan –pragmatikaniqlash.

Bu uch xil yo'l bir-birini to'ldiradi.

Tilshunoslik tarixida til va nutq o'zaro farqlanishi bilan tilning turli sathlarida mazkur zidlanishning namoyon bo'lishini tadqiq etishga e'tibor kuchaydi, buning natijasida til va nutq birliklarini ajratish ehtiyoji paydo bo'ldi. Struktur tilshunoslik vakillari F.de Sossyur izidan borib lisoniy faoliyatda til va nutq sintezini ko'radilar.

Til atamasi ostida avtomatlashtirilgan belgilar va til egalarining ulardan foydalanish qoidasi, nutq atamasi ostida esa individlar nutqida uning real qo'llanilishi tushuniladi.

Avvalo, til atamasi ikki ma'noda qo'llaniladi: 1) kishilar o'rtasidagi eng muhim aloqa vositasi. Bunda til bir butun ijtimoiy hodisa sifatida tushuniladi; 2) ijtimoiy hodisaning nutqqa zid qo'yiladigan holati. F.de Sossyurning fikricha, til bu lisoniy faoliyat minus nutqdir. Professor Sh.Rahmatullaev fikricha, til deganda butunni ham (nutqni qamrab olgan holati), qismni ham (nutqni qamrab olmagan holati) tushunish mumkin.

Barcha lingvistik birliklar til va nutq birliklari hisoblanadi: bir tomondan, ular tilga, ikkinchi tomondan, nutqqa qaratilgan bo'ladi.

Paralingvistikaning o'rganish ob'ekti masalasida mutaxassislar o'rtasida turli xil qarashlar mavjud. Ularning bir guruhi barcha kommunikatsiyaning noverbal vositalarini paralingvistika doirasiga kiritadilar. G.V.Kolshanskiy fikricha, paralingvistik vositalar sub'ektning verbal (so'zli) kommunikatsiyasining chala tomonlarini to'ldiradigan kommunikativ podsiistemadir.

Ikkinchi guruhdagilar esa faqat nutqni kuzatib boradigan har qanday so'zsiz kommunikatsiya vositalarini paralingvistika ob'ekti hisoblaydilar. Quyidagi hodisalar nutqni kuzatib boradigan vositalar deb qaraladi: xarakterizatorlar (kulgi, yig'i, esnashlarning turlariga ko'ra xalqaro farqlari), kvalifikatorlar (talaffuz tezligining turlari, asosiy tonning balandligi va boshqalar), ayiruvchilar (hm, uf-uf kabi til hodisasi bo'lmagan tovushlarning kombinatsiyalari) hamda imo-ishoralar, mimikalar va yozuvdagi turli yordamchi grafik ishoralar kiritiladi.

Yana bir guruh tadqiqotchilar informatsiyada qatnashadigan barcha yordamchi vositalarni verbal bo'lmagan vositalar doirasiga kiritib, ularni uch guruhga ajratadi: 1) tabiiy nutqni kuzatib boruvchi noverbal vositalar; 2) nutq ifodasi o'rnida qo'llaniladigan noverbal vositalar; 3) verbal vositalar bilan birga ishlatilib aralash holatni hosil qiladigan noverbal vositalar. Birinchi tur vositalari paralingvistik holat, ikkinchisi til belgilari substitutsiyasi, uchinchisi esa til va til bo'lmagan vositalar interferentsiyasi deb izohlanadi. Ko'rinib turibdiki, mazkur guruhdagi olimlar faqat nutqni kuzatib boradigan noverbal vositalarnigina paralingvistika tarkibiga kiritadilar. Ularning fikricha, noverbal vositalar (imo-ishoralar ham) uch xil kommunikativ funktsiyani bajaradi. Shulardan faqat birinchisigina paralingvistika doirasiga kiritiladi.

Biz paralingvistika doirasiga kommunikatsiyada ishtirok etadigan barcha supersegment vositalar va imo-ishora hamda mimikalarni kiritish tarafdorimiz.

Paralingvistik omillar til strukturasi kirmaydi. Chunki til sistemasi tashqi omillarga bog'liq bo'lmagan holda yashaydi. Kommunikatsiyaning yuzaga chiqishi uchun qandaydir yordamchi vositalarga ehtiyoj sezilmaydi. Til sistemasi hamisha har qanday fikr mazmunini, hishayajonlarni o'z ichki vositalari bilan ifodalash qudratiga ega. Ammo kommunikatsiyada informatsiyaga ziyon yetmaydigan darajada fonatsion energiyani tejashga intilish har qanday inson faoliyatiga xos xususiyatdir. Shuning uchun inson tilda doimo ortiqcha narsalardan qutulishga, zarur narsalarni esa bo'rttirib ko'rsatishga intiladi. Xuddi ana shu talabga ko'ra, aytilishi lozim bo'lmagan ortiqcha formal vositalar o'rnini kompensatsiya qilishda eng sodda va eng tejamli vosita bo'lgan paralingvistik vosita tarkibiga kiruvchi kinetik vositalar yordamga keladi. Masalan, **Menga stol ustida turgan bo'yoq qalamni olib ber** jumlasida agar so'zlovchi shu stolga yaqin bo'lsa, **stolning ustidagi bo'yoq qalam** qismi nutq situatsiyasi uchun ortiqcha bo'lib qoladi. Natijada qo'l bilan stol ustidagi bo'yoq qalamni ko'rsatib **olib ber** qisminigina talaffuz qilgan holda jumlaning hamma qismidan anglashilishi lozim bo'lgan fikrni ifodalash mumkin. Demak, qo'lning ko'rsatish harakati ellipsisga uchragan gap qismlarining funktsiyasini bajaradi, uni kompensatsiya qiladi. Bu bilan ifodada ixchamlik tug'iladi. Ko'rinadiki, paralingvistik vositalar, birinchidan, nutqni ixchamlashtiradi, ikkinchidan, nutqni kompensatsiyalash vazifasini bajaradi. Paralingvistik vositalarning nutq tarkibida ishlatilishi tilda doimo amal qilinadigan tejamlilik printsipti tendentsiyasi bilan chambarchas bog'liqdir.

Har qanday til tarkibida qo'llanilayotgan imo-ishoralar o'zlarining juda uzoq tarixiga ega. Nutq san'atini egallashning boshlang'ich bosqichida imo-ishora va tilning murakkab aralashib ketishi ibtidoiy odamlarda imo-ishoralarni tasvirlovchi va ifodalovchi juda ko'p so'zlarning mavjudligi bilan izohlanadi. Ibtidoiy odamning tili, aslini olganda, ikki xil tildir: birinchi tomondan, so'z tili, ikkinchi tomondan, imo-ishora tili. Ibtidoiy odamlar tili predmet obrazlarini

ifodalaydi, bu obrazlarni o'z ko'zi va qulog'i bilan qanday tasavvur etsa, shunday ifodalaganlar. Har bir jumla murakkab shaklda bo'lib, unda imo-ishora, tovushlar birlashgan. Ammo mazkur fikrlardan kommunikatsiya ifodalashda imo-ishora verbal hodisalarga nisbatan oldinroq qo'llanilgan deb bo'lmaydi. «Uzoq davrlarga qadar til (tovush tili) imo-ishoralardan kelib chiqqan degan turli nazariyalar (L.Treyger, V.Vundt, XIX asr, Ya.Van-Ginneken, N.YA.Marr, XX asr) hech narsani tushuntirmaydi. Imo-ishoralar hammavaqt tovush tiliga ega bo'lgan kishilar uchun ikkinchi darajali vazifa bajaradi. Imo-ishoralar ichida «so'z» yo'q va imo-ishoralar tushuncha bilan bog'lanmagan. Imo-ishoralar ko'rsatish, ekspressiv xarakterda bo'lishi mumkin, ammo o'zicha tushunchalarni nomlay va ifodalay olmaydi. Faqat shunday funktsiyaga ega bo'lgan so'z tilini kuzatib boradi», – deydi A.A.Reformatskiy. Haqiqatan ham, tarix tovush tiliga ega bo'lmagan birorta ham kishilik jamiyatini, hatto eng qoloq kishilik jamiyatining bo'lganini bilmaydi. Tovush tili insoniyat tarixida kishilarning hayvonot dunyosidan ajralib chiqishiga, jamiyat bo'lib birlashishiga, o'z tafakkurini takomillashtirishiga, ijtimoiy ishlab chiqarishni tashkil qilishiga, tabiat kuchlari bilan muvafaqqiyatli kurash olib borishga va shu tariqa hozirgi zamon taraqqiyot darajasiga yetishiga yordam bergan kuchlardan biridir. Imo-ishoralar esa doimo nutq bilan birgalikda qo'llanib, unga yordam beruvchi ikkinchi darajali vosita bo'lib kelgan. Chunki fikr o'zining ma'lum moddiy asosiga ega bo'lishi kerak. Ana shu moddiy asos nutqdir. Nutq faqat fikr ifodalovchi vositagina emas, balki fikrni shakllantiruvchi vosita hamdir. Har qanday fikr ma'lum bir til asosida shakllanadi. Poliglotlar doimo qaysi tilda fikrlayotganini biladilar. Agar biron tildagi ifoda noto'g'ri chiqib qolsa, men falon tilda fikr qilib, bu tilda gapiribman deb xatosini tan oladilar. Inson o'z fikrini nutq tovushlari yordamida ifoda qilmagan taqdirda ham, o'ylash jarayonidagi nutq organlarining harakatini maxsus apparatlar yordamida kuzatish mumkin. Shuningdek, ayrim kishilar biror narsani ichida o'qiyotganda ham nutq organlarining harakati aniq sezilib turadi. Imo-ishoralar verbal vositani to'la kompensatsiya qilganda ham, verbal vositaning izi – artikulyatsiyasi seziladi. Bundan imo-ishoraning ma'lum nutq vaziyati taqozosi bilan fikr ifodalash vazifasida qo'llanilishi vaqtincha – fakultativ ekani ko'rinadi.

Kar-soqovlarning kommunikatsiya vositasi bo'lgan imo-ishoralar esa tamoman boshqa vazifaga ega. Bunday imo-ishoralar nutqni kuzatib boruvchi imo-ishoralardan farq qilgan holda tabiiy til bilan funktsional teng huquqlidir. Shuning uchun bu xil imo-ishoralar paralingvistikaning tekshirish ob'ektiga kirmaydi.

Til kishilarning eng muhim aloqa vositasi, bilimlarni saqlovchi va kelajak avlodga yetkazuvchi vositadir. Ana shu vazifalarini e'tiborga olganda, til-ijtimoiy hodisadir. Chunki u jamiyat uchun xizmat qiladi. Ikkinchidan ijtimoiy xarakterga ega bo'lgan til muayyan fizik va fiziologik jarayonlar asosida moddiylashadi. Uchunchidan Til va tafakkur o'zaro ajralmasdir. Til fikrni, shakllantiruvchi va ifodalovchi moddiy vositadir. Bu jihatdan til va tafakkur muayyan shaklni o'zida namoyon etadi. Tilshunoslikni ana shu jihatdan mantiq, psixologiya fanlari tizimiga kiritish mumkin bo'ladi. To'rtinchidan til uzluksiz rivojlanib, takomillashib boruvchi hodisadir. Bu jihatdan u jonli organizmga o'xshaydi. Ana shu xususiyatlarini o'rganish jihatidan tilshunoslik biologiya fani bilan umumiy belgilarga ega ekanligini isbotlaydi.

Kishilar odatda bir-birlari bilan til orqali munosabatda bo'ladi. Demak, til va tafakkur chambarchas bog'liq bo'lib, tilsiz fikrni ifodalab bo'lmaganidek, tafakkursiz til o'z ifodasini shakllantira olmaydi.

Fikr tilda voqelashadi, tilda mavjud bo'ladi. Ongoingda paydo bo'ladigan fikrning mohiyatini, mazmunini tashkil etadigan har qanday idrok yoki tasavvur ham faqat so'zlar vositasi orqali voqe bo'ladi.

Til faqat kishilarga xos bo'lganidek, tafakkur ham kishilarga xos bo'lib, bosh miyaning moddiyligi va fiziologik vazifasi bilan bog'liqdir.

Lekin tafakkur bilan tilni aynan bir xil, bir-biriga o'xshash narsa deb tushunish xatodir. Tafakkur – tashqi moddiy olamning kishilar miyasida aks etishining eng yuksak shaklidir. Til esa tafakkurni so'zlar, so'z birikmalari va jumlar orqali ifolaydi. Til qonunlari bilan tafakkur

qonunlari bir-biriga teng kelmaydi. Shuning uchun ham til grammatikaning o'rganish obyekti hisoblansa, tafakkur mantiq ilmining o'rganish ob'jektidir.

Til fikr ifodalashning muhim vositasidir. Tafakkur bilan tilning munosabati murakkab jarayondir. Til fikr ifodasi sifatida mavjud, o'z navbatida fikr til asosida yuzaga keladigan murakkab jarayon. Til ham, tafakkur ham mehnat jarayonida, kishilik jamiyatida shakllangan.

Til birliklari - fonema, morfema, so'z, gap bir butun holda, mantiqiy tushunchalar (his-sezgi, idrok, tafakkur) bilan uzviy bog'liqdir.

Tilshunoslik fan sifatida shakllangandan buyon til va tafakkurning o'zaro munosabati muammosi lingvistlar hamda faylasuflar diqqatini o'ziga jalb qiladi. Dastlabki davrda bu muammo ko'proq tafakkur kategoriyalarining lingvistik, eng avvalo, grammatik kategoriyalarga ta'siri yo'nalishida o'rganildi. U tilshunoslik tarixida mantiqiy tilshunoslik maktabi nomi bilan mashhur bo'lgan ilmiy maktabda yorqin o'z ifodasini topdi. Bu maktab vakillari grammatik kategoriyalarni mantiqiy kategoriyalarga o'xshatgan holda, ularni mantiqiy kategoriyalar atamalari bilan tavsiflashni bosh maqsad deb bildilar. Keyinchalik til va tafakkur o'rtasidagi munosabatni o'rganish bu yo'nalishga tamoman qarama-qarshi tomonga burildi. Til kategoriyalarining bilish jarayoni va mantiqiy kategoriyalar shakllanishiga ta'sirini o'rganishga e'tibor qaratildi. Bunday yo'nalish mantiqiy pozitivizm vakillarining, xususan, L. Vitgenshteyn, R. Karnap, B. Rassel, G. Reyxenbax, CH. Pirs singari olimlarning gnoseologik qarashlarida yorqin ifodasini topadi. Ular tilni belgilar sistemasining bir turi sifatida talqin etgan holda, uning tarkibiga terminologik nomenklaturalar, geometriya, algebra, kimyo va boshqa fanlarda qo'llanadigan simvollarni ham kiritadilar.

Til va tafakkur munosabati tilshunoslik fanining asosiy masalalaridan biri sanaladi. Tilsiz fikrni ifodalash sira mumkin bo'lmaganidek, tafakkursiz til o'z ifodasini shakllantira olmaydi. Shular bilan bog'liq yana falsafiy, psixologik ong tushunchasi ham mavjud. Ong ijtimoiy-psixologik hodisa bo'lib, insonning fikrlash qobiliyatini boshqaradi. Ong biologik hodisa bo'lib, mantiqiy fikriy faoliyatni o'z ichiga oladi. Demak, ong tafakkurdan ham katta hodisa, tushunchadir. Tafakkur – bilishning eng yuqori bosqichidir. Bilish bu obyektiv voqelikning inson ongida aks etish jarayonidir. Fanda ikki xil bilish farqlanadi:

1. Sezgilar orqali bilish.
2. Aqliy bilish va tafakkur.

Hissiy bilishda tashqi olamni sezgi a'zolarimiz orqali bilib olamiz. Bunday bilish hayvonlarda ham rivojlangan. Aqliy bilish esa insonlarga xos bo'lib, tashqi olamni faqatgina his qilib qolmay, balki har bir hodisa, predmet, jarayonlarini fahmlaydi, ularni qayta ishlaydi, fikr yuritadi, xulosalaydi, tushunchaga ega bo'ladi. Mana shu jarayon **tafakkur**dir. Demak, tafakkur oliy bilish, fahm, idrok kabi tushunchalar bilan uzviy bog'liq bo'lib, bilishning mahsuli sanaladi. Tafakkur – miyaning oliy mahsuli. Tafakkur kishilarning ijtimoiy ishlab chiqarish faoliyati jarayonida paydo bo'ladi. U insoniyat jamiyatiga xos bo'lgan mehnat va nutq faoliyati bilan chambarchas bog'liq holdagina mavjuddir. Tafakkurning voqelikni bevosita aks ettirish qobiliyati insonning xulosa chiqarishga, isbotlashga bo'lgan qobiliyatida ifodalanadi. Bu qobiliyat bilish imkoniyatlarini kengaytiradi. Inson tafakkuri turli fanlar (mantiq, psixologiya, gnoseologiya, kibernetika va sh.k.) tomonidan va turli usullarda o'rganiladi. Eksperimental tadqiqotlar orasida so'nggi vaqtda tafakkurni turli kibernetik qurilmalar yordamida modellashtirish shaklida tadqiq qilish metodlari ancha keng rivojlangan.

Biz yuqorida tafakkurni bilish, ong, idrok kabi tushunchalar bilan bog'liq ekanligini qayd etdik. Tafakkur til bilan ham zich aloqador ekanligini ham unutmazlik kerak. Uning til bilan munosabati, aloqadorligi tilshunoslik fanining o'rganilish doirasiga ham kiradi. Har qanday fikr so'zlarda o'z ifodasini topadi. Fikrning voqeligi, uning mavjudligi tilda namoyon bo'ladi. Biz istalgan predmet, voqea-hodisa haqida til vositasiz, so'z va gaplarsiz fikrimizni ifodalay olmaymiz. Til – bilish jarayonining muhim sharti. Tilsiz tafakkur mavjud bo'lmaganidek, tafakkursiz til ham mavjud emas. Hech qanday ma'noga ega bo'lmagan, faqat ma'lum tovushlar tizimidan iborat bo'lgan so'zlar muayyan tushunchani ifodalamaydi, tasavvur ham hosil

qilolmaydi. Va nihoyat, fikr ifodalash funksiyasini bajarmagan bunday soʻzlar nutq uchun xizmat qilolmaydi. Xullas, til va tafakkur munosabati oʻzaro dialektik aloqadorlikda boʻlib, birgalikda rivojlanish va taʼsir etish qonuniyatlariga amal qiladi. Ammo til qonunlari bilan tafakkur qonunlari bir-biriga teng kelmaydi. Til grammatikaning oʻrganish manbai boʻlsa, tafakkur logika ( mantiq) ilmining manbayidir. Shunga koʻra mantiqiy kategoriyalar (tushuncha, subyekt, predikat, hukm va sh.k.) bilan grammatik kategoriyalar (soʻz, ega, kesim, toʻldiruvchi....) farqlanadi. Mantiq birliklari umumiy, mavhumdir. Til birliklari, ayniqsa, nutqiy birliklar real, voqeyidir. Mantiqiy kategoriyalar umumiy, metodologik boʻlganligi bilan tillardagi grammatik kategoriyalar oʻziga xosdir. Chunonchi, rus tilida otlarning jonli va jonsizligini ifodalash kategoriyasi mavjudki, bu oʻzbek tili uchun xos hodisa emas.

Одушевленные		Неодушевленные	
Кто?	Она Девочка	Оно Стол	Что?

Rus tilida rod kategoriyasi mavjud boʻlib, u mantiqiy **jins** kategoriyasi bilan muvofiq va nomuvofiq holatda turishi kuzatiladi. Masalan, *mujchina, dedushka* “jenskiy rod”ni ifodalaydi, ammo jins kategoriyasi jihatidan erkak (mujskoy pol)lik belgisiga ega. Demak, mantiqiy jins kategoriyasi grammatik rod kategoriyasi bilan nomutanosiblik hosil qilgan. Mantiqiy sifat va miqdor kategoriyasi oʻzbek tili grammatikasida ham ifodalanadi. Shunonchi, mantiqiy sifat kategoriyasi sifat soʻz turkumi ichida turli usullar (morfologik, leksik-semantik, takror) bilan aks ettirilishi mumkin. Falsafiy miqdor maʼnosi esa son kategoriyasida oʻz ifodasini topadi (birlik va koʻplikda). Grammatikada miqdor maʼnosini ifodalash son soʻz turkumi (*yigirmata talaba*), ravish soʻz turkumi (*ancha, picha*), takrorlar (*qop-qop un*) orqali ham ifodalanadi.

Xullas, til bilan tafakkur bir-biridan ajralmas dialektik birlikni tashkil etuvchi, ammo oʻz xususiyatlariga, qonun-qoidalariga ega boʻlgan hodisalardir. Til bilan tafakkurni bir hodisa deb tushunish qanchalik xato boʻlsa, ularni bir-biridan ajratish ham shunchalik xatodir. F.de Sossyur taʼbiri bilan aytganda: “Язык можно сравнит также с листом бумаги. Мысл – ego litsevaya storona, a zvuk oborotnaya...”, demak, tilni fikrdan ajratish mumkin emas. Fikr va tilda voqeyi turmush, hayot namoyon bolishi lozim.

## 2. MAʼRUZA MASHGʻULOTI. TILNING PAYDO BOʻLISHI

### Reja:

10. Tilshunoslikni fan sifatida shakllanishi
11. Tilshunoslikning asosiy masalalari
12. Til funksiyalari

Til kishilar oʻrtasidagi munosabatning eng muhim quroli boʻlib, jamiyat taraqqiyoti jarayonida shakllangan va umuminsoniy manfaatlariga xizmat qiladi. Tilning paydo boʻlishi va rivojlanishi jamiyat taraqqiyoti bilan bogʻliq ekan, inson kamoloti haqida fikr yurituvchi barcha fanlarning oʻrganish manbai tilga aloqador hisoblanadi.

Tilning tabiati, mohiyati kishilik jamiyatida bajaradigan vazifasi, strukturasi va bu strukturani tashkil etgan elementlarning oʻzaro munosabati, uning ichki mexanizmi,

ishlash prinsiplari kabi muhim masalalarni ilmiy o'rganishni, tilni har taraflama tadqiq qilishni talab qiladi.

Til kishilik jamiyati mahsulidir. Tilsiz hech bir voqelik va hodisani, insonning tabiatda, jamiyatda tutgan o'rnini, jamiyat taraqqiyoti yo'llarini bilish, o'rganish mumkin emas.

Tilshunoslik fanining asosiy problemalaridan biri tilning ushbu fanning predmeti sifatidagi ta'rifidir. Ma'lumki, tabiiy inson tili faqat tilshunoslikda emas, balki yana bir qator fanlar tomonidan o'rganiladigan murakkab obyekt bo'lib, har bir fanning tilga bergan ta'rifi ham turlicha bo'lishi mumkin. Hattoki, tilshunoslik fanining o'zida ham tilning yagona ta'rifi yo'q. Tilning ta'rifi masalasi tilshunoslik fani tarixidagi eng muhim masalalardan biri bo'lib, fan tarixida turlicha talqin qilingan va hozirgi kunda ham turli ilmiy maktablar va oqimlar orasida keskin bahslarga sabab bo'lmoqda.

Darhaqiqat, tilshunoslikda mavjud bo'lgan har bir nazariya, avvalo tilni qanday tushunishga asoslanadi. Tilni qanday tushunishning til haqidagi nazariyani yaratishda ahamiyati katta. Tilshunoslik fanining obyekti, predmeti va tilni ilmiy o'rganish metodlari kabi masalalar ma'lum darajada tilni qanday tushunishga bog'liqdir. Tilshunoslik tarixida tilni turlicha ta'riflash fanning predmetini ham turlicha tasavvur qilishga sabab bo'ldi. Shuning uchun bu masalaning tilshunoslik tarixi asosiy etaplarida qanday hal etilganligini ko'rib chiqish maqsadga muvofiqdir.

Tilshunoslik fanining predmeti, o'rganish manbai o'z ichki qonuniyatlariga ega bo'lgan murakkab tizim –tildir. Tilning o'ziga xos xususiyatlarini, taraqqiyot qonuniyatlarini o'rganish mazkur ijtimoiy hodisaga har tomonlama to'liq ta'rif berish imkonini yaratadi. Til umumiy qonuniyatga bo'ysunuvchi o'ziga xos ramzlar tizimi bo'lib, kishilik jamiyatidagi aloqa - munosabatning eng muhim quroli, fikr ifodasi hamda fikr yuritish asosi, voqelikni avloddan avlodga yetkazuvchi, insoniy kechinmalarni, his –tuyg'ularni ifoda etuvchi vositadir. Tilshunoslik tarixida tilga turlicha yondashuvlarni kuzatish mumkin.

XX asrdan boshlab tilshunoslik fanining predmetini aniqlashda yangi davr boshlandi. Hozirgi zamon tilshunoslik fanining asoschisi mashhur shveysariyalik olim F. de Sossyur (1857-1913) nazariyasi ta'sirida tilshunoslik fanining predmeti masalasi ham yangicha tus oldi. F. de Sossyurning fandagi asosiy xizmati shundan iboratki, u birinchilar qatori tilning murakkab hodisa ekanligini aniqlagan holda, yangi mukammal va aniq, shakllangan umumiy tilshunoslik nazariyasini yaratib berdi.

Tilshunoslik fanining predmetini aniqlash va uni ta'riflashga intilgan F.de Sossyurning qarashlari tilshunoslik tarixidagi muhim masalalarni hal etishda sezilarli ta'sir ko'rsatdi. F.de Sossyur fikricha, til kishilik jamiyatida bajaradigan vazifasiga ko'ra aloqa quroli, fikr ifodalash vositasidir; ijtimoiy tabiati jihatidan til madaniy –tarixiy va ijtimoiy hodisa, ichki tuzilishiga ko'ra sof belgi - ishoralar tizimidir.

Boshqa bir qator olimlar (A.Shleyxer, G. Paul, M. Myuller), tilshunoslik maktablari ("Yosh grammatikachilar" maktabi, Praga strukturalizmi, Kopengagen strukturalizmi, Amerika strukturalizmi) tilning asl mohiyatini ochib berish masalasiga o'z nuqtayi nazarlaridan yondashdilar. Ularning fikr - mulohazalari tilshunoslik sohasida erishilgan yutuqlardan hisoblansa–da, mazkur qarashlarning ba'zi jihatlari cheklangan edi.

Tilshunoslikning umumiy va xususiy tilshunoslik; nazariy tilshunoslik, amaliy tilshunoslik kabi qator bo'limlari mavjud bo'lib, tilning ayrim jihatlari asosida umumiy qoidalar chiqariladi.

Til - ijtimoiy hodisa. Til jamiyat taraqqiyoti jarayonida yuzaga kelgan. Til - tabiiy, biologik hodisa emas; tilning mavjud bo'lishi va uning taraqqiyoti tabiat qonunlariga bo'ysunmaydi. Til butun jamiyat tarixi jarayonidagi tadrijiy davrlarning mahsuli sifatida umuminsoniy manfaatga xizmat qiladi.

Tilshunoslikda til va nutq o'zaro farqlangandan buyon ularning birliklari ham bir-biri bilan o'zaro doimo aloqada bo'lgan alohida-alohida birliklar sifatida ajratiladigan bo'ldi.

N.A.Slyusareva ta'kidlaganidek, F.de Sossyur ta'limotining mohiyati, eng qisqa shaklda ifodalaganda, til (lang) va nutq (parol) farqlanishidir. Uning boshqa barcha nazariyalari mantiqan shu asosiy tezisdan kelib chiqadi.

V.YA.Zvegintsev F.de Sossyurning til-nutq qarama-qarshiligi asosida mazkur hodisalarning quyidagi farqli belgilarini ko'rsatadi.

1. Nutq individual, til umumiy hodisadir. Umumxalq tili doimo va albatta alohida nutqiy ko'nikmalarida til sistemasi chegarasida ma'lum o'zgarishga uchraydi.

2. Nutq psixik hodisa, til sotsialdir.

3. Nutqharakatchan, dinamik, til esa stabillikka, statiklikka intiladi.

4. Nutq tarixiy, til axronik xususiyatga ega.

5. Nutqiy elementlar o'rtasida sababiy tobelilik, til elementlari o'rtasida funktsional tobelilik mavjud.

6. Til lingvistik qonuniyatlarga bo'ysunadi. U lingvistik «regulyar», nutq esa lingvistik noregulyar, sporodik xarakterga ega.

7. Nutq doimo moddiylikka xos. U o'zining funktsiyasini real moddiy sifatga ega birliklar sifatida bajara oladi. Til abstrakt sistema sifatida mavjud. Bunday farqlanish substantsiya va forma o'rtasidagi farqlanish kabidir.

N.A.Slyusareva shu kunga qadar til va nutqqarama-qarshiligiga bag'ishlangan ishlarni umumlashtirgan holda, til va nutqni qutbiy ziddiyat (binar oppozitsiya) asosida uch xil yo'l bilan aniqlash mumkin ekanini ko'rsatadi:

1) bilish nazariyasi nuqtai nazaridan – gnoseologik aniqlash;

2) til va nutqning predmetlik xususiyati nuqtai nazaridan – ontologik aniqlash;

3) qo'llanish doirasi va foydalanish tarzi nuqtai nazaridan –pragmatikaniqlash.

Bu uch xil yo'l bir-birini to'ldiradi.

Tilshunoslik tarixida til va nutq o'zaro farqlanishi bilan tilning turli sathlarida mazkur zidlanishning namoyon bo'lishini tadqiq etishga e'tibor kuchaydi, buning natijasida til va nutq birliklarini ajratish ehtiyoji paydo bo'ldi. Struktur tilshunoslik vakillari F.de Sossyur izidan borib lisoniy faoliyatda til va nutq sintezini ko'radilar.

Til atamasi ostida avtomatlashtirilgan belgilar va til egalarining ulardan foydalanish qoidasi, nutq atamasi ostida esa individlar nutqida uning real qo'llanilishi tushuniladi.

Avvalo, til atamasi ikki ma'noda qo'llaniladi: 1) kishilar o'rtasidagi eng muhim aloqa vositasi. Bunda til bir butun ijtimoiy hodisa sifatida tushuniladi; 2) ijtimoiy hodisaning nutqqa zid qo'yiladigan holati. F.de Sossyurning fikricha, til bu lisoniy faoliyat minus nutqdir. Professor Sh.Rahmatullaev fikricha, til deganda butunni ham (nutqni qamrab olgan holati), qismni ham (nutqni qamrab olmagan holati) tushunish mumkin.

Barcha lingvistik birliklar til va nutq birliklari hisoblanadi: bir tomondan, ular tilga, ikkinchi tomondan, nutqqa qaratilgan bo'ladi.

Paralingvistikaning o'rganish ob'ekti masalasida mutaxassislar o'rtasida turli xil qarashlar mavjud. Ularning bir guruhi barcha kommunikatsiyaning noverbal vositalarini paralingvistika doirasiga kiritadilar. G.V.Kolshanskiy fikricha, paralingvistik vositalar sub'ektning verbal (so'zli) kommunikatsiyasining chala tomonlarini to'ldiradigan kommunikativ podsistemadir.

Ikkinchi guruhdagilar esa faqat nutqni kuzatib boradigan har qanday so'zsiz kommunikatsiya vositalarini paralingvistika ob'ekti hisoblaydilar. Quyidagi hodisalar nutqni kuzatib boradigan vositalar deb qaraladi: xarakterizatorlar (kulgi, yig'i, esnashlarning turlariga ko'ra xalqaro farqlari), kvalifikatorlar (talaffuz tezligining turlari, asosiy tonning balandligi va boshqalar), ayiruvchilar (hm, uf-uf kabi til hodisasi bo'lmagan tovushlarning kombinatsiyalari) hamda imo-ishoralar, mimikalar va yozuvdagi turli yordamchi grafik ishoralar kiritiladi.

Yana bir guruh tadqiqotchilar informatsiyada qatnashadigan barcha yordamchi vositalarni verbal bo'lmagan vositalar doirasiga kiritib, ularni uch guruhga ajratadi: 1) tabiiy nutqni kuzatib boruvchi noverbal vositalar; 2) nutq ifodasi o'rnida qo'llaniladigan noverbal vositalar; 3) verbal vositalar bilan birga ishlatilib aralash holatni hosil qiladigan noverbal vositalar. Birinchi tur

vositalari paralingvistik holat, ikkinchisi til belgilari substitutsiyasi, uchinchisi esa til va til bo'lmagan vositalar interferentsiyasi deb izohlanadi. Ko'rinib turibdiki, mazkur guruhdagi olimlar faqat nutqni kuzatib boradigan noverbal vositalarnigina paralingvistika tarkibiga kiritadilar. Ularning fikricha, noverbal vositalar (imo-ishoralar ham) uch xil kommunikativ funktsiyani bajaradi. Shulardan faqat birinchisigina paralingvistika doirasiga kiritiladi.

Biz paralingvistika doirasiga kommunikatsiyada ishtirok etadigan barcha supersegment vositalar va imo-ishora hamda mimikalarni kiritish tarafdorimiz.

Paralingvistik omillar til strukturasi qayta kirmaydi. Chunki til sistemasi tashqi omillarga bog'liq bo'lmagan holda yashaydi. Kommunikatsiyaning yuzaga chiqishi uchun qandaydir yordamchi vositalarga ehtiyoj sezilmaydi. Til sistemasi hamisha har qanday fikr mazmunini, his-hayajonlarni o'z ichki vositalari bilan ifodalash qudratiga ega. Ammo kommunikatsiyada informatsiyaga ziyon yetmaydigan darajada fonatsion energiyani tejashga intilish har qanday inson faoliyatiga xos xususiyatdir. Shuning uchun inson tilda doimo ortiqcha narsalardan qutulishga, zarur narsalarni esa bo'rttirib ko'rsatishga intiladi. Xuddi ana shu talabga ko'ra, aytilishi lozim bo'lmagan ortiqcha formal vositalar o'rnini kompensatsiya qilishda eng sodda va eng tejamli vosita bo'lgan paralingvistik vosita tarkibiga kiruvchi kinetik vositalar yordamga keladi. Masalan, **Menga stol ustida turgan bo'yoq qalamni olib ber** jumlasida agar so'zlovchi shu stolga yaqin bo'lsa, **stolning ustidagi bo'yoq qalam** qismi nutq situatsiyasi uchun ortiqcha bo'lib qoladi. Natijada qo'l bilan stol ustidagi bo'yoq qalamni ko'rsatib **olib ber** qisminigina talaffuz qilgan holda jumlaning hamma qismidan anglashilishi lozim bo'lgan fikrni ifodalash mumkin. Demak, qo'lning ko'rsatish harakati ellipsisga uchragan gap qismlarining funktsiyasini bajaradi, uni kompensatsiya qiladi. Bu bilan ifodada ixchamlik tug'iladi. Ko'rinadiki, paralingvistik vositalar, birinchidan, nutqni ixchamlashtiradi, ikkinchidan, nutqni kompensatsiyalash vazifasini bajaradi. Paralingvistik vositalarning nutq tarkibida ishlatilishi tilda doimo amal qilinadigan tejamlilik printsipti tendentsiyasi bilan chambarchas bog'liqdir.

### 3. MA'RUZA: INGLIZ TILI FONETIKASI

#### Reja:

1. **Fonetika va fonologiya**
2. **Tovush va fonema**
3. **Nutq tovushlarining tasnifi**
4. **Xulosa**

Fonologiya termini tilshunoslikda XIX asr oxirida yosh grammatikachilar (mladogrammatiklar) maktabining fonetik qonunlariga javoban, nutq tovushlarining artikulyasion fiziologik-akustik (fizik) tomonidan funksional (lingvistik) tomonini farqlash ehtiyoji bilan paydo bo'ldi. Garchi fonologiya termini ko'pchilik tilshunoslar tomonidan e'tirof etilmas-da, ammo bu termin ostida o'rganilishi lozim bo'lgan ob'ekt masalasida bir xillik kuzatilmadi. Tilshunoslarning juda ko'p qismifonologiya termini ostida nutq tovushlarining funksional tomonini, ayrimlari, aksincha, artikulyasion-akustik tomonini tushunadilar. Har ikki holatda hamfonologiya fonetikaga qarama-karshi qo'yiladi. Xususan, F.de Sossyur shunday deydi: «Tovushlar fiziologiyasi ko'p hollarda fonetika deyiladi. Bu termin, bizningcha, nomuvofiq ko'rinadi. Biz buni fonologiya termini bilan almashtiramiz, chunki fonetika azaldan tovushlar evolyusiyasi haqidagi ta'limot bo'lib kelgan va shunday bo'lib qolaverishi kerak. Fonetika tarixiy fandır: u voqealarni, o'zgarishlarni tahlil etadi, zamonda harakat qiladi; fonologiya zamondan tashqaridir, chunki artikulyasiya mexanizmi doimo o'ziga o'zi o'xshashligicha qolaveradi».

Jahon tilshunosligida fonologiya tilshunoslikning alohida bo'limi sifatida fonema va ularning farqlovchi belgilarini o'rganuvchi soha deb e'tirof etildi (funksional tomoni).

Yuqorida ta'kidlanganidek, fonologiya fonemalar haqidagi ta'limot sifatida yosh grammatikachilarning fonetikani ijtimoiy fanlar qatoriga emas, balki tabiiy fanlar qatoriga

qo'shish konsepsiyasiga qarshi yuzaga keldi. Bunday sharoitda an'anaviy fonetikaga yangi yaratilgan fonologiyaning qarama-qarshi qo'yilishi, so'zsiz, ijobiy hodisa bo'ldi. Ammo keyinchalik bir qator tilshunoslar, xususan, daniyalik tilshunos L.Elmslev va boshqa strukturalizm vakillari asarlarida fonetikadan fonologiyani farqlash shu darajaga yetdiki, ular bir-biridan tamoman ajralgan (fonetika tabiiy fanlar, fonologiya ijtimoiy fanlar qatoriga kiradigan) ikki sohaga aylanib qoldi. Natijada fonologiyaning birligi bo'lgan fonema o'zining ob'ektiv reallikdagi material asosidan ajratib qo'yildi.

Rus fonologiya maktabi vakillari esa ularga qarama-qarshi ravishda I.A.Boduen da Kurtene va L.V.SHcherba an'alarini davom ettirgan holda, bir-biridan ajralgan ikki mustaqil ilmiy predmet – fonetika va fonologiya mavjudligini inkor qiladi. L.V.SHcherba fonologiyani fonetikadan uzib qo'yuvchilarga tamoman qarshilik ko'rsatish lozimligini, ma'lum tilning fonologik sistemasini, har bir fonemaning farqlovchi belgilarini faqat uning shu tildagi konkret talaffuzi asosida tadqiq qilish kerakligini uqtiradi.

R.A.Avanesov ijtimoiy hodisa bo'lgan tilning tovush tomoni bilan til strukturasi elementini sifatidagi nutq tovushlarini o'rganadigan faqat bitta ilmiy predmet muvofiq kelishini aytadi. Nutq tovushlarini o'rganadigan ikki predmet emas, balki ikki tadqiqot aspekti mavjuddir. Fonologiya fonetikaning yuqoriroq bosqichi sifatida haqiqiy lingvistika predmetiga aylandi va grammatika bilan bir qatorda til strukturasi o'rganish uchun xizmat qila boshladi. Har qanday fonolog bir vaqtning o'zida fonetistdir. Chunki fonologiya oppozitsiyalari konkret tovushlarga asoslanadi. SHu bilan birga, har qanday fonetist ma'lum ma'noda fonolog hamdir. Chunki fonetika tadqiqotchisi har qanday tovushlarni emas, balki nutq tovushlarini, ularning ma'lum tildagi farqli belgilarini o'rganadi.

SHunday qilib, fonetika va fonologiya o'zaro chambarchas bog'langan. Ularning asosiy o'rganish ob'ekti bitta. Birinchisi eng kichik nutq birliklarini, ikkinchisi esa shu nutq birliklarining farqli (differensial) belgilarini o'rganadi. Demak, ular o'zlarining ob'ekti jihatidan emas, balki bir ob'ektning turli o'rganish aspekti ekani bilan farq qiladi.

**Fonologiya.** Tayanch shevalarda, shuningdek, boshqa turkiy tillarda 8-9 unli bo'lgani holda, adabiy o'zbek tilida 6 ta unli fonema mavjud. Yozuvda 6 ta unli fonema uchun 6 ta harf qabul qilingan: a, o, o', u, e, i. Demak, unlilar bir fonemaga bir harf tamoyili asosida yoziladi. Nutqiy jarayonda aniq talaffuz qilinuvchi fonemaning variantlari, ya'ni tovushlar bir qator artikulyasion va akustik belgilarga ega bo'ladi.

Ayrim belgilar bir fonemani ikkinchi fonemadan farqlash uchun xizmat qilsa, boshqalari bunday xususiyatga ega bo'lmaydi. Hozirgi o'zbek adabiy tili unli fonemalari uchun 2 ta belgi (labning ishtiroki va og'izning ochilishi darajasi) fonologik muhim, farqlovchi belgi sanaladi. Shuning uchun unlilar shu 2 farqlovchi belgi asosida tasnif qilinadi. Ayrim o'zbek shevalarida uchraydigan, eski o'zbek tilida ham mavjud bo'lgan unlilarning qator belgisi (old qator yoki orqa qator), shuningdek, unlilarning cho'ziqlik belgisi ham hozirgi o'zbek adabiy tili uchun muhim farqlovchi belgi hisoblanmaydi.

Hozirgi o'zbek adabiy tilida 23 ta undosh fonema mavjud bo'lib, ular b, v, g, d, j, z, y, k, l, m, n, p, r, s, t, f, x, s, ch, sh, q, g', h harflari bilan ifodalanadi. Undoshlar uchun paydo bo'lish o'rni, paydo bo'lish usuli va ovozning ishtirok etish-etmasligi belgilari farqlovchi belgilar sanaladi. Ana shu belgilar undoshlar tasnifi uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Tilimizdagi barcha so'zlar yuqoridagi 6 unli va 23 undosh fonemaning turlicha kombinatsiya (qo'shilish)laridan tashkil topadi.

So'zlar fonetik jihatdan bo'g'inlarga bo'linadi. Bo'g'in tovushlar birikmasidan tashkil topganda, shu tovushlardan bittasi bo'g'in hosil qiluvchi tovush vazifasini bajaradi. O'zbek tilida unlilar bo'g'in hosil qiluvchi tovush sanaladi. Shuning uchun so'zdagi bo'g'inlar soni uning tarkibidagi unlilarga qarab belgilanadi. So'zlar nechta unli ishtirok etishiga ko'ra bir bo'g'inli (ot, tog', bog', suv, o't), ikki bo'g'inli (ona, bola, hamma) va ko'p bo'g'inli (vazifa, gazeta, gulbeor, momaqaldiroq) so'zlarga bo'linadi. O'zbek tilidagi bo'g'inlar tuzilishiga ko'ra, asosan, quyidagi ko'rinishlarga ega: 1) faqat bir unli: o-na, o-pa, a-ka, o'-sha; 2) unli+undosh: o'n, ish-la, er-tak; 3) undosh+unli: te-rak, me-va, va-zi-fa; 4) undosh+unli+undosh: suv-don, tish-la,

ko‘z-la, daf-tar; 5) unli+undosh+undosh: ost, ust, aql, ilm-li; 6) undosh+unli+undosh+undosh: do‘st, g‘isht, go‘sht, dard, qand. So‘nggi bo‘g‘in turi asosan o‘zlashma so‘zlarda uchraydi.

O‘zbek tilida urg‘u asosan so‘zlarning oxirgi bo‘g‘iniga tushadi. Bu holat urg‘uning vazifasi bilan bog‘liqdir. Oxirgi bo‘g‘indagi urg‘u, birinchidan, so‘zning tugallanganligini bildiradi; ikkinchidan, so‘zni so‘zdan ohang jihatdan ajratib turadi; uchinchidan, so‘z bo‘g‘inlarini bir bosh urg‘u ostiga birlashtirib, ularni ohang tomondan yaxlitlaydi. Urg‘u asosan so‘zning oxirgi bo‘g‘iniga tushganligi uchun so‘zning xilma-xil qo‘shimchalar olib cho‘zilib borishi urg‘uning ham oxirgi bo‘g‘inga surilib borishini ta‘minlaydi: dala-dalalar-dalalarimiz-dalalarimizda kabi. Etimologik nuqtai nazardan boshqa tizimdagi tillar (masalan, arab va fors tillari)ga mansub bo‘lgan, lekin o‘zbek tilining o‘z so‘ziga aylanib ketgan *albatta*, *ammo*, *ba‘zi*, *doimo*, *lekin*, *hamisha*, *hamma*, *hozir* kabi so‘zlarda bu umumiy qoidadan chetga chiqish holatlari ham kuzatiladi.

Fonologiyaning birligi fonemalardir. Fonema – so‘z va morfemalarni shakllantiradigan va ularning ma‘nolarinn farqlash uchun xizmat etuvchi, boshqa mayda bo‘lakka bo‘linmaydigan tilning eng kichik tovush birligi.

Fonemalar haqidagi ta‘limot fonologiyadir. Fonologiya ma‘lum bir tildagi fonemalar sistemasini, ularning farqlash belgilarini o‘rganadi.

Fonema termini hozirgi tilshunoslikda qat‘iyo‘rin olgan bo‘lsa-da, ammo uning maqomi masalasida xilma-xil qarashlar bor. Fonema tilning eng kichik tovush birligi ekani haqidagi dastlabki ma‘lumot I.A.Boduen de Kurtenega mansubdir. Lekin bungacha Sharq tilshunosligida, garchi fonema termini bilan nomlanmagan bo‘lsa ham, lekin ma‘no farqlash uchun xizmat qiladigai eng kichik tovush tipi haqidagi tushuncha mavjud edi. Hind tilshunoslari, turkiyshunoslar, xususan, Mahmud Koshg‘ariy, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Boburlar tovushning ma‘no farqlash tomoniga katta ahamiyat berganlar.

Fonema termini tilshunoslikka Boduen tomonidan kiritildi. Boduen 1870 yildagi «XIX asrgacha bo‘lgan qadimgi polyak tili haqida» nomli magistrlik dissertatsiyasida fonema haqida fikr yuritadi va uni etimologik-morfologik birlik sifatida talqin etadi.

Boduen de Kurtenening fonema haqidagi mazkur konsepsiyasi ayni shu holda uning shogirdi N.V.Krushevskiy tomonidan rivojlantirildi. I.A.Boduen de Kurtenening fonema haqidagi tushunchasi o‘zgarib bordi. Xususan, «Slavyan tillari qiyosiy grammatikasining ayrim bo‘limlari» (1981) asarida fonemani, bir tomondan, «so‘zning fonetik bo‘linmas qismi» hisoblasa, ikinchi tomondan, morfemalar tarkibidagi tovush o‘zgarish qonuniyatlarini hisobga olgan holda boshqa mayda bo‘lakka bo‘linmaydigan tovushlarginamas, balki morfema yoki so‘zning tarkibida bo‘lakka ajralmaydigan bir butun holdagi ikki va undan ortiq tovushlar ham fonema bo‘lishi mumkinligini ko‘rsatadi. Masalan, *vra‘at*, *vorotit* so‘zlaridagi «*ra*» va «*oro*» tovushlari bir morfema doirasida bir butun holda almashinadi. Bu bilan u fonemaga fonetik birlik sifatida emas, balki etimologik birlik sifatida qarashini namoyish etdi.

SHu bilan birga, xuddi shu yerning o‘zida fonemaning quyidagi ikki farqli tomoni borligini ham ko‘rsatadi: 1) antropofonik (ya‘ni akustik-artikulyasion) xususiyatlarning oddiy umumlashmasi, morfemaning harakatlanuvchi komponenti va ma‘lum morfologik kategoriya belgisi. SHunday qilib, Boduen de Kurtene fonemaning morfologik aspektdan farq qiladigan antropofonik aspekti ham borligini e‘tirof etdi.

Keyinchalik esa u o‘zining fonema haqidagi tushunchasini o‘zgartirdi va unga psixologik nuqtai nazardan yondashdi. Xususan, «Tilshunoslikka kirish» (1917) asarida «inson psixikasidagi tovush haqidagi tasavvur» fonema hisoblanadi.

«Fonetika» grekcha so‘zdan olingan bo‘lib, «tovush» ma‘nosini anglatadi, ya‘ni «tovush haqidagi bo‘lim» demakdir. Nutq tovushlari fonetikada o‘rganiladi. Nutq a‘zolari harakati jarayonida hosil bo‘lgan tovushlar ***nutq tovushlari*** deyiladi. Nutq tovushlarini hosil qiluvchi nutq a‘zolarining jami ***nutq apparati*** deb yuritiladi.

Nutq a‘zolari nutq tovushlarini hosil qilishdagi ishtirokiga ko‘ra ikki xil bo‘ladi:

1. **Faol (aktiv) nutq a‘zolari:**

1) til; 2) ovoz (un, tovush) paychalari; 3) yumshoq tanglay; 4) og'iz bo'shlig'i (til, lab); 5) pastgi jag'.

**2. Passiv (sust) nutq a'zolari:** 1) o'pka; 2) kekirdak; 3) qattiq tanglay; 4) burun bo'shlig'i; 5) tish.

Nutq tovushlari ikki xil: unli va undosh tovushlar.

**Unli tovush:** o'pkadan chiqayotgan havo oqimining og'iz bo'shlig'ida hech qanday to'siqqa uchramay chiqishidan hosil bo'ladigan tovush *unli* hisoblanadi. Unli tovushlar oltita: *a, i, e, u, o', o*.

Unlilar lab ishtirokiga ko'ra ikki xil bo'ladi:

1. Lablangan unlilar: *o, u, o'*
2. Lablanmagan unlilar: *a, i, e*.

**Unli tovushlar tasnifi. i** unlisi-old qator lablanmagan, tor unli. Tilning tanglay tomon yuqori ko'tarilishi va og'izning nisbatan tor ochilishi bilan qisqa talaffuz etiladi. *Til, dil, jim, kiyik, kiyim*.

**u** unlisi-orqa qator, lablangan, tor unli. Uni talaffuz qilishda til tanglay tomon ko'tarilib og'iz juda torayadi, lablar oldinga cho'ziladi: *gulshan, bug'doy, kurtak, lunj*.

**e** unlisi-old qator, lablanmagan, o'rta keng unli. Tilning tanglay tomon yuqori-o'rta ko'tarilishi, til uchining pastki tishlarga tegishi bilan yumshoq talaffuz etiladi, og'iz bir muncha torayadi: *etik, sekin, meva, ehson*.

**o'** unlisi-orqa qator lablangan, o'rta keng unli. Har vaqt so'zning birinchi bo'g'inida keladi: *bo'z, bo'y, do'ppi, ko'zgu*.

**a** unlisi-old qator lablanmagan, keng unli. Uning aytilishida lablar kerilib, tilning oldingi qismi pastga tushadi, uchi esa pastki tishlarga yaqinlashadi: *alanga, vazifa, gavhar, jasur, kurash*.

**o** unlisi-orqa qator, lablangan, keng unli. Uning aytilishida til ichkariga tortiladi, tilning uchi tishlardan uzoqlashadi, pastki jag' esa tushiriladi: *bozor, obod, ovoz, hikoya, matbuot*.

**Undosh tovush:** o'pkadan chiqayotgan havo oqimining og'iz bo'shlig'ida ma'lum to'siqqa uchrashidan hosil bo'lgan tovush *undosh* hisoblanadi. Undoshlar quyidagicha tasnif etiladi.

1. Hosil bo'lish o'rniga ko'ra: (*qaerda?*)
2. Hosil bo'lish usuliga ko'ra: (*qanday?*)
3. Ovoz va shovqinning ishtirokiga ko'ra.

### 1. Hosil bo'lish o'rniga ko'ra undoshlar quyidagicha:

- a) lab undoshlari                      Lab-lab: **b, p, m** (v)  
  Lab-tish: **v, f**  
  Til oldi: **d, t, n, l, r, z, sh, ch, j**
- b) til undoshlari                        Til o'rta: **y**  
  sayoz til orqa: **k, g, ng**  
  til orqa:  
  chuqur til orqa: **q, g', x**
- v) bo'g'iz undoshi:                      **H**

### 2. Hosil bo'lish usuliga ko'ra undoshlar quyidagilarga ajratiladi:

a) portlovchi undoshlar: **b, p, d, t, q, k, g**. Bunday undoshlar talaffuzida o'pkadan chiqayotgan havo oqimi og'iz bo'shlig'idagi to'siqdan portlab chiqadi;

b) sirg'aluvchi undoshlar: **v, f, g', z, s, sh, j, y, x, h**. Bu undoshlar talaffuzida o'pkadan chiqayotgan havo oqimi og'iz bo'shlig'idagi to'siqdan sirg'alib chiqadi.

v) qorishiq (affrikat), portlovchi-sirg'aluvchi undoshlar: **ch, j, s**. Bu undoshlar ham portlab, ham sirg'alib chiqadi.

*m,n,ng* - burun tovushlari. Bu tovushlar talaffuzida havo oqimining bir qismi burun bo'shlig'idan chiqadi.

*l*-yon tovush, til- tanglay tovushi: havo oqimi tilning ikki yonidan sirg'alib chiqadi.

*r*-titroq tovush, til uchining titrashidan hosil bo'ladi.

**3. Ovoz va shovqinning ishtirokiga ko'ra** undoshlar ikki xil bo'ladi: *Jarangli va jarangsiz* undoshlar. Jarangli undoshlar ovoz va shovqindan iborat bo'ladi. Tarkibida ovoz (un) miqdori ko'p bo'lgan jarangli undoshlar **sonor** (lotincha «**ohangdor**») lar deyiladi. Sonor tovushlar 5 ta: **m, n, ng, l, r**

Jarangli	b	v	d	g	J	J	z	g'	l	m	n	ng	r
Jarangsiz	p	f	t	k	Ch	Sh	s	x					

Faqat jarangli undoshlardan iborat so'zlar: *mard, javlon, maydon, jadval*.

Faqat jarangsiz undoshlar ishtirokidagi so'zlar: *paxta, ko'kat, soch popuk, sex*.

### Undosh tovushlar tasnifi.

Ovoz va shovqinning ishtirokiga ko'ra	Hosil bo'lish usuliga ko'ra	Hosil bo'lish o'rniga ko'ra					
		Lab tovushlari		Til tovushlari			
		ab-lab	ab-tish	il oldi	il o'rta	til orqa	
						sayo z	C huqur
	Portlovchilar	b		d		g	
Jarangsiz		P		t		k	q
Jarangli		V	V	z,j	y		g'
Jarangsiz	Sirg'aluvchilar		F	s,j			x
Jarangli	Qorishiq tovushlar			j			
Jarangsiz				ch			
Jarangli	Burun tovushlari	M		n		n(ng)	
	Yon tovush			l			
	Titroq tovush			r			

### Bo'g'in

Bir nafas to'lqinida aytiladigan tovush yoki tovushlar yig'indisi *bo'g'in* deyiladi. So'zda nechta unli bo'lsa, shuncha bo'g'in bo'ladi. Bir unli bir bo'g'inni hosil qila oladi. Bo'g'inlar tarkibi quyidagicha bo'ladi: s-undosh; v-unli.

**v:** o-na, u-mid, a-ka, i-jod, o-lim, a-yoz.

**vs:** o't, el, ot, on, ur, ish, oy, ip, iz, o'y, ol-(ma), in-(kor).

**cv:** bu, shu, da-da, ma-na, da-(vom), sa-na, ra-(von), sa-(bab).

**cvc:** ko'k, gul, qo'l, sol, bor, dam, tan-qid, tan-bur, rav-shan.

**cvcc:** go'sht, qasd, mard, qasr, fikr, ranj, hukm, mehr.

**vcc:** aql, ust, asr, ahl, art, ishq, ont.

**ccvcc-**sport, shrift.

O'zbek tilida bir unli, ikki undoshdan iborat bo'g'in mavjud, ammo ikki unli va bir undoshdan iborat bo'g'in uchramaydi. Negaki, bir unli bir bo'g'inga teng keladi. Bo'g'inning ahamiyati quyidagilardan iborat:

- maktab o'quvchilarini o'qish va yozishga o'rgatish bo'g'inga asoslanadi;
- she'riy misralarda bo'g'inlar tengligi alohida ahamiyat kasb etadi;
- so'zni ko'chirishda bo'g'inga asoslaniladi.

Bo'g'in tuzilishiga ko'ra ikki xil bo'ladi: *ochiq bo'g'in va yopiq bo'g'in*.  
Unli bilan tugagan bo'g'in ochiq hisoblanadi: *ma-la-ka, ka-li-ma, o-na*.  
Undosh bilan tugagan bo'g'in yopiq hisoblanadi: *mak-tab, kaj-raf-tor, tan-siq*.

## Urg'u

Urg'u ikki xil bo'ladi: *so'z urg'usi va gap urg'usi*.

1. **So'z urg'usi**. So'zdagi ma'lum bir unlining (yoki bo'g'inning) cho'ziqroq, ajratib, ta'kidlab aytilishidir. O'zbek tilidagi so'z urg'usi ko'chuvchan xarakterga ega bo'lib, asosan so'zning oxirgi bo'g'iniga tushadi: *gul-gulzor-gulzorlar-gulzorlarimiz-gulzorlarimizni*. So'zga qo'shimcha qo'shilishi bilan urg'u ko'chib boraveradi. Lekin barcha qo'shimchalar ham urg'u olavermaydi. Quyidagi qo'shimchalar urg'u olmaydi:

1. Birinchi darajali shaxs-son qo'shimchalari: *-man, -san, -dir, -miz, -siz*. Masalan, *o'quvchiman, bolaman, yaxshisiz*.

2. Sonlardagi *-ta, -tacha* qo'shimchalari, *ravish yasovchi-cha* qo'shimchasi urg'u olmaydi: *o'nta, yigirmata, beshtacha, mardlarcha*.

3. *-dek, -day* qo'shimchalari ham urg'u olmaydi: *qordek, oydek, shishadek*.

4. Fe'ning bo'lishsiz shakli *-ma* ham urg'u olmaydi: *kelmadi, olmagan, aytmadi*.

5. Qo'shimcha holdagi yuklamalar urg'u olmaydi: *qizgina, keldi-yu*.

Ba'zi so'zlarda urg'u oxirgi bo'g'inga tushmaydi: *ammo, doim, afsuski, hatto, xuddi, albatta, balki, hamma, texnika, hamisha, kofe*. Bunday holat o'zlashgan (boshqa tillardan kirgan) so'zlarda kuzatiladi.

So'z urg'usi ma'no farqlash uchun ham xizmat qiladi. Masalan: *olma (meva)-olma (fe'l), etik (kiyim)-etik (fan), atlas (xarita)-atlas (ko'ylak), hozir (payt)-hozir (tayyor), yangi (kitob)-yangi (payt), qo'llar (ot)-qo'llar (fe'l), qishloqcha (ot)-qishloqcha (ravish), o'quvchimiz-o'quvchimiz*.

Demak, so'z urg'usi so'zdagi biror bo'g'inni ajratib, ta'kidlab aytish va ma'no farqlash uchun xizmat qiladi.

2. **Gap urg'usi** «mantiqiy urg'u», «logik urg'u», «ma'no urg'usi» kabi terminlar bilan yuritiladi. Gap urg'usi gapdagi biror so'zning ta'kidlab, ajratib aytilishidir: *Biz kecha sayohatga bordik. Biz sayohatga kecha bordik. Kecha sayohatga biz bordik*.

Gap urg'usini olgan bo'lak kesimdan oldin (kesim oldida) keladi.

### Tovush o'zgarishlari

O'zakka qo'shimcha qo'shilishi natijasida yuzaga keladigan o'zgarishlar *fonetik o'zgarishlar* yoki *tovush o'zgarishlari* deyiladi. Tovush o'zgarishlarining quyidagi ko'rinishlari mavjud.

1. **Tovush almashuvi**: bunda qo'shimcha qo'shilishi natijasida bir tovush boshqa tovushga almashadi: *qishloq-im-qishlog'im, etik-i-etigi, yosh-a-yasha, son-a-sana, bo'ya-q-bo'yoq, ong-la-angla, ot-a-ata*.

2. **Tovush tushishi**: a) unli tovush tushadi: *o'g'il-im-o'g'lim, shahar-ing-shahring, ulug'-ay-ulg'ay*. b) undosh tovush tushadi: *past-ay-pasay, sust-ay-susay, men-niki-meniki, senning-sening*.

3. **Tovush ortishi**: *shu-day-shunday, o'sha-da-o'shanda; isi-q-issiq*.

#### 4. MA'RUZA: INGLIZ TILI FONEMASI

##### *Reja:*

1. Fonetika haqida umumiy ma'lumot.
2. Tilning fonetik vositalari.
3. Nutq apparati, uning tuzilishi
4. Nutq tovushlari.

##### *Tayanch tushunchalar:*

1. Fonetika.
2. Nutq tovushlari.
3. Fonema.
4. Nutq azolari.
5. Nutq apparati.

**Fonologiya** (fono... va ...logiya) — tilshunoslikning til tovush qurilishining strukturaviy (tuzilmaviy) va funksional (vazifaviy) qonuniyatlarini, tilning eng mayda, ma'no bildirmaydigan birliklari — bo'g'inlar, fonemalarning tuzilishi va amalda qo'llanishini o'rganuvchi bo'limi. Fonologiyaning fonetikadan farqi shundaki, uning diqqat markazida fizik hodisa sifatidagi tovushlarning o'zini emas, balki ularning nutqda yanada murakkabroq ma'noli birliklar — morfemalar, so'zlarning tarkibiy qismi sifatida bajaradigan vazifasini o'rganish turadi. Shu tufayli fonologiyani ba'zan funksional fonetika deb ham ataydilar. Ruschex tilshunosi N. S. Trubetskoyning aniqlashicha, fonologiya bilan fonetika o'rtasidagi o'zaro munosabat shundan iboratki, har qanday fonologik tavsifning ibtidosi ma'no farqlovchi tovushiy ziddiyatlarni aniqlashdir; fonetik tavsif esa boshlang'ich nuqta va moddiy asos sifatida qabul qilinadi.

Fonologiyaning asosiy birligi — fonema, asosiy tadqiqot obyekti — fonemalarning zidlanishlari (oppozitsiyalari) bo'lib, bu oppozitsiyalar bir butun holda tilning fonologik tizimini hosil qiladi. Muayyan o'rinda bir fonemaning ikkinchisiga qarama qarshi qo'yilishini namoyon etuvchi so'zlar (burborbir kabi) kvaziomonimlar (soxta omonimlar) deyiladi. Odatda, tildagi fonemalar soni kvaziomonimlar yordamida aniqlanadi va bunda biryo'la bir fonemani ikkinchisiga qarama qarshi qo'yish orqali ularning farqlanish elementlari tasnif etiladi. Mas, tol,sol so'zlaridagi ikki fonema — t va s portlovchi, sirg'aluvchi farqlanish elementlariga ega. Ularning har ikkisi ham til oldi, jarangsiz, shovqinli

undoshlardir va bu belgilari farqlanmovchi elementlar deyiladi. Demak, fonema tilda o'z vazifasini fonologik jihatdan farqlanuvchi va farqlanmovchi elementlar orqali bajaradi.

Fonologiya zamonaviy ma'nodagi mustaqil tilshunoslik fani sifatida 20-asrning 20—30-yillarida shakllandi; uning yaratuvchilari N. S. Trubetskoy, russhveysar olimi S.O.Karsevskiy, rusamerika tilshunosi R.S. Yakobsonlar bo'lib, ular 1928-yil Gaagada bo'lib o'tgan Tilshunoslarning 1-xalqaro kongressida fonologiyaning asosiy g'oyalarini bayon etganlar. N. S. Trubetskoyning "Fonologiya asoslari" (1939) kitobi fonologiya taraqqiyotidagi eng muhim bosqich bo'lgan. Fonologiya paydo bo'lishining ilk asoslari 19-asr oxirlarida nemis olimi I. Vinteler va ingliz olimi G. Suit asarlarida, umumnazariy jihatlari keyinchalik F. de Sossyur tadqiqotlarida shakllangan. Ayniqsa, fonologiyaning rivojlanish asoslarini yaratishga ruspolyak tilshunosi I. A. Boduen de Kurtene katta hissa qo'shdi. Fonema g'oyasi va uning prinsiplari ilk marta uning asarlarida ishlab chiqilgan. Boduen de Kurtene tadqiqotlari negizida Leningrad va Moskva fonologik maktablari shakllandi (o'zbek tilshunoslarining fonologik tadqiqotlari ham asosan ana shu maktablar ta'sirida yaratilgan). Hozirgi kunda mazkur maktablarning fonologik nazariyalaridan tashqari Yevropa va AQShda yana 10 ga yaqin fonologik nazariyalar yaratilgan.

O'zbek tili fonologiyasini o'rganishda Ye.D. Polivanov, V. V. Reshetov, A. Nurmonov, A. Abduazizov va boshqalarlarning ilmiy ishlari ayniqsa ahamiyatlidir.

Fonologiya ham fonetika kabi umumiy fonologiya, xususiy fonologiya, tarixiy (diaxronik) fonologiya va tasviriy (sinxronik) fonologiyaga bo'linadi. Umumiy fonologiya fonemaning mohiyati, fonemalar o'rtasidagi hamda fonema va tovush o'rtasidagi munosabatlarni, fonemaning morfema va so'zga bo'lgan pog'onali munosabatini o'rganadi; tilning fonologik (fonematik) tarkibini aniqlashning metod va tamoyillarini belgilaydi. Xususiy fonologiya, umumiy fonologiyaning metod va tamoyillariga asoslangan holda, u yoki bu tilning fonologik tizimini o'rganadi; o'z navbatida, umumiy fonologiyaga material beradi. Tarixiy fonologiya ma'lum bir til fonologik tizimining tarixiy taraqqiyotini, tasviriy fonologiya esa tarixiy taraqqiyot jarayonidagi muayyan bir davrning fonologik tizimini o'rganadi.

Fikr gap orqali ifoda qilinadi. Gap, odatda so'zlardan tashkil topadi. Gap tarkibida so'zlar va shu so'zlarning o'zaro bog'lanishini ta'minlovchi grammatik vositalar (qo'shimchalar, yordamchi so'zlar) ma'lum nutq tovushlari orqali shakllanadi. Masalan: *Biz ulug` ayyomni mana shu cho`lda kutib olyapmiz* (Y. Shamsharov). Bu gapni tuzishda *biz*, *ulug`*, *ayyom*, *mana*, *shu*, *cho`l*, *kutib*, *olmoq* so'zlari, ularning o'zaro bog'lanishini ta'minlovchi *-ni* (tushim kelishigi qo'shimchasi), *-yap* (zamon ma'nosini ifodalovchi qo'shimcha), *-miz* (shaxs-son qo'shimchasi) qo'shimchalari qatnashgan; har bir so'z va qo'shimcha esa nutq tovushlari vositasida (masalan, *biz* - *b*, *i*, *z*; *ulug`* - *u*, *l*, *u*, *g`*; *-ni* - *n*, *i*; *-da* - *d*, *a* kabi) shakllandi.

Ko`rinadiki, nutq tovushlari so`z va gaplarni tuzishda moddiy baza hisoblanadi, chunki inson tili tovush tilidir.

**Fonetika** tilshunoslikning bir bo`limi bo`lib, unda nutq tovushlari, ularning hosil bo`lishi, turlari, o`zgarishi, urg`u, bo`g`in, ohang kabilar o`rganiladi. **Fonetika** grekcha *phone* so`zidan olingan bo`lib lug`aviy ma`nosi *tovush* demakdir.

**Fonologiya** so`zi tarjima qilinganda “tovush haqidagi ta`limot” degan ma`noni bildiradi (*phone* – tovush, *logos* - ta`limot). Bu bo`limda tovushlarning so`z va morfemalar ma`nolarini farqlashdagi roli bayon qilinadi. Agar fonetika bo`limida tovushlarning fiziologik-akustik xususiyatlari tekshirilsa, fonologiyada, ta`bir joiz bo`lsa, tovushning ijtimoiy mohiyati o`rganiladi.

### **Tovush va fonema**

Tovush bilan fonemani o`zaro farqlash zarur. **Tovush** nutqning fonetik jihatdan bo`linmaydigan eng kichik birligidir, u ma`no ifodalamaydi, lekin har qanday so`z tovushlar vositasida shakllanadi. Masalan, *a, d, m, o* tovushlarini ma`lum bir tartibda talaffuz qilish orqali *odam, omad, moda* singari boshqa-boshqa ma`nodagi so`zlar hosil qilinadi. So`zlar tovush tarkibiga ko`ra turlicha bo`ladi.

1. Bir tovush bilan farq qiladigan so`zlar: *ot – ol, ol – oq, oq - osh, osh – ov, ov – oz, oz – on, on – or, or – os, os – och, och – og`, og` - ox; o`z – oz, oz – iz, iz – uz, uz – ez, davlat – savlat, adip – adib* kabi.

2. Tovushlarning joylashish tartibiga ko`ra farq qiladigan so`zlar. Masalan: *qo`y – yo`q* (birinchi so`z tarkibidagi birinchi tovush ikkinchi so`zning oxirida qo`llanadi.)

3. Biror tovushning ortiqligi bilan farq qiladigan so`zlar: *o`lka – yo`lka, et-bet, sava – savat, tana – tashna, taxt – taxta, o`roq - so`roq* kabi.

Demak, so`zlar tovushlardan tuziladi, ular bir, ikki, uch, to`rt va hokazo miqdordagi tovushlarning tartiblashishidan hosil bo`ladi.

**Fonema** so`z ma`nosini farqlash uchun xizmat qiladigan tovush turidir. Masalan: *bal - bel –bil –bol – bo`l* so`zlari tarkibidagi *a, e(e), i, o, o`* tovushlari so`z ma`nolarini belgilash (ajratish) ga xizmat qiluvchi fonemalardir: *bor, dor, zor, kor, nor, tor, xor, chor, qor* so`zlari tarkibidagi birinchi tovushlar ( *b, d, z, k, n, t, x, ch, q* ) ham shunday vazifa bajargan.

Fonemalarning uch belgisi bor: 1. Akustikasi (eshitilishi). 2. Artikulyatsiyasi (aytilishi yoki talaffuzi). 3. Ma`no farqlashi (ba`zi darsliklarda “lingvistik tomoni” deyiladi)[1].

Bular ichida fonemaning ma'no ajratish belgisi muhim hisoblanadi. Aks holda tovush fonema sanalmaydi.

## Fonetik akustika

**Fonetik akustika** nutq tovushlarining fizik xususiyatlarini tekshiradigan sohadir. Akustik jihatdan har qanday tovush havo

oqimining tebranishi va bu tebranishning quloqqa eshutilishidir. Nutq tovushlari esa o'pkadan kelayotgan havo oqimining un paychalari tebranishidan hosil bo'ladigan ovoz va nutq organlarida hosil bo'ladigan shovqinning quloqqa eshutilishidir. Nutq tovushlari akustikasida ko'yidagilar farqlanadi:

**1. Nutq tovushlarining balandligi yoki pastligi** ma'lum vaqt ichida un paychalarining tebranish miqdoriga ko'ra har xil chiqishidir: un paychalari ko'p tebransa, tovush baland bo'ladi, aksincha, un paychalari kam tebransa, tovush past chiqadi.

**2. Nutq tovushlarining kuchi** ma'lum kenglikdagi maydondan ma'lum vaqtda o'tadigan energiya miqdoridir. Bu haqda tilshunos olim H.Jamolxonov shunday yozadi: "Tovushning kuchi (intensivligi) - 1 sm<sup>2</sup> maydondan 1 sekunda o'tadigan energiya miqdoridir"[2] Demak, nutq tovushlarining kuchi un paychalari tebranishi kengligiga bog'liq: tebranish kengligi katta bo'lsa, tovush kuchli chiqadi, bu kenglik kichik bo'lsa, tovush ham kuchsiz chiqadi.

**3. Nutq tovushlarining tembri (sifati)** – asosiy ton bilan hosil bo'ladi. Tovushlarning tembri og'iz bo'shlig'i va burun bo'shlig'ining hajmi, shakliga, tovush paychalarida shovqinning qanday hosil bo'lishiga bog'liq.

**4. Tovushning cho'ziqlik darajasi** un paychalarining tebranishi davom etgan vaqt bilan o'lchanadi. Tebranish uzoq davom etsa, tovush cho'ziq; tebranish qisqa davom etsa tovush qisqa bo'ladi.

## Nutq tovushlarining artikulyatsiyasi

Nutq tovushlarini hosil qilishda ishtirok etadigan organlar **nutq a'zolari** deb yuritiladi. **Artikulyatsiya** deganda esa nutq a'zolarining nutq tovushlarini hosil qilishdagi faoliyati anglashiladi.

Nutq a'zolariga quyidagilar kiradi:

**1. Nafas apparati:** o'pka, bronxlar (bir juft), nafas yo'li (traxeya).

**2. Bo'g'iz bo'shlig'ida** xalqasimon, piramidasimon, qalqonsimon tog'aylar hamda un paychalari joylashgan.

**3. Og`iz bo`shlig`ida** til, tanglay (qattiq va yumshoq), kichik til, lab va tishlar joylashgan .

**4. Burun bo`shlig`i.**

**5. Markaziy nerv sistemasi.**

Nutq a`zolarining jami **nutq apparati** deyiladi. Endi har bir nutq a`zosining vazifasi xususida to`xtalib o`tamiz.

**O`pka** inson organizmini kislorod bilan ta`minlovchi a`zo ekanligi hammaga ma`lum. Nutq a`zosi sifatida esa o`pka nutq tovushlarining hosil bo`lishi uchun zarur bo`lgan havo oqimini etkazib beradi, ya`ni inson nafas olganida o`pka va undagi bronxlar havoga to`ladi va bu havo oqimi tashqariga qaytib chiqish jarayonida tovush hosil qiluvchilik vazifasini ham bajaradi. Havo oqimi **nafas yo`li** orqali **bo`g`izga** tomon harakatlanadi. Bo`g`izdagi **cho`michsimon, uzuksimon, shoxsimon, xalqasimon, piramidasimon, qalqonsimon tog`aylar** un paychalarini ushlab turuvchi a`zolardir. **Un paychalari** esa ovoz manbai hisoblanadi, chunki ular dutor yoki soz torlariga o`xshab havo urilishi natijasida ovoz chiqaradi (simyog`ochga tortilgan simlarning shamol kelib urilishi natijasida chiyillab ovoz chiqarishini ko`z oldingizga keltiring). **Og`iz bo`shlig`i** tovushni kuchaytirib berishga yordam beradigan a`zodir. **Til** juda ko`p tovushlarni hosil qilishda ishtirok etadigan a`zodir. Tilning turlicha harakati va holati natijasida unli va undosh tovushlar hosil bo`ladi. **Kichik til** ham ayrim tovushlarning (**q, g`, x**) hosil bo`lishida qatnashadi. **Lablarning** keng ochilishi, cho`chchayishi, jiplashishi yoki pastki labning ustki tishlarga tegishi natijasida turli tovushlar hosil bo`ladi. Ayrim tovushlar havo oqimining **tishlar** orasidan sirg`alib chiqishi natijasida hosil bo`ladi. **M, n, ng** tovushlari hosil bo`lishida havo oqimining bir qismi burun bo`shlig`i orqali o`tib, tashqariga chiqadi. **Markaziy nerv sistemasi** nutq a`zolari harakatini yuzaga keltiradi, bu harakatni bevosita boshqarib turadi. Ana shu tariqa har bir nutq a`zosining tovushlarni hosil qilishda o`z vazifasi bor.

### **O`zbek tilining fonetik vositalari**

So`z ma`nolarini ajratish, chegaralash uchun xizmat qiladigan vositalar **fonetik vositalar** sanaladi. Bunday vositalar qatoriga **nutq tovushlari, urg`u, ohang (intonatsiya)** kiradi. So`z ma`nolarini farqlashga xizmat qiladigan fonemalar xususida yuqorida fikr yuritildi. Lug`at tarkibidagi barcha so`zlar, grammatik shakllar ana shu fonemalarining ma`lum tartibda ketma-ket joylashishi orqali shakllanadi. Ayrim hollarda o`xshash bo`lgan (omonim) so`zlarning ma`no va grammatik shakllarini farqlashda **urg`u** (leksik urg`u) fonetik vosita bo`lishi mumkin. Masalan: *olma* (predmet, mevaning turi), *olma* (harakat, *olmoq* fe`lining bo`lishsiz shakli, *-ma* qo`shimchasini ajratish

mumkin); *akademik* (predmet, ot), *akademik* (belgi, sifat); *gullar* (ot, “ko`p gul” ma’nosida), *gullar* ( fe’l, “gullamoq”).

Gapning maqsadga ko`ra turini ajratishda esa **intonatsiya** (ohang) fonetik vosita bo`lishi mumkin. Masalan: *Dars boshlandi. (darak gap) Dars boshlandi? (so`roq gap).*

## 5. MA’RUZA: LEKSIKOLOGIYA

### Reja:

1. Leksikologiyada so‘z muammosi.
2. Leksemaning til birligi, so‘zning nutq birligi ekanligi.
3. Leksemaning ikki tomoni: nomema va semema.
4. Mustaqil va yordamchi leksemalar.

Leksikologiya grekcha «leksika» so‘zidan olingan bo‘lib, tilning lug‘at tarkibini o‘rganadi. Tilda mavjud bo‘lgan so‘zlarning hammasi lug‘at tarkibi yoki leksika deb yuritiladi. Lug‘at tarkibining quyidagi aspektlari mavjud:

- a) tilning asosiy birligi bo‘lgan so‘z muammosi;
- b) til lug‘at tarkibi qurilishi;
- d) lug‘aviy birliklarning qo‘llanilishi;
- e) lug‘at tarkibining boyishi, taraqqiyoti va boshqalar.

Ushbu masalalar yaniso‘z muammosi **leksikologiyaning asosiy o‘rganish manbayidir**. O‘zbek tilshunosligida leksema vaso‘z atamasining hozirgacha yonma-yon qo‘llanayotganligi va leksemani lisoniy sath birligi atamasi, so‘zni nutqiy sath birligi sifatida qarashga intilish kabi ziddiyatli nuqtayi nazarlar yashab kelayotganligini aytish joizdir. Tilshunoslar Arastu davridan boshlab leksikaga ta’rif berish ustida bosh qotirganlar. Ularning barchasi so‘zning alohida-alohida qirralariga berilgan ta’riflar bo‘lib,leksemaning barcha jihatlarini qamrab olishga qodir emas. «Bugungi kunda sintaksis bo‘yicha tilshunoslik nazariyasida yaratilgan kesim haqidagi yangi ta’limotga tayangan holda o‘zbek tilshunosligida o‘zbekcha kesim tushunchasini ishlab chiqish mumkin ekan, bunga bevosita metodologik omil sifatida tayanib, uni umumiy va xususiy leksema nazariyasiga ham tadbiiq qilish lozim»,- deydi professor H. Ne‘matov. Darhaqiqat, leksemaga ta’rif berilar ekan, har bir tilning ichki tabiatidan kelib chiqish zarurati mavjud bo‘lishi kerak. Ma’lumki, yevropa tilshunosligida leksemaga morfema orqali ta’rif beradilar, chunki flektiv tillar, jumladan, rus va arab tillarida o‘zaklar mustaqil qo‘llanishga ega emas,o‘zak morfemaning bir turi sifatida qaraladi. Chunonchi, *pishu, chitayu, druzya, ushi* kabi ruscha, *ktb, qr’* kabi arabcha so‘zlarda o‘zak qo‘shimchalar bilan qorishib ketgan, o‘zak bilan affiks orasida chegara aniq emas. Turkiy tillarda o‘zak va qo‘shimcha orasida chegara aniq bo‘lganligi tufayli, leksemaga morfema orqali emas, balki lisoniy sathning alohida bir birligi sifatida qarash lozim.

**Leksema nima?** Bu savolga shunday javob qaytarish mumkin: Jamiyat a’zolari uchun tayyor, umumiy, majburiy bo‘lgan, shakl va mazmunning barqaror birikuvidan tashkil topgan voqeylikdagi narsa, belgi, xususiyat va munosabatlarni shakllantiruvchi, nutq va lug‘atda grammatik morfemalarni o‘ziga biriktira oladigan morfema turi leksemadir. Ma’lumki, formal tilshunoslikda til va nutq hodisalari, birliklari farqlanmas edi. Shunga ko‘ra, leksema va so‘z ham bir-biridan farqlanmagan. Sistem tilshunoslik nuqtayi nazaridan bevosita kuzatishda berilgan matn va lug‘atlarda qayd etilgan so‘zlar nutq birliklari hisoblanadi. Yuqorida qayd etib o‘tganimizdek, til birliklari bevosita kuzatishda berilmagan bo‘lib, ular jamiyat a’zolari uchun tayyor va majburiy bo‘ladi.

Til birliklari (fonema, morfema, leksema, konstruksiya)dan fonemaning to‘la ta’rifi bilan tanishmiz. Morfemalarni keyingi ma’ruzalarimizda atroflicha o‘rganamiz. Leksemaning

nutqdagi voqeligi soʻzdir. Leksemalar konstruksiyalarda mustaqil oʻrin egallay olish yoki egallay olmasligiga koʻra, mustaqil va yordamchi leksemalarga boʻlinadi.

Mustaqil leksemalar nutqda alohidalik xususiyatiga, oʻzidan keyin grammatik morfemalarni ergashtirish qobiliyatiga ega. Biroq leksemalar ichida shundaylari ham borki, ular gapda mustaqil oʻrinni egallay olmaydilar. Bunday leksemalar sirasiga yordamchi soʻzlar (bogʻlovchilar, sof ot, feʼl, ravish, koʻmakchi, yuklama, nisbiy soʻzlar va b.: *ham, hamda, biroq, lekin; uchun, bilan, sari, sayin; tag, ost, boʻy, old; qara; boshla, yubor, boʻl, soʻng, kabi, yangligʻ, burun....*) kiradi. Mohiyatan ushbu yordamchi leksemalar grammatik morfemalardir. Ular leksemalarga oʻxshab, alohidalik xususiyatiga ham ega boʻladi. Boshqacha aytganda, yordamchi soʻzlar leksemalar va qoʻshimchalar orasida « oraliq uchinchi» boʻlib, ham leksemalar, ham grammatik morfemalar xususiyatini oʻziga mujassamlashtiradi. Ammo ular na leksemalarga, na grammatik morfemalarga toʻliq teng boʻla olmaydi.

Leksema jamiyatning barcha aʼzolari uchun tayyor, umumiy va majburiy sanalishi bilan bir qatorda yana bir qancha xususiyatlarga egadir.

1. Jamiyat aʼzosi leksemani yasamaydi, uni tayyor holda qabul qiladi.

2. Jamiyat aʼzosining ongida har bir leksema boshqa leksemalar bilan oʻxshashlik qatorlarida (paradigmalarda) yashaydi. Masalan: *[daftar] ~ [bloknot]; [daftar] ~ [oynoma] ~ [roʻznoma]; [daftar] ~ [qissa] ~ [roman]; [daftar] ~ [muqova] ~ [varaq] ~ [bet] ~ [bob]* kabi. *Daftar* soʻzi shu munosabatlar asosida turlicha maʼno beradi.

3. Leksemalar inson ongida qoʻshnichilik munosabatlarida (sintagmatik) ham yashaydi. Masalan: *[daftar] ~ [yoz] ~ [ol] ~ [sifatli] ~ [matematika] ~ [ona tili]; [daftar] ~ [son qoʻshimchalari] ~ [egalik qoʻshimchalari] ~ [kelishik qoʻshimchalari]....*

Bu oʻxshashlik va qoʻshnichilik munosabatlari, maʼno va vazifa imkoniyatlari nutqda oydinlashadi, aniqlashadi. Demak, leksemalar til egalari ongida voqelashgan va voqelashadigan nutqiy imkoniyatlar yigʻindisi hamdir.

Leksema til birligi sifatida turlicha imkoniyatlar majmuasi boʻlsa, soʻz uning voqelanishi, roʻyobga chiqishi, aniq shakl, mazmun va vazifa kashf etgan moddiy koʻrinishidir. Har bir leksema nutqda muayyan soʻz sifatida namoyon boʻladi. Leksema ikki tomonga ega boʻlgan til birligidir. Aniqrogʻi, u shakl va mazmun tomonlaridan iborat ramzdir. Sistem tilshunoslikda leksemaning shakl tomoni **nomema** deyiladi. Nomema faqat leksemaning shakliga (moddiy qobigʻi, tashqi tomoniga) nisbatan ishlatiladi. Leksemaning mazmun tomoni (maʼnosi, ichki tomoni....) esa **semema** nomi bilan yuritiladi. Demak, leksema qoʻshimcha nomema+sememadir.

**Nomema** leksemaning tilga xos tomonidir. U ongimizda muayyan fonemalar tizmasi sifatida mavjud. Nomemaning fonemalar tizmasidan iboratligi ichki nutq jarayonida (kishi fikr yuritganda, maʼlum matn ichida oʻqiganda) aniq seziladi. Chunki odam ichki nutq jarayonida soʻzlarni, qoʻshimchalarni ketma-ket tizib, xuddi gapirayotgandek, ularni grammatik jihatdan shakllantiradi. Demak, inson faqat ovoz chiqarganda emas, balki ovozsiz ham fonemalarga moddiy shakl bera oladi. Tashqi muhitda nomema tovushlar (yoki harflar) tizmasi sifatida voqelashadi. Substansional tilshunoslik leksemalarning moddiy tomoniga – nomemalarga koʻp ahamiyat bermaydi. Chunki nomema leksemaning mohiyatiga taʼsir koʻrsatmaydi. Leksemaning mohiyati esa uning ichki tomoni – semema orqali va shunga koʻra leksemaning boshqa til birliklariga munosabati, aloqaga kirishuvi orqali belgilanadi.

Nomemaning ahamiyati nazmiy nutqda behad katta boʻladi (qofiya, radif, tajnis turlari, sajʼ....). Shu sababli sheʼriyatda nomemaga asosiy eʼtibor qaratiladi. Lingvistika nuqtayi nazaridan esa asosiy eʼtibor faqat sememaga qaratiladi. **Semema** leksemaning ichki tomoni, uning mazmuni, maʼnosi, nimani ifodalab kelishidir. Sememalar koʻpincha ongimizda muayyan bir tushuncha bilan bogʻliq boʻladi. Tushuncha – ong, mantiq birligi, semema esa leksemaga xos birlikdir. Masalan, *[oʻrik]* leksemasining sememasi quyidagi tushunchalarda namoyon boʻladi:

- 1) hoʻl meva turi;
- 2) shu mevaning quritilgani;

3) shu mevani beradigan daraxt.

Sememaning tushunchalar bilan bog'liqligini faqat mustaqil leksemalardagina kuzatish mumkin. Yordamchi leksemalarda, olmoshlarda esa bunday bog'lanishni ko'rmaymiz. Tilshunoslikda sememani hosil qiluvchi ma'no bo'laklari **sema** deyiladi. Masalan: *[daraxt]* leksemasining semalari quyidagilar:

1) predmet; 2) o'simlik; 3) yerda o'suvchi; 4) tanali; 5) ildizli; 6) shoxli; 7) bargli.

Sistem tilshunoslikning asosiy vazifalaridan biri leksemalarni tizim sifatida tahlil qilishdir. Leksemalarni shu nuqtayi nazardan o'zaro ichki munosabatlar asosida muayyan qatorlarga, guruhlarga, tur va turkumlarga birlashtirish zarur.

Xulosa qilib aytish mumkinki, leksema «o'zida tayyorlik, majburiylik, takrorlanuvchanlik, ijtimoiylik xususiyatlarini mujassamlashtirgan, shakl va denotativ ma'no birligidan iborat mustaqil anglanish va qo'llanish tabiatiga ega bo'lgan lisoniy birlik» deb tariflanar ekan, bu ta'rif faqat mustaqil leksemalar uchun xosdir. Chunki yordamchi leksemalar denotativ xususiyatlarga ega emas. Yordamchi leksemalar uchun grammatik ma'no xosdir.

Leksikologiya so'z va uning lug'aviy ma'nosi haqidagi bo'lim ekanligini yuqorida ta'kidlaganimizdek, ayni vaqtda so'z va uning lug'aviy ma'nosi bilan bog'liq hodisalar: o'z ma'no va ko'chma ma'no, bir ma'nolilik va ko'p ma'nolilik, so'zning shakl va ma'no munosabatiga ko'ra turlari (sinonim, omonim, antonim, paronim) leksikologiyada o'rganiladi. So'z lug'aviy ma'no va grammatik ma'noga ega bo'ladi. So'zning ob'ektiv borliqdagi narsa, belgi, harakat kabilar haqidagi ma'lumoti *leksik (lug'aviy)* ma'no deyiladi. Lug'aviy ma'no so'z anglatgan tushunchadir. Grammatik ma'no grammatik shakllar (qo'shimchalar) orqali ifodalangan ma'nodir. Masalan, qalam: a) lug'aviy ma'nosi-o'quv quroli; b) grammatik ma'nosi: ot, turdosh ot, birlikda, turlanmagan.

So'zning lug'aviy ma'nosini leksikologiya, grammatik ma'nosini morfologiya o'rganadi.

Lug'aviy ma'no anglatuvchi til birliklari lug'aviy birliklar deyiladi. Lug'aviy birliklar 3 xil: 1) so'z 2) ibora 3) termin (atama).

Mustaqil so'zlar ham lug'aviy, ham grammatik ma'no ifodalaydi; yordamchi so'zlar esa faqat grammatik ma'no bildiradi.

So'z ma'nosi ma'lum xususiyatlarga ko'ra ko'chadi. Lug'aviy ma'noning asosiy taraqqiyot yo'llari (ko'chish usullari) quyidagicha:

*metafora*, *metonimiya*, *sinekdoxa*, *funksiyadoshlik* (vazifadoshlik), *kinoya*.

*Metafora* - "o'xshashlik" asosidagi ma'no ko'chishi. Bunda ma'no ko'chishi o'xshashlik asosida ro'y beradi. Metafora ikki usulda amalga oshadi: a) ma'no o'xshashlik asosida ko'chadi: oltin kuz, kumush choyshab, fan cho'qqilari, litsey qaldirg'ochlari...b) metafora -dek, -day, kabi, singari, yanglig', xuddi, go'yo so'zlari yordamida hosil qilinadi, masalan: shishadek osmon, Adashgan it kabi Furqat, xuddi sherdek.

*Metonimiya* - "aloqadorlik" asosidagi ma'no ko'chishidir. Bunda narsa-buyum o'ziga aloqador boshqa nom bilan ataladi. Masalan: Qishloq chetida samovar ochildi (samovar-choyxona); Osmonga tikildi million juft ko'zlar (ko'z-odam); Fuzuliyini oldim qo'limga (Fuzuliyini-kitobini).

*Sinekdoxa* - butunning nomi bilan qismini atash, qismning nomini atash. masalan: Besh qo'l barobar emas (qo'l-barmoq); O'n qo'li hunar (qo'l barmoq).. Besh qo'lini og'ziga tiqdi (qo'l barmoq); Shu bitta tuyuq bilan olti bolani boqdim (tuyuq-sigir); Tirnoqqa zor o'tdi (tirnoq-farzand).

*Vazifadoshlik (funksiyadoshlik)* - vazifa asosida ma'no ko'chishi. Bunda so'z ma'nosi vazifaga ko'ra ko'chadi. Masalan: o'q qadimda kamon o'qi ma'nosida qo'llangan. Hozirda miltiq o'qi, pistolet o'qi ma'nolarida qo'llanadi; *kotib*, *pero*, *qalam* so'zlarida ham vazifaga ko'ra ma'no ko'chishi ro'y bergan.

*Kinoya*-qochiriq, kesatiq ma'nolarida aytilgan o'zgaralar "gapi", "so'zi". Kinoya bilan aytilgan so'z qo'shtirnoqqa olinadi. Kinoya bilan aytilgan so'z teskari ma'noda tushuniladi.

Salima "a'lochi" qiz (ikkichi).

Soʻz maʼnosi koʻchishi natijasida oʻz va koʻchma maʼno hosil boʻladi. Soʻzning nutq tarkibi (gap)dan tashqarida ifodalaydigan maʼnosi oʻz maʼno (asosiy maʼno, bosh maʼno) deyiladi. Soʻzning nutq tarkibidagi boshqa soʻzlar yordamida ifodalagan maʼnosi koʻchma maʼno hisoblanadi.

<i>Oʻz maʼno</i>	<i>Koʻchma</i>
qora papka	qora sovuq
temir idish	temir intizom
oltin uzuk	oltin kuz

### **Bir maʼnolilik va koʻp maʼnolilik**

Soʻzlar bir maʼnoli yoki koʻp maʼnoli boʻladi. Bir maʼnolilik hodisasi *monosemiya* deyiladi. Bir maʼnoli soʻzlar *monosemantik* soʻzlar deyiladi. *Odam, chumchuq, ravish, tuya..* kabi soʻzlar bir maʼnolidir.

Birdan ortiq (bir necha) maʼnolarda keladigan soʻzlar koʻp maʼnoli soʻzlar deyiladi. Koʻp maʼnoli soʻzlar *polisemantik* soʻzlar deyiladi.

Koʻp maʼnoli soʻzlarda bosh (asosiy) va koʻchma maʼno boʻladi.

<b>koʻz</b>	Odamning koʻzi, uzuk koʻzi, yogʻoch koʻzi, oynaning koʻzi,	<b>yoqa</b>	koʻylak yoqasi, yoʻl yoqasi, togʻ yoqasi, daryo yoqasi
-------------	--	-------------	--

Koʻp maʼnoli soʻzlar omonim soʻzlardan quyidagicha farqlanadi:

1. Koʻp maʼnoli soʻz bir soʻzning bir necha koʻchma maʼnoda kelishidir. Omonim esa bir xil shaklga ega boʻlgan birdan ortiq (bir necha) soʻzdir. Masalan, oʻt (olov), oʻt (oʻsimlik), oʻt (harakat), oʻt (inson aʼzosi).

2. Koʻp maʼnoli soʻzning maʼnolari oʻrtasida bogʻlanish seziladi. Omonim soʻzlar maʼnolari oʻrtasida yaqinlik sezilmaydi.

**Soʻz sostavi.** Soʻzning tub maʼnosi oʻzak yoki negiz orqali anglashiladi. Maʼlumki, soʻzlar tuzilishiga koʻra tub va yasama boʻladi. Soʻzlarning boshqa maʼnoli qismlarga boʻlinmaydigan qismi oʻzak deb ataladi.

Oʻzak yangi soʻz yasalishi uchun asos boʻladi. Soʻzning negizi esa har bir tilga xos yasovchi affikslarning qoʻshilishidan hosil boʻladi. Odatda, soʻzning tarkibi sostavi maʼnoli qismlarga boʻlinadi. Soʻzning maʼnoli qismi *morfema* deyiladi. Morfemalar *oʻzak morfema, affiks morfema* kabi 2 turga boʻlinadi.

Oʻzakka nisbatan qoʻllanishi oʻrniga qarab affikslar *prefiks, postfiks* va *infikslarga* boʻlinadi. Bularning umumiy nomi *affiks* deyiladi. Soʻzdan soʻz qoʻshilsa, *suffiks* soʻzdan oldin qoʻshiladi, *prefiks, infiks* Hind-Evropa tillariga xos boʻlib, oʻzak ichida qoʻshiladi. Masalan, *vici - yengdim, vinco - yengaman* infiks boʻlib, h.k. zamoni ifodalaydi.

Xullas, hozirgi vaqtda tilshunoslikda morfemika, soʻz yasalishi morfologiyadan ajratib alohida hodisa deb qaralmoqda.

### **Soʻzning shakl va maʼno munosabatiga koʻra turlari**

Soʻzlar shakl va maʼno munosabatiga koʻra 4 xil: omonim, sinonim, antonim, paronim.

*Omonim.* Shakli bir xil, maʼnosi har xil boʻlgan soʻzlar *omonim* deyiladi. Bir xil shaklga ega boʻlgan bir necha soʻz omonim hisoblanadi. Ikki yoki undan ortiq soʻzning bir xil yozilishi va bir xil talaffuz etilishi natijasida omonimlar yuzaga keladi. Omonimlar quyidagicha hosil boʻladi:

1. Tarixda boshqa-boshqa hisoblangan soʻzlarning hozirgi alifboda bir xil yozilishi natijasida:

**üch (3)**  
**Uch**

**uch (harakat)**  
**Uch**

2. Boshqa tillardan o'tgan so'zlarning o'zbek tilidagi so'zlar bilan bir shakl hosil qilishi natijasida: atlas-atlas, etik-etik, tok-tok.

3. Ko'p ma'noli so'z ma'nolari o'rtasidagi bog'lanishning yo'qolishi natijasida: dam (hordiq), dam (bosqon), dam (nafas); gap (til birligi), gap (yig'in).

Omonimlik hodisasi bir turkum doirasida yoki bir necha turkum doirasida sodir bo'ladi. Bir turkum doirasidagi omonimlarga grammatik shakllar qo'shilganda ham omonimligini saqlab qoladi: Biz yoqqan *o'tlarimizni* o'chirdik. Biz ekkan *o'tlarimizni* o'rdik.

### **Sinonimlar (ma'nodosh so'zlar)**

Shakli har xil bo'lsa ham ma'nosi bir-biriga yaqin so'zlar sinonimlar deyiladi. Bir (xil) ma'noning bir necha so'z shakllari orqali berilishi sinonimlarni yuzaga keltiradi. So'zlarning o'zaro sinonim munosabatda bo'lishi sinonimiya hodisasi deyiladi.

Bir umumiy ma'nosi bilan o'zaro bog'lanuvchi so'zlar guruhi sinonimik qator deyiladi. Sinonimik qator ikki yoki undan ortiq so'zdan tashkil topadi. Har bir sinonimik qatorida bir so'z asosiy so'z hisoblanadi. Bu so'z barcha uslublarda qo'llana oladi, shuning uchun (bosh so'z), "neytral so'z", "betaraf so'z", "uslubiy neytral so'z", "dominanta" atamallari bilan nomlanadi. Masalan, nazar solmoq-boqmoq-qaramoq sinonimik qatorida bosh so'z qaramoq; aft-bashara-chehra-oraz-yuz-turq sinonimik qatorida bosh so'z yuzdir.

Bir so'z, ko'p ma'noli so'z birdan ortiq sinonimik qatorida ishtirok etishi mumkin. Masalan, bitirmoq.

1) bitirmoq-tugatmoq-tugallamoq-tamomlamoq-tamom qilmoq (maktabni shu yil bitirgan);

2) bitirmoq-bajarmoq-ado etmoq-o'rinlatmoq-do'ndirmoq-o'tamoq (aytgan topshiriqni bajardi, bitirdi);

3) bitirmoq-tamomlamoq--yo'qotmoq (jinoyatchi to'da bitirildi).

Bir ma'noli so'z faqat bir sinonimik qatorida qatnashadi.

Sinonimlik faqat bir turkum doirasida sodir bo'ladi: odam-inson-kishi-bashar-kimsa (ot turkumida).

Sinonimlar ikki yo'l (usul) bilan hosil bo'ladi: 1. Tilda yangi so'zning paydo bo'lishi natijasida ( yangi so'zlar a) so'z o'zlashtirish (boshqa tildan so'z olish); b) so'z yasash orqali paydo bo'ladi);

Tilda mavjud bo'lgan so'zlarning yangi ma'no kasb etishi natijasida.

1. Quyidagi sinonimlar boshqa (o'zga) tildan so'z o'zlashtirish natijasida yuzaga kelgan: *sevgi (o'zbek)- muhabbat (arab); kuch (o'zbek) - qudrat (arab); buyruq (o'zbek)-amr (arab)-farmon (tojik); ot (o'zbek)-ism (arab); yozuvchi (o'zbek)-adib (arab); manglay (o'zbek)-peshana (tojik); ko'klam (o'zbek)-bahor (tojik); qo'shin (o'zbek)-armiya (rus); aldamchi (o'zbek)-aferist (rus); yurak (o'zbek)- dil (tojik)-qalb (arab).*

O'zlashma so'zlar faqat o'zbekcha so'zlar bilangina emas, o'zaro ham sinonim bo'lishi mumkin, Masalan, hujum-ataka-hamla; josus-agent; mavzu-tema; muallif-avtor; sozanda-muzikant; muharrir-redaktor; aktyor-artist; shtraf-jarima.

2. Tilda bor so'zlar yangicha ma'no kasb etib, yangi sinonimik qatorni yuzaga keltiradi: vazifa-topshiriq; xotira-yodgorlik-esdalik; farq- ayirma: maosh-moyana-oylik.

Bir o'zakdan yasalgan so'zlar ham o'zaro sinonim bo'ladi: chopqir-chopag'on; Turli o'zakdan yasalgan so'zlar ham o'zaro sinonim bo'ladi; *yugurik-uchqur; esli-hushyor*. O'zaro sinonim bo'lgan so'zlardan bir xil yasovchi qo'shimcha vositasida sinonimlar yuzaga keladi: *chidamli-bardoshli-to'zimli-sabrli-toqatli (chidam-bardosh-to'zim-sabr-toqat).*

Ba'zan, tub so'z yasama so'z bilan sinonim bo'ladi: *his-sezgi; savol-so'roq.*

So'z shaklidagi sinonimlar lug'aviy sinonimlar deb yuritiladi. Lug'aviy sinonimlar ma'nosiga ko'ra ikki xil:

1. To'liq (mutlaq) sinonimlar.

2. Ma'noviy sinonimlar.

*To'liq sinonimlar* ma'nosida va ishlatilishida farq qilmaydi. Birining o'rnida boshqasini to'liq qo'llash mumkin bo'lgan sinonimlar to'liq sinonimlar deyiladi: *tilshunoslik-lingvistika; respublika-jumhuriyat; doston-poema; kosmos-fazo*.

*Ma'noviy sinonimlarda* sinonimik qatordagi so'zlar nozik ma'nosi bilan farqlanadi. Ma'noviy sinonimlarni (har doim ham) birining o'rnida boshqasini qo'llab bo'lmaydi; *ho'l-shalabbo; tiqillatdi-taqillatdi, dukillatdi-gursillatdi*; kulmoq-jilmaymoq-irshaymoq-tirjaymoq. Ma'noviy sinonimlar quyidagi jihatlar bilan o'zaro farqlanadi:

a) emotsional-ekspressiv bo'yoq nuqtai nazaridan. Bu jihatdan so'zlar bo'yoqsiz (neytral) yoki bo'yoqdor bo'lishi mumkin. Emosional-ekspressiv bo'yoqdor so'zlarda so'zlovchining munosabati seziladi. Bo'yoqdor so'zlar ijobiy bo'yoqli (*chehra, jamol*) yoki salbiy bo'yoqli (*bashara, turq*) bo'ladi.

b) Ma'noviy sinonimlar uslublarda qo'llanishi jihatidan farq qiladi. Masalan: *bashar, siyna* poetik (badiiy) uslubda: *bahor, quyosh* so'zlari ilmiy uslubda qo'llanadi. Bunday sinonimlar uslubiy sinonimlar deyiladi.

d) sinonimik qatordagi so'zlar ma'noni qay darajada ifodalashi jihatidan ham farqlanadi. Masalan, *qiziq-g'alati-ajoyib-alomat-antiqa* sinonimik qatorida qiziq belgini neytral holda; *ajoyib-alomat-antiqa* so'zlari belgini kuchli darajada; *yaxshi-durust-tuzuk* sinonimik qatorida *durust, tuzuk* so'zlari belgini kuchsiz darajada ifodalaydi.

Sinonimlar uch xil bo'ladi:

- 1) lug'aviy sinonimlar;
- 2) frazeologik sinonimlar;
- 3) grammatik sinonimlar.

Lug'aviy sinonimlar- so'z holdagi sinonimlar; frazeologik sinonimlar- sinonim iboralar. Grammatik sinonimlar morfologik va sintaktik sinonimlardan iborat. Grammatik sinonimlar: *kuz shamoli-kuzgi shamol, xat yozdi-xat yozildi, ukamga oldim-ukam uchun oldim*.

### **Antonimlar**

O'zaro qarama-qarshi(zid) ma'noli so'zlar antonimlar deyiladi. So'zlarning bunday munosabati antonimiya deyiladi. Antonimlar 3 xil belgiga ega: 1) shakli( fonetik strukturasi) jihatidan har xillik; 2) ma'no jihatdan har xillik; 3) ma'nodagi o'zaro zidlik. Uchinchi belgi antonimlarni o'zaro birlashtiradi, zid ma'nolilikni yuzaga keltiruvchi asosiy belgi hisoblanadi.

Ko'p ma'noli so'z har bir ma'nosi bilan ayrim-ayrim so'zlarga antonim bo'lishi mumkin. Masalan, qattiq so'zi bir ma'nosida yumshoq so'ziga, boshqa bir ma'nosida saxiy so'ziga antonim bo'ladi. Boy o'lgudek *qattiq* edi.

Bir so'z o'zaro sinonim so'zlar bilan yoki o'zaro sinonim so'zlar boshqa sinonimlar bilan antonimik munosabat hosil qiladi: xursand-xushvaqt-shod-xurram-xushnud-xafa.

Sinonimiyada so'zlarning bir xil ma'nosi asosidagi birligi sinonimlik qatorini hosil qilsa, so'zlarning o'zaro zid ma'nosi asosidagi birligi antonimik juftlikni yuzaga keltiradi.

Antonimlik faqat bir turkumdagi so'zlar orasida sodir bo'ladi: do'st-dushman.

Qarama-qarshi ma'noli affikslar ham antonim bo'ladi: odobli-beodob, kuchli-kuchsiz.

Keldi-kelmadi kabi so'zlar antonim bo'lmaydi, ular fe'ning bo'lishli va bo'lishsiz shaklidir.

### **Paronimlar**

Aytilishi (talaffuzi) bir-biriga o'xshash, ammo yozilishi va ma'nosi har xil bo'lgan so'zlar paronimlar deyiladi; *yuvindi-yuvundi, fakt-pakt, abzal-afzal, yoriq-yorug', quyulmoq-quyilmoq, arch-art, otalik-otaliq*.

## **Tarixiylik jihatdan o'zbek tili leksikasi**

Tarixiylik jihatdan o'zbek tili leksikasi 3 xil:

- 1) zamonaviy qatlam.
- 2) eski qatlam.
- 3) yangi qatlam.

**Zamonaviy qatlam.** Yangilik va eskilik buyog'iga ega bo'lmagan so'zlar zamonaviy qatlam so'zlarini tashkil etadi. Tilda faol qo'llanuvchi so'zlar zamonaviy qatlam so'zlaridir. Zamonaviy qatlam so'zlari lug'at boyligining asosini tashkil etadi.

**Eski qatlam.** Eskilik bo'yog'iga ega bo'lgan so'zlar eski qatlamni tashkil etadi. Eski qatlam so'zlari ikki xil bo'ladi: 1) tarixiy so'zlar (istorizmlar); 2) arxaik so'zlar (arxaizmlar).

1. **Istorizmlar** ( tarixiy so'zlar) tarixga oid ( hozirgi kunda yo'q) narsa-hodisalarning atamalaridir; Istorizm hisoblangan so'z ham, shu so'z ifodalagan narsa-hodisa ham hozirgi davrda qo'llanmaydi: cho'ri, kanizak, jallod, zindon, sovut, sodoq, paranji.

Ayrim tarixiy so'zlar "tirilgan", ya'ni hozirda ishlatilmoqda: hokim, madrasa, mufti, dorilfunun, ro'za fitr, dorulmuallimun.

2. **Arxaizmlar**(eskirgan so'zlar) hozirda mavjud bo'lgan narsa-hodisalarning eskirgan atamalaridir :zavraq(kema), ulus(xalq), lang(cho'loq), firqa(partiya), tilmoch(tarjimon), budun(xalq), bitik( kitob), irn (lab), dudoq( lab), hamshira (singil), meng ( xol), eng( yonoq), ilik ( qo'l).

Istorizmlar va arxaizmlar quyidagicha farqlanadi.

1. Arxaizmlar hozirda bor narsa-hodisalarning, istorizmlar o'tmishdagi narsa-hodisalar atamasidir.

2. Arxaizmning zamonaviy qatlamga oid sinonimi bo'ladi; istorizmning bunday sinonimi bo'lmaydi.

3. Arxaizm tilda bor narsa-hodisani atovchi birdan ortiq so'zning bor ekanligi sababli paydo bo'ladi. Istorizm narsa-hodisaning hozirgi voqelikdan yo'qolishi sababli yuzaga keladi.

4. Arxaizm o'z sinonimi bo'lgan zamonaviy so'zga nisbatan belgilanadi; Istorizm esa so'z ataydigan narsa-hodisaning o'tmishga oidligi bilan belgilanadi.

5. Arxaizm nomlash va uslub jihatdan farqlash vazifasini bajaradi. Istorizm faqat nomlash vazifasini bajaradi.

**Yangi qatlam.** Tilda yangi paydo bo'lgan va yangilik belgisi (bo'yog'i) sezilib turadigan so'zlar neologizmlar deyiladi: bakalavr, magistr, litsey, kollej.

O'zbek tili lug'at tarkibidagi eski va yangi so'zlar nofaol so'zlar deb, zamonaviy qatlam so'zlari esa faol so'zlar deb nomlanadi.

#### 4. MA'RUZA: LEKSIKOGRAFIYA

So'zlar shakl va ma'no munosabatiga ko'ra 4 xil: omonim, sinonim, antonim, paronim.

**Omonim.** Shakli bir xil, ma'nosi har xil bo'lgan so'zlar *omonim* deyiladi. Bir xil shaklga ega bo'lgan bir necha so'z omonim hisoblanadi. Ikki yoki undan ortiq so'zning bir xil yozilishi va bir xil talaffuz etilishi natijasida omonimlar yuzaga keladi. Omonimlar quyidagicha hosil bo'ladi:

1. Tarixda boshqa-boshqa hisoblangan so'zlarning hozirgi alifboda bir xil yozilishi natijasida:

**üch (3)**

**Uch**

**uch (harakat)**

**Uch**

2. Boshqa tillardan o'tgan so'zlarning o'zbek tilidagi so'zlar bilan bir shakl hosil qilishi natijasida: atlas-atlas, etik-etik, tok-tok.

3. Ko'p ma'noli so'z ma'nolari o'rtasidagi bog'lanishning yo'qolishi natijasida: dam (hordiq), dam (bosqon), dam (nafas); gap (til birligi), gap (yig'in).

Omonimlik hodisasi bir turkum doirasida yoki bir necha turkum doirasida sodir bo'ladi. Bir turkum doirasidagi omonimlarga grammatik shakllar qo'shilganda ham omonimligini saqlab qoladi: Biz yoqqan *o'tlarimizni* o'chirdik. Biz ekkan *o'tlarimizni* o'rdik.

**Sinonimlar (ma'nodosh so'zlar)**

Shakli har xil bo'lsa ham ma'nosi bir-biriga yaqin so'zlar sinonimlar deyiladi. Bir (xil) ma'noning bir necha so'z shakllari orqali berilishi sinonimlarni yuzaga keltiradi. So'zlarning o'zaro sinonim munosabatda bo'lishi sinonimiya hodisasi deyiladi.

Bir umumiy ma'nosi bilan o'zaro bog'lanuvchi so'zlar guruhi sinonimik qator deyiladi. Sinonimik qator ikki yoki undan ortiq so'zdan tashkil topadi. Har bir sinonimik qatorida bir so'z asosiy so'z hisoblanadi. Bu so'z barcha uslublarda qo'llana oladi, shuning uchun (bosh so'z), "neytral so'z", "betaraf so'z", "uslubiy neytral so'z", "dominanta" atamallari bilan nomlanadi. Masalan, nazar solmoq-boqmoq-qaramoq sinonimik qatorida bosh so'z qaramoq; aft-bashara-chehra-oraz-yuz-turq sinonimik qatorida bosh so'z yuzdir.

Bir so'z, ko'p ma'noli so'z birdan ortiq sinonimik qatorida ishtirok etishi mumkin. Masalan, bitirmoq.

1) bitirmoq-tugatmoq-tugallamoq-tamomlamoq-tamom qilmoq (maktabni shu yil bitirgan);

2) bitirmoq-bajarmoq-ado etmoq-o'rinlatmoq-do'ndirmoq-o'tamoq (aytgan topshiriqni bajardi, bitirdi);

3) bitirmoq-tamomlamoq--yo'qotmoq (jinoiyatchi to'da bitirildi).

Bir ma'noli so'z faqat bir sinonimik qatorida qatnashadi.

Sinonimlik faqat bir turkum doirasida sodir bo'ladi: odam-inson-kishi-bashar-kimsa (ot turkumida).

Sinonimlar ikki yo'l (usul) bilan hosil bo'ladi: 1. Tilda yangi so'zning paydo bo'lishi natijasida ( yangi so'zlar a) so'z o'zlashtirish (boshqa tildan so'z olish); b) so'z yasash orqali paydo bo'ladi);

Tilda mavjud bo'lgan so'zlarning yangi ma'no kasb etishi natijasida.

1. Quyidagi sinonimlar boshqa (o'zga) tildan so'z o'zlashtirish natijasida yuzaga kelgan: *sevgi (o'zbek)- muhabbat (arab); kuch (o'zbek) - qudrat (arab); buyruq (o'zbek)-amr (arab)-farmon (tojik); ot (o'zbek)-ism (arab); yozuvchi (o'zbek)-adib (arab); manglay (o'zbek)-peshana (tojik); ko'klam (o'zbek)-bahor (tojik); qo'shin (o'zbek)-armiya (rus); aldamchi (o'zbek)-aferist (rus); yurak (o'zbek)- dil (tojik)-qalb (arab).*

O'zlashma so'zlar faqat o'zbekcha so'zlar bilangina emas, o'zaro ham sinonim bo'lishi mumkin, Masalan, hujum-ataka-hamla; josus-agent; mavzu-tema; muallif-avtor; sozanda-muzikant; muharrir-redaktor; aktyor-artist; shtraf-jarima.

2. Tilda bor so'zlar yangicha ma'no kasb etib, yangi sinonimik qatorni yuzaga keltiradi: vazifa-topshiriq; xotira-yodgorlik-esdalik; farq- ayirma: maosh-moyana-oylik.

Bir o'zakdan yasalgan so'zlar ham o'zaro sinonim bo'ladi: chopqir-chopag'on; Turli o'zakdan yasalgan so'zlar ham o'zaro sinonim bo'ladi; *yugurik-uchqur; esli-hushyor*. O'zaro sinonim bo'lgan so'zlardan bir xil yasovchi qo'shimcha vositasida sinonimlar yuzaga keladi: *chidamli-bardoshli-to'zimli-sabrli-toqatli (chidam-bardosh-to'zim-sabr-toqat).*

Ba'zan, tub so'z yasama so'z bilan sinonim bo'ladi: *his-sezgi; savol-so'roq*.

So'z shaklidagi sinonimlar lug'aviy sinonimlar deb yuritiladi. Lug'aviy sinonimlar ma'nosiga ko'ra ikki xil:

3. To'liq (mutlaq) sinonimlar.

4. Ma'noviy sinonimlar.

*To'liq sinonimlar* ma'nosida va ishlatilishida farq qilmaydi. Birining o'rnida boshqasini to'liq qo'llash mumkin bo'lgan sinonimlar to'liq sinonimlar deyiladi: *tilshunoslik-lingvistika; respublika-jumhuriyat; doston-poema; kosmos-fazo*.

*Ma'noviy sinonimlarda* sinonimik qatoridagi so'zlar nozik ma'nosi bilan farqlanadi. Ma'noviy sinonimlarni (har doim ham) birining o'rnida boshqasini qo'llab bo'lmaydi; *ho'l-shalabbo; tiqillatdi-taqillatdi, dukillatdi-gursillatdi*; kulmoq-jilmaymoq-irshaymoq-tirjaymoq. Ma'noviy sinonimlar quyidagi jihatlari bilan o'zaro farqlanadi:

a) emotsional-ekspressiv bo'yoq nuqtai nazaridan. Bu jihatdan so'zlar bo'yoqsiz (neytral) yoki bo'yoqdor bo'lishi mumkin. Emosional-ekspressiv bo'yoqdor so'zlarda so'zlovchining

munosabati seziladi. Bo'yoqdor so'zlar ijobiy bo'yoqli (*chehra, jamol*) yoki salbiy bo'yoqli (*bashara, turq*) bo'ladi.

b) Ma'noviy sinonimlar uslublarda qo'llanishi jihatidan farq qiladi. Masalan: *bashar, siyna* poetik (badiiy) uslubda: *bahor, quyosh* so'zlari ilmiy uslubda qo'llanadi. Bunday sinonimlar uslubiy sinonimlar deyiladi.

d) sinonimik qatoridagi so'zlar ma'noni qay darajada ifodalashi jihatidan ham farqlanadi. Masalan, *qiziq-g'alati-ajoyib-alomat-antiqa* sinonimik qatorida qiziq belgini neytral holda; *ajoyib-alomat-antiqa* so'zlari belgini kuchli darajada; *yaxshi-durust-tuzuk* sinonimik qatorida *durust, tuzuk* so'zlari belgini kuchsiz darajada ifodalaydi.

Sinonimlar uch xil bo'ladi:

- 4) lug'aviy sinonimlar;
- 5) frazeologik sinonimlar;
- 6) grammatik sinonimlar.

Lug'aviy sinonimlar- so'z holdagi sinonimlar; frazeologik sinonimlar- sinonim iboralar. Grammatik sinonimlar morfologik va sintaktik sinonimlardan iborat. Grammatik sinonimlar: *kuz shamoli-kuzgi shamol, xat yozdi-xat yozildi, ukamga oldim-ukam uchun oldim*.

### **Antonimlar**

O'zaro qarama-qarshi(zid) ma'noli so'zlar antonimlar deyiladi. So'zlarning bunday munosabati antonimiya deyiladi. Antonimlar 3 xil belgiga ega: 1) shakli( fonetik strukturasi) jihatidan har xillik; 2) ma'no jihatdan har xillik; 3) ma'nodagi o'zaro zidlik. Uchinchi belgi antonimlarni o'zaro birlashtiradi, zid ma'nolilikni yuzaga keltiruvchi asosiy belgi hisoblanadi.

Ko'p ma'noli so'z har bir ma'nosi bilan ayrim-ayrim so'zlarga antonim bo'lishi mumkin. Masalan, qattiq so'zi bir ma'nosida yumshoq so'ziga, boshqa bir ma'nosida saxiy so'ziga antonim bo'ladi. Boy o'lgudek *qattiq* edi.

Bir so'z o'zaro sinonim so'zlar bilan yoki o'zaro sinonim so'zlar boshqa sinonimlar bilan antonimik munosabat hosil qiladi: xursand-xushvaqt-shod-xurram-xushnud-xafa.

Sinonimiyada so'zlarning bir xil ma'nosi asosidagi birligi sinonimlik qatorini hosil qilsa, so'zlarning o'zaro zid ma'nosi asosidagi birligi antonimik juftlikni yuzaga keltiradi.

Antonimlik faqat bir turkumdagi so'zlar orasida sodir bo'ladi: do'st-dushman.

Qarama-qarshi ma'noli affikslar ham antonim bo'ladi: odobli-beodob, kuchli-kuchsiz.

Keldi-kelmadi kabi so'zlar antonim bo'lmaydi, ular fe'ning bo'lishli va bo'lishsiz shaklidir.

### **Paronimlar**

Aytilishi (talaffuzi) bir-biriga o'xshash, ammo yozilishi va ma'nosi har xil bo'lgan so'zlar paronimlar deyiladi; *yuvindi-yuvundi, fakt-pakt, abzal-afzal, yoriq-yorug', quyulmoq-quyilmoq, arch-art, otalik-otaliq*.

## **7. MA'RUZA: GRAMMATIKA**

### **Reja:**

- 1. Grammatika haqida tushuncha.**
- 2. Morfologiya, so'z tarkibi. O`zak va negiz.**

Grammatika termini (grekchadan grammatike techne - yozuv san'ati) fanda ko'pincha ikki xil ma'noda qo'llanadi. Birinchidan, ushbu termin tilda mavjud bo'lgan ma'lum so'zlarni o'zga bir xil so'zlarga bir xilda solishtirish, turli so'zlarning bir xil o'zgarishi va turli gaplarni bir xilda ko'rish (ya'ni, so'zlarning o'zgarish ooidalari va gaplarning qurilish qoidalari) usullarini va vositalarini anglatadi. Ushbu ma'noda grammatika «grammatik qurilish» yoki «til grammatikasi» tushunchalariga monand keladi.

Ikkinchidan, grammatik qurilishni, undagi mavjud usullar va vositalarni o'rganuvchi fanni grammatika deb ataladiki, ushbu usullar va vositalar evaziga til nutqning shakllanishi jarayonida so'zlarning solishtirilishini, ularning o'zgarishini va gaplar qurilishini qolipga soladi.

Til grammatikasini tushunishda murakkablik va qiyinchilik tug'diruvchi muxim alomatlardan biri uning mavxumligi, abstraktligi xisoblanadi. Grammatika izlanadi va xususiylikdan umumiylikni, rang -baranglikdan bir xillikni, o'zgaruvchanlikdan barqarorlikni topadi.

Grammatikaning ushbu alohati bilan tanishuv grammatik ma'no xususida muloxaza yuritish imkonini beradi.

**Grammatik ma'no.** Bizga leksik va so'z yasovchi ma'nolar tanish. Leksik ma'no so'zga nisbatan individualdir, ya'ni xar bir leksik ma'no bir, muayyan so'zga qaraydi. So'z yasovchi ma'no tiplashgan, u bir xildagi so'z yasovchi so'zlar guruxiga qarashli bo'ladi. Grammatik ma'no-chi? U umumiy qoliplashgan bo'lib, bir xil so'zlar turkumiga yoki butun bir so'z formalariga (kelishik, rod ko'rinishlari, shakl o'zgarishi) qaraydi.

**Grammatik ma'nolarni ifoda etuvchi vositalar.** Dunyo tillarida grammatik ma'nolarni ifoda etuvchi vositalar turli yo'lla,r turli usullar bilan ifoda etiladi. Ularning eng muhim xususiyatlari quyidagilar.

1. **Affiksatsiya.** Bu vosita dunyo tillarida eng ko'p tarqalgan vosita bo'lib, dunyoning ko'p tillarida grammatik vositalar affiksatsiya usuli bilan ifodalanadi. Bu vositalarga so'z o'zgartiruvchilar (egalik, kelishik, ko'plik), shaxs-son formalari kiradi. Har bir tilo'ziga xos grammatik ma'no ifodalovchi vositalariga ega. Masalan, o'zbek tilida qaratqich kelishik yagona shaklda ifodalansa, rus tilida bir kelishik ma'noni turli shakllarda ifodalaydi: *-i, -a, -ya* kabi.

2. **Yordamchilar.** Grammatik ma'no ifodalashda yordamchilar yoki funksional so'zlar ham xizmat qiladi. Dunyo tillarida yordamchi so'zlar turli-tumandir. Ularga ko'makchilar, bolovchilar, yuklamalar, predloglar, artikllar kiradi. Masalan,

*SHakar qovunlarning mayin hidlari*

*Sabo bilan tarqalar sekin. (U.)*

3. **Suppletivizm.** Suppletivizm deyilganda bir so'zning turli grammatik formalari har xil o'zaklardan yasalishi tushuniladi. Bu hodisa Hind-Evropa tillariga xos bo'lib, turkiy tillarda uchramaydi. Grammatik formani shu yo'l bilan ifodalash asosan, ba'zi kelishik olmoshlariga, fe'l va sifatlarga xosdir. Masalan, o'zbek tilida *men* kishilik olmoshiga barcha kelishik qo'shimchalari qo'shila oladi, bunday holda hech qanday o'zgarish bo'lmaydi. Ammo rus, ingliz, nemis tillarida olmoshlar turlanganda o'zak strukturasi o'zgarish yuz beradi. Masalan, *YA, mne; chelovek, lyudi*. Demak, bir so'zning kelishik, ko'plik, egalik bilan turlanish jarayonida boshqa o'zakka, boshqa so'zga aylanish hodisasi *suppletivizm* deyiladi.

4. **Takror.** Grammatik ma'no ifodalashda bir so'zni ikki marta takrorlash orqali ham grammatik ma'no ifodalash mumkin. Buni reduplikatsiya ham deyiladi.

Dunyo tillarida bir so'zni ikki marta takrorlash orqali turli ma'nolar anglashiladi. Masalan, malay tilida *arang - odam, arang-arang - odamlar*, xitoy tilida *sing - yulduz, sing-sing - yulduzlar* ma'nosini anglatadi. O'zbek tilida bir so'zni ikki marta takrorlash orqali ko'plik, jimlik, kuchaytirish kabi ma'nolar anglashiladi. Masalan, *kim-kim - kimlar, nima-nima - nimalar*.

**Fleksiya.** Grammatik ma'no fleksiya yo'li bilan ifodalanganda o'zakda o'zgarish ro'y beradi. Masalan, arab tilida *kitob* birlikda, kutub *ko'plikda; taraf* birlikda, *atrof* ko'plikdadir. Rus tilida *drug - druzya, drujba* so'zlari fleksiya yo'li bilan shakllanadi. Xullas, grammatik ma'nolar turli tillarda turli usul va yo'llar

Grammatika quyidagi turlarga bo'linadi:

1. Umumiy grammatika.
2. Falsafiy grammatika.
3. Tarixiy grammatika.
4. Qiyosiy grammatika.
5. Tasviriy grammatika.
6. Chog'ishtirma grammatika.
7. Transformatsion grammatika.

Dunyodagi barcha tillar mustaqil ma'noli so'zlarning strukturasi jihatidan 2 katta guruhga bo'linadi. Bu guruhdagi tillarda so'zlarni o'zak, negizlarga ajratishda ma'lum farqlar bor. 1-guruhdagi tillar Osiyo va Afrikada yashovchi xalqlarning tillari, turkiy tillar, ugor-fin tillarida qo'shimchalar o'zak yoki negizga to'g'ridan-to'g'ri qo'shiladi.

2-Guruhdagi tillar Hind-Evropa tillari, hom-som tillari, ingliz-nemis va arab tillarida grammatikani ifodalash jarayonida qo'shimchalar o'zak yoki negizga singib ketadi.

O'zak negiz bilan qo'shimchalarning bunday birikib ketishi flektiv tillarga xosdir (Fleksiya lot. erib ketish).

**So'z turkumlari.** Har bir tildagi so'zlar o'zining semantik belgilariga ko'ra turli guruhlarga bo'linadi. So'zlarni turkumlarga ajratishda har bir tilning o'ziga xos xususiyatlari e'tiborga olinadi.

Inson hamma vaqt ko'rgan eshitgan va his qilgan narsalarning hammasini turlarga, guruhlarga ajratishga odatlangan. Turlarga, guruhlarga ajratish doim qiyoslash orqali amalga oshirilgan.

Ma'lumki, tilda rang-barang, son-sanoqsiz so'zlar bor. Bular so'zsiz ma'lum turlarga ajratiladi. Demak, narsa, predmet va hodisalarni turkumlarga ajratish uchun ma'lum o'lchovlar, shartlar, mezonlarga asoslanish zarur.

Tilshunoslik tarixida strukturalizm oqimi paydo bo'lguncha, ya'ni biz yashayotgan asrning o'ttizinchi yillarigacha so'zlarni turkumlarga ajratishda asosan 3 belgiga asoslanilgan.

1. So'zlarning lug'aviy ma'nosi.
2. So'zlarning morfologik belgilari.
3. So'zlarning gapdagi vazifasi.

SHunday qilib, olimlar so'zlarni turkumlarga ajratishda leksik ma'nosini yetakchi deb bilsalar, ayrimlar morfologik belgisini, ya'ni boshqalar sintaktik vazifasini asos qilib oldilar. Keyingi ishlarda so'zlarning turkumlarga ajratishda yuqoridagi belgilardan tashqari so'z yasaliş belgisi ham qo'shildi. Bundan tashqari, har bir tilning xususiyatlariga qarab so'zlar turkumlanadi.

Ana shu turkumlarning biri yetakchi qilib olinadi, boshqalar uni to'ldiradi. Xitoy tilida so'zlarni turkumlarga ajratishda ularning sintaktik belgisi, so'z tartibi asosiy rolni o'ynasa, o'zbek tilida morfologik belgisi yetakchidir.

Har bir tildagi so'zlarning turkumlari va ularning miqdori bir xil emas, o'zbek tilida 10 ta, rus tilida ham 10 ta, ingliz tilida ham 10 ta, uyur tilida 8 ta, franso'z tilida 9 ta so'z turkumlari mavjud. SHunisi ham borki, har bir tilda ma'lum so'zlar bor, ular birorta turkumga kiritilmaydi. Masalan: Rus tilidan *vozmojna*, *veroyatno* kabi so'zlarni birorta turkumga kiritib bo'lmaydi. Bular modal so'zlardir. Keyingi ishlarda modal va taqlid so'zlar ham alohida so'z turkumi deb qaralmoqda.

Tilshunoslikda so'nggi yillarda so'zlarni turkumlarga ajratishda ularning quyidagi muhim belgilari asos qilib olinmoqda:

1. So'z turkumlarining semantik belgisi.
2. So'z turkumlarining morfologik belgisi.
3. So'z turkumlarining sitaktik belgisi.
4. So'z turkumlarining so'z yasaliş belgisi.

**1. So'z turkumlarining semantik belgisi** deganda, ularning konkret ma'nosi emas, umumlashgan ma'nosi ko'zda tutiladi. Masalan, *uy*, *qalam*, *olma*, *quyosh* kabi so'zlarning aniq, konkret ma'nolari bor. Lekin ularning konkret ma'nosi emas, umumlashgan ma'no-predmetlik ko'zda tutiladi.

Shu asosda predmetning tushunchasini ifoda qiluvchi so'zlar ot so'z turkumiga kiritiladi.

*O'qimoq*, *qochmoq*, *turmoq*, *yashamoq*, *qurmoq* kabi so'zlarning konkret ma'nolari har xil, lekin ularning hammasiga xos bo'lgan ma'no ish-harakatdir.

So'z turkumlarining morfologik belgisi deganda, u yoki bu so'zga xos bo'lgan morfologik-grammatik kategoriyalar, mazkur so'zlarga xos forma yasovchilar, so'z o'zgartiruvchi affikslar tushuniladi.

Soʻz turkumlarining *sintaktik belgisi* deyilganda, soʻzlarning gapdagi oʻrni, gap boʻlaklari nuqtai nazaridan bajariladigan vazifasi koʻzda tutiladi. Soʻzlarning gapda boshqa soʻzlar bilan birika olish imkoniyati (distributsiyasi) ham sintaktik belgi hisoblanadi.

Masalan, arab, ingliz, nemis, fransoʻz tillarida artikl bilan birikkan soʻzlarni albatta ot deymiz, chunki artikllar faqat otlar bilan birika oladi. Oʻzbek tilida ham shunday kelishiklar ot yoki olmoshlarga qoʻshiladi.

Soʻz yasash belgisi deyilganda, u yoki bu soʻz turkumiga xos soʻz yasovchi qoʻshimchalar nazarda tutiladi. Har bir soʻz turkumining oʻziga xos yasovchi formasi bor. Masalan: *-li* sifat, *-lik* ot yasovchi sifatida qaraladi.

Soʻz turkumlari nazariyasining ikkinchi prinsipi soʻzlarni turkumlarga ajratish prinsipidir. Soʻz turkumlari, dastlab, ikki katta gruppaga boʻlinadi.

1. Mustaqil soʻzlar.
2. Yordamchi soʻzlar.

Mustaqil tushunchalarni anglatib, biror predmet, belgi, harakat nomini anglatadi. Yordamchi soʻzlar tushuncha ifoda etganda faqat grammatik maʼno anglatadi. Yordamchilarga koʻmakchi, predlog, yuklama, bogʻlovchi va artikllar kiradi.

Grammatika 2 qismdan iborat: *Morfologiya va sintaksis*.

Hammaga maʼlumki, grammatika deganda tor maʼnoda morfologiya va sintaksis, keng maʼnoda esa tilning barcha qurilish sathlari tushuniladi. Morfologiya va sintaksis bir-birini taqozo etuvchi sathlar sanaladi. Morfologiya — grammatikaning soʻzshakl maʼnosi haqidagi sohasi boʻlsa, sintaksis grammatikaning soʻzshakl vazifasi haqidagi sohasi sanaladi. Tilning asosiy ijtimoiy vazifasi aloqa - aralashuv, insonlar orasida fikr almashtirish vositasi boʻlganligi sababli sintaksisning oʻrganish manbai boʻlgan gaplarda tilning barcha sathlarining - fonologiya va fonetikaning, leksika va semantikaning, morfemika va morfologiyaning birliklari voqelanadi, yuzaga chiqadi. Bu birliklardan har birini tilshunoslikning alohida-alohida boʻlimlari oʻrganadi. Lekin sintaksisning oʻrganish manbai boʻlgan gaplarda barcha sath birliklarining belgilari jilvalanadi. Sintaksisda gap boʻlaklari, ularning oʻzaro sintaktik munosabatga kirish usullari va vositalari, soʻz birikmasi va gaplar, ularning strukturasi, tiplari, gapdan katta birliklar oʻrganiladi. Sintaksis grekcha “tuzilish” degan maʼnoni anglatadi. Sintaksisda soʻzlarning oʻzaro bogʻlanish yoʻllari, bir-biri bilan aloqasi, munosabati soʻz birikmasi; gap, gap boʻlaklari va hokazo oʻrganiladi.

Masalan: 1. *Kitobni ukamga oldim.*  
*Kitobni ukam uchun oldim.*

2. *Salima xafa boʻldi.*

*Salimaning kapalagi uchdi* kabi hodisalar sintaktik hodisalar — sintaktik sinonimiya deb talqin etiladi. Lekin 1-holatda morfologik birliklarning maʼno va vazifadoshligi, 2 - holatda soʻz va ibora maʼnodoshligini kuzatish mumkin. Bunday morfologik hodisalarga sintaktik jihatdan qaraladi va sof sintaktik hodisani oʻrganish chetda qoladi.

Oʻzbek tili nazariy morfologiyasining asosiy xususiyatlari, vazifalari quyidagilardan iborat:

1. Til - nutq zidlanishi asosida umumiylik - xususiylik, imkoniyat - voqelik dialektik munosabatining morfologik sathda namoyon boʻlishini koʻrsatib berish;

2. Morfologiya morfologik birliklar munosabatiga tayanadi;

3. Til birliklari oʻrtasidagi uch xil munosabat tadqiqot markazida boʻladi: qatorlanish (sintagmatik)guruhlanish - (paradigmatik) — pogʻonaviylik (iyerarxik). Qatorlanish — til birliklarining ketma-ket joylashuvi. Guruhlanish munosabati maʼlum birlashtiruvchi belgi asosida muayyan sinfga birlashtiruvchi birliklar oʻrtasidagi munosabat sanalib, u " Fahmiy bogʻlash" orqali hosil qilinadi. Pogʻonaviylik — kichik birliklarning oʻzidan kattaroq birliklar tarkibiga kirish munosabati. Bu munosabat butun va boʻlak aloqasini namoyon etadi. Masalan, morfema affiksial morfema bilan soʻz morfemalardan tashkil topadi, morfema soʻzshakl tarkibida real voqelanadi.

4. Morfologik birliklarning birlashtiruvchi va farqlovchi belgilari ularni ma'lum paradigma tarkibida zidlash asosida aniqlanadi. Shuning uchun ham har qanday grammatik paradigma zaminida zidlanish yotadi. Tilshunoslikning vazifasi ana shu zidlanish belgilarini ochishdan iborat. Bu zidlanishlar nutqiy konkret ma'nolar asosida emas, balki grammatik (morfologik) shaklning umumiy - lisoniy ma'nosi asosida quriladi. Umumiy - lisoniy ma'nolar esa o'zaro mutanosib grammatik shakllarning aloqadorligi asosida ochiladi. Chunonchi, birlik son bilan ko'plik son shakllarining nutqiy ma'nolarini qiyoslasak:

<b>Birlik son</b>	<b>Ko'plik son</b>
<i>kitob</i>	<i>kitoblar</i>
<i>1 ta kitob</i>	<i>ko'p kitob, 10 ta kitob</i>
<i>bu yer</i>	<i>bu yerlar</i>

Ikki son shakli ma'nolarini qiyoslab hukm chiqara olamizki, birlik son aniq miqdorni ham, noaniq miqdor (*ko'p kitob*)ni ham, birlikni ham, aniq va noaniq ko'plikni ham ifodalay oladi. Ko'plik son esa hamisha noaniq ko'plikni ifodalaydi. Mana shu noaniq ko'plikni ifodalash ko'plik sonning umumiy ma'nosi, birlikni ham, ko'plikni ham, aniqlikni ham, noaniqlikni ham ifodalay olish esa birlik sonning umumiy ma'nosidir.

Morfologik paradigmalarda shakllar mana shunday umumiy ma'nolar asosida zidlanadi. Mana shunday umumiy morfologik (grammatik) ma'nolarni ochish va paradigma a'zolarining zidlanish belgilarini tavsiflash bugungi o'zbek tili nazariy morfologiyasining tadqiq manbaidir. Bu ishga o'zbek tilshunosligi endigina kirishdi va uning rivoji bevosita iqtidorli yoshlarning kelajakdagi faoliyatlari bilan bog'liqdir.

Morfologik shaklning mana shu usulda ochilgan umumiy ma'nosi bu formaning qo'llanilishida — sintaksisda voqelanadi. Shuning uchun morfologik shakl umumiy ma'nosi imkoniyat sifatida unda yashiringan bo'ladi. Nutqda esa u ro'yobga chiqadi va morfologiya va sintaksisning uzviy aloqadorligi, bir-biridan ajralmasligi ta'minlanadi. Morfologik shakl imkoniyat bo'lsa, sintaktik qurilma voqelanishdir. Chunonchi, "*ukamga*" so'zshaklini olib ko'raylik. Bu shaklda

- 1) lug'aviy ma'no o'zidan kichik, erkak jinsidagi bir ota-onadan bo'lgan bir avloddagi qarindosh;
- 2) ma'lum bir so'z turkumi (ot)ga mansublik;
- 3) miqdor jihatdan noaniqlik;
- 4) qandaydir boshqa so'zga tobe (to'ldiruvchi yoki hol) mavqeida kelib, harakat yoki biror narsaning unga yo'nalganligi;
- 5) I shaxsga aloqadorlik ma'nolari mujassamlangan.

Bu ma'nolarning barchasi "*ukamga*" so'zshaklida noaniq va umumiydir. Bu so'zshakli nutqda boshqa so'zlar bilan aloqadorlikda voqelanganda yuqoridagi ma'nolar muayyanlashadi. "*Kitobni ikkinchi ukamga oldim*", "*Bu gapni kenja ukamga aytdim*", "*Boshimni ko'tarib o'rtancha ukamga qaradim*".

Bundan biz yana bir xulosaga kelamiz: morfologik shakl nafaqat sintaktik qo'llanishi bilan, balki lug'aviy ma'no va lug'aviy to'ldirilishi bilan ham uzviy bog'langan. Bu leksika, morfologiya va sintaksisning o'zaro uzviy aloqadorligi va tilning yaxlitligi bilan tabiatan bog'liqdir. Biz tilni, uning birliklarini turli sathlarga sun'iylik bilan ajratamiz, ayrim maqsadlarni ko'zlab ajratamiz. Haqiqatda esa ular bir butunlikda yashaydi, ularni bir-biridan ajratish mumkin emas. Lekin har bir sath uchun faqat shu sath uchun xos bo'lgan xususiyatlarni aniqlash maqsadida biz o'rganilayotgan sath birligini boshqa sathlar tajallisidan sun'iy ravishda ozod qilishimiz kerak. Masalan: "*Ahmadlar*" so'zshaklida *-lar* qo'shimchasining ma'nosi "*kitoblar*" so'zshaklidagi *"-lar"* ma'nosidan farq qiladi. Bu farq, shubhasizki, yakka shaxs nomi bo'lgan. "*Ahmad*" va bir jinsdagi predmetlarning umumiy nomi bo'lgan "*kitob*" so'zining lug'aviy ma'nosi bilan va morfologik shakl bo'lgan ko'plik sonning umumiy morfologik ma'nosiga aloqador emas. Xuddi shunday "*-ni*" tushum kelishigi

qo`shimchasini qabul qilgan vositasiz to`ldiruvchi quyidagi birikmalarda har xil ma`noga ega:

*Uyni qurdik.*

*Uyni buzdik.*

*Uyni bezadik.*

*Uyni ko`rdik.*

*Uyni o`yladik...*

Lekin bu rang-baranglik "-ni" shaklining umumiy morfologik ma`nosidan emas, balki unung qanday so`zlar bilan birikib kelgani bilan bog`liq. Tushum kelishigining umumlisoniy ma`nosi ot yoki ma`nosi toraygan so`zni o`timli fe'l bilan tobe bo`lak (vositasiz to`ldiruvchi) mavqaida bog`lashdan iborat, xolos. Shuning uchun grammatika umumiy ma`nolar bilan ham, xususiy nutqda voqelangan ma`nolar bilan ham ish ko`rganligi sababli biz bu ikki xil ma`no ustida alohida to`xtalishimiz lozim.

**Grammatik sath.** Har bir tilning grammatik sathi so`zlarning grammatik formasi, so`z birikmalari va gaplardan tashkil topadi. Tilning boshqa sathlari kabi grammatikaning ham o`z birliklari bor. Eng kichik grammatik birlik *morfema* bo`lib, morfemalardan *so`zlar* yasaladi, so`zlar esa o`z navbatida so`z birikmalari va gaplar qurilishida qatnashadi. *Gap* grammatikaning yirik va mustaqil birligidir. Gapdan katta birliklar ham mavjud: *murakkab sintakik (birlik) butunlik, abzas va matn*

Til grammatik strukturasi o`ziga xos xususiyatlari bor.

**Birinchidan,** tilning grammatik qurilishi: so`zning strukturasi, tuslanish va turlanish qoidalari, so`z birikmalari va grammatikaning turlari tarixiy taraqqiyotining mahsuli sifatida juda sekin o`zgaradi.

**Ikkinchidan,** grammatika umumlashtirish xususiyatiga egadir. Masalan, arava, *maktab, tosh, bola* kabi so`zlarning o`z leksik ma`nosi bor, ammo, grammatik nuqtayi nazardan bu so`zlar predmetlik tushunchasini ifoda qilib, ot turkumini tashkil qiladi. Bu so`zlarni ularning leksik ma`nosi emas, grammatik ma`nosi umumlashtiradi. Tilning grammatik strukturasi morfologiya va sintaksis o`rganadi. Morfologiya so`zning turkumlari va ularning grammatik formalarini tekshiradi. Sintaksis esa nutqning grammatik strukturasi o`rganadi. Bunda gap asosiy birlikdir. Gapdan katta birliklar ham sintaksisda o`rganiladi.

Til tizimi til birliklari -fonema, morfema, so`z, gap va til sathlarining bir butunligidan iborat. Yuqoridagilardan ko`rinadiki, aloqa-munosat vositasi bo`lgan tilning fonetik, leksik, grammatik jihatlari muayyan ichki qonuniyat asosida o`zaro mutanosiblikni tashkil etuvchi tizimdir. Tizimni tashkil qiluvchi mutanosiblik o`ziga xos bo`lgan alohida qoidalarda namoyon bo`ladi. Muayyan tildagi gaplar so`zlardan, so`zlar bo`g`inlarning birikuvidan, bo`g`inlar nutq tovushlaridan hosil bo`ladi. Jumlani, gapni tashkil etuvchi so`zlar o`zaro til qonuniyatlari asosida birikadi. Istalgan har qanday so`zlar yig`indisi gap bo`la olmaydi. Tartibsiz suratda yig`ilgan so`zlar mazmun ifodalash uchun xizmat qilmaydi. So`zlarning ketma-ketligi ma`lum tartib va umumiy qoidaga muvofiq bo`lishi talab etiladi. Shu holatning o`ziyoq tilning tizim ekanligini ko`rsatadi. Ma`lum bir tilga xos tovushlar shu tilning fonetik tizimini, so`zlar leksik tizimini tashkil etadi. Bir tildan ikkinchi tilga o`zlashgan so`z shu tilning fonetik tizimiga-talaffuz me`yorlariga bo`ysunadi. Masalan: o`zbek tiliga rus tilidan kirgan ayrim so`zlar o`zbek tili talaffuz me`yorlariga moslashadi: *chaynik-choynak, podnos-patnis*. Aksincha o`zbek tilidan rus tiliga o`zlashgan so`zlar rus tilining talaffuz me`yorlariga bo`ysungan: *qorovul-karaul, karvon-karavan, bozor-bazar*.

Umuman, tilda tovushlar, lug`at tarkibi, grammatik tartib birikib, tizim sifatida bir butunlikni tashkil etadi. Til tizimini tashkil etuvchi sathlar o`zaro mutanosib holda bir-birini taqozo qiladi. Ular orasidagi bog`liqlik tilning umumiy qoidalari va qonuniyatlariga asoslangan.

## 8. MA`RUZA: SINTAKSIS

### Reja:

#### 1. Sintaksisning predmeti.

## 2. Sintaktik munosabatlarning turlari.

### 3. Soʻz birikmasi va gap.

### 5. Gapning aktual boʻlinishlari.

### 6. Paradigma va sintagma.

#### 1. Sintaksisning predmeti.

*Sintaksis* ham morfologiya singari grammatikaning uzviy qismi hisoblanadi. Morfologiyaning oʻrganish obʻekti soʻz boʻlgan boʻlsa, sintaksisning oʻrganish obʻekti soʻz birikmasi va gapdir. Chunki, tilning asosiy vazifasi odamlar oʻrtasida fikr almashish quroli ekan, bu aloqa gaplar orqali amalga oshadi. Demak, gap kommunikativ birlik sifatida muhim ahamiyatga ega.

Gap boʻlaklari, soʻz birikmalari gapning qurilishini tashkil qiladi.

Shunday qilib, sintaksisda gap boʻlaklari, ularning oʻzaro sintaktik munosabatga kirish usullari va vositalari, soʻz birikmasi va gaplar, ularning qurilishi, tipi, gapdan katta birliklar, ular komponentlarning logik-grammatik munosabati kabi masalalar oʻrganiladi.

Taʼrifdan maʼlum boʻlayotiki, tilshunoslik taraqqiyotining hozirgi bosqichida sintaksisning oʻrganish obʻekti faqat gap deb emas, gapdan katta birliklar ham qaralmoqda. Bunda xat boshi, murakkab sintaktik butunlik (fikran, ayni vaqtda leksik, grammatik va boshqa til vositalari yordamida oʻzaro boʻlangan mustaqil gaplar gruppasi), tekst kiritilayapti. Bu hol sintaksisning tekshirish obʻektini yana ham kengaytiradi. Til sintaktik qurilishining asosiy xususiyatlaridan biri-turfunligi boʻlib, uning rivojlanishi tafakkur rivojlanishi, jamiyatning kommunikativ ehtiyojlarini rivojlanishi bilan chambarchas boʻliq. Sintaksis tilshunoslikning boshqa yoʻnalishlari bilan ham aloqador. Jumladan, fonetika bilan. Chunki har qanday til birligi, demak, gap ham nutq tovushlaridan tashkil topgan. Bundan tashqari urfu, melodika va intonatsiya kabi fonetik hodisalarning ham sintaksis uchun ahamiyati juda kattadir. Morfologiya va sintaksis bir-birlarini toʻldiruvchi sohalardir. Morfologiyaning birliklari boʻlgan soʻz shakllari soʻz birikmalari va gaplarda shakllanadi. Gap boʻlaklari bilan soʻz turkumlari orasida oʻzaro yaqin munosabat mavjud. Kelishik, son, shaxs kabi morfologik kategoriyalar, yordamchi soʻzlar sintaksis uchun xizmat qiladi. Sintaksis leksikologiya bilan ham boʻliq. Tildagi soʻzlar grammatika ixtiyoriga oʻtib, oʻzaro sintaktik munosabatga kirishib maʼlum fikr ifoda qiladi. Kishilarning fikr almashuvi uchun xizmat qiladi.

Sintaksis quyidagi qismlardan iborat:

1. Sodda gap sintaksisi.
2. Murakkablashgan gap sintaksisi.
3. Qoʻshma gap sintaksisi.
4. Oʻzga gap sintaksisi.
5. Gapdan katta birliklar sintaksisi.

#### 2. Sintaktik munosabatlarning turlari.

Sintaktik munosabatlar dastlab ikki turga boʻlinadi: predikativ va nopredikativ. Predikativ boʻlinish gap qurilishi asosi (grammatika markazi/ komponentlari (ega va kesim)ning sintaktik munosabatidir. Bular orqali gap hosil qilinadi. Misol: *Men ishga kecha chiqdim.* (shaxs va sonda moslashayapti). Nopredikativ boʻlanish bunday xususiyatga ega emas. Teng boʻlanish (teng sintaktik munosabatda boʻlish, soʻzlar shuningdek, qoʻshma gaplarning predikativ komponentlari orasidagi biri ikkinchisiga boʻysinmagan, teng aloqasini koʻrsatuvchi munosabat: *oʻqituvchi va oʻquvchi, qoʻnziroq chalindi va dars boshlandi* va ergash boʻlanish (bunda biri hokim va ikkinchisi tobe boʻlgan soʻzlar oʻzaro aloqaga kirishadi: *Salimni koʻrdim*) nopredikativ boʻlanishning bir turlaridir. Tenglashish munosabati asosan, teng boʻlovchilar va sanash

intonatsiyasi orqali ifodalanadi. Ikkinchisida esa tobe bo'lgan so'z hokim so'zni aniqlaydi, to'ldiradi va hokazo. Tobelanish munosabatini ifodalovchi vositalar, asosan affikslar, ko'makchilar, flektsiya, so'z tartibi va intonatsiyadir. Sintaktik munosabatining ergashish usuli uch xil: *moslashuv*, *bitishuv*, *boshqaruv*. Tobe so'zning hokim so'z shakliga mos holda bo'lishi *moslashuv* dir. Mas., shaxs va sonda - *SHamol maysalar orasida lola chamanlarini silkiydi*. Qaratqich-qaralmish: *Ustozning vasiyatlariga sodiq qolamiz*. Tobe so'zning hokim so'z talab qilgan formani olish *boshqaruv* dir: *Oltin o'tda bilinadi*. Boshqaruvchi vazifasini fe'l bajaradi. So'z birikmasining bitishuv turida hokim va tobe so'z o'zaro so'z tartibi yoki ohang yordamida munosabatga kirishadi: *Keksa bozbon, kichkina maydon* kabi. Sintaktik munosabatlar grammatik vositalar orqali ifodalanadi. Ular quyidagilar: affikslar, yordamchi so'zlar, so'z tartibi va intonatsiya. Affikslar yoki so'z formalari sintaktik aloqani ifodalashda keng qo'llaniladigan vositadir. Turkiy tillarda-suffikslar, hind-evropa tillarida - flektsiya: *Xoroshaya pogoda, alie rozi*.

Yordamchi so'zlar grammatik vosita sifatida barcha tillarda mavjud. Morfologik ko'rsatkichlar bo'lmaganda so'z tartibi sintaktik munosabatlarni ko'rsatuvchi asosiy vosita rolini o'ynaydi. Intonatsiya ham sintaktik munosabat ifodalaydigan vositadir. Intonatsiyani tashkil etgan komponentlar: logik urfu, pauza, ritm, milodika turli tillarda turli darajada sintaktik vosita sifatida ishlatiladi.

### **3. So'z birikmasi va gap.**

Sintaksisning asosiy o'rganish ob'ektlaridan biri *so'z birikmasidir*. Tushunchalar orasidagi turli munosabatlarni ifoda qilish uchun grammatik jihatdan o'zaro birikkan ikki va undan ortiq so'z *so'z birikmasi* deyiladi. So'z birikmasida ayrim tushunchalarni ifoda qiluvchi so'zlar o'zaro sintaktik munosabatga kirib, murakkab tushunchani bildiradi va boshqa-boshqa gap bo'lagi bo'lib keladi: *Katta bino, Saodatning kitobi*. Ko'makchi so'zlar o'zi borlangan mustaqil so'z bilan birgalikda bir bo'lak hisoblanadi: *Maysalar ustida shudring tomchilari yarqiraydi*. Voqelikni va unga bo'lgan munosabatni ifoda qilish uchun grammatik jihatdan shakllangan, intonatsion hamda mazmun jihatdan nisbiy tugallikka ega bo'lgan so'zlar bo'lanmasi yoki yakka so'z *gap* deyiladi. Gap fikrni ifoda qiluvchi nutq birligi hisoblanadi. Uning xususiyatlari: - so'zlarning birikuvidan tashkil topadi - muhim belgisi predikativlik - intonatsion tugallikka ega - fikriy jihatdan nisbiy tugallikka ega. Ifoda maqsadiga ko'ra turlari: *darak, so'roq, buyruq*. Bulardan tashqari *undov gap* ham bor. Tuzilishiga ko'ra: *sodda va qo'shma*. Sodda gap: *bir tarkibli, ikki tarkibli*. Bir tarkibli: *egasiz bir tarkibli, kesimsiz bir tarkibli gap*. egasiz bir tarkibli gap: *egasi topilar gap, egasi topilmas gap*. Egasi topilar gap: *shaxsi aniq gap, shaxsi noaniq gap, shaxsi umumlashgan gap*. Bulardan tashqari *nominativ gap* ham bor. Ikki tarkibli gap: *ega tarkibli, kesim tarkibli*. Gapning ikkinchi darajali bo'laklari: *aniqlovchi, to'ldiruvchi, hol*. Xullas, gap har qanday tilda ham kommunikativ mohiyatga ega bo'lgan asosiy birlik sanaladi. SHu paytga qadar gapga 300 dan ortiq ta'rif berilgan. Uning grammatik jihati, logik jihati. Psixologizm oqimi, formalistlar oqimlari qarashlari. Gap atamasi ikki ma'nolidir. Birinchi ma'nosi-til birligi aloqa uchun xizmat qilishga qaratilgan konstruktiv birlikdir. Bu gap modeli, gap formulasi deb yuritiladi. Ikkinchi ma'nosi konkret xabar konkret kontekst bilan bo'liq bo'lgan nutq birligidir. Gap qurilish modeli bilan ifoda mazmuninig birligi gapning asosiy kommunikativ xususiyati hisoblanadi. SHunday qilib, ob'ektiv borliq va unga bo'lgan munosabatni ifoda qilib, grammatik shakllanib, nisbiy tugal fikr yoki his-tuyfu anglatib, intonatsion butunlikka ega bo'lgan so'z hamda so'zlar birlashmasi *gap* deyiladi. Predikativlik gapning grammatik ma'nosini ifoda qiladi. U gap hosil qiluvchi kategoriya bo'lib, gapda ifoda qilinayotgan fikrning borliqqa bo'lgan munosabatini modal planda hamda zamon va shaxs-sonda

ifoda qiluvchi kategoriyadir. Modallik predikativlikning tarkibiy qismi bo'lib, fe'l mayllari, modal so'zlar bilan ifoda qilinadi. Umuman predikativlik sintaktik mayl, zamon, shaxs-son kategoriyalari, modal so'zlar va intonatsiya orqali ifodalanadi. Uslub.

#### **4. Gapning aktual bo'linishlari.**

Gapning aktual bo'linishi gapning formal bo'linishiga qarshi qo'yiladi. Agar formal bo'linishda gap tarkibi grammatik elementlarga bo'linsa, aktual bo'linishda gap ma'no jihatdan bo'linadi. Gapning formal bo'linishining asosiy elementlari ega va kesim hisoblansa, aktual bo'linishining asosiy elementlari gapning ifoda asosi, ma'lum qismi esa gapning yadrosi, ya'ni nima xabar qilayotgan qismi hisoblanadi. Bunda fikr ma'lumdan noma'lumga qarab harakat qiladi. Boshqacha aytganda, gapning konkret matndagi mundarijasidan kelib chiqib mazmun jihatdan bo'linishi. Bunday bo'linishda gap ikki qismdan iborat bo'ladi: 1. So'zlovchi va tinglovchi (o'quvchi) uchun ma'lum narsani ifodalovchi qism (tema); 2. So'zlovchi bildirmoqchi, aytmoqchi bo'lgan qism, ya'ni yangi informatsiya qismi (rema): *Sovxoz kollektivining bu yilgi rejalari yana ham katta*. Tema: *Sovxoz kollektivining bu yilgi rejalari*, rema: *yana ham katta*. Gapning aktual bo'linishida gap ifoda asosi va ifoda yadrolariga bo'linadi: Institut studentlari (ifoda asosi) sport musoboqalarida qolib chiqdilar (ifoda yadrosi). Gapning hamma tiplari ham aktual bo'linavermaydi. Odatda bo'laklarga ajralmaydigan gaplar, nominativ gaplar, to'siqsiz gapning ba'zi tiplari aktual bo'linmaydi. YOzuvda gapning aktual bo'linishi tinish belgilari bilan ajratilmaydi. O'zaki nutqda esa aktual bo'linishda intonatsiya asosiy vositadir.

#### **5. Paradigma va sintagma.**

So'zning o'zaro bo'langan shu bilan birga, bir-biriga qarama-qarshi qo'yilib, bir butun sistemani tashkil qiladigan ikki yoki undan ortiq formalari *paradigma* deb yuritiladi. Bunday formalarga ot yoki otlashgan so'zdagi son (birlik, ko'plik), kelishik, egalik; fe'llardagi zamon, mayl, shaxs-son formalari kiradi. Boshqacha aytganda, til birliklari grammatik formalarning umumiy ma'nosiga ko'ra birlashuvi, xususiy ma'nosiga ko'ra farqlanuvchi sistemasi. Mas., otlarning kelishik bilan turlanish paradigmasi, fe'llarning shaxs-sonda tuslanish paradigmasi kabi. Sintagma (birlashgan narsa degani). 1. Nutqning mazmun va ritmik-milodik jihatdan bir butunlikni hosil qiluvchi semantik-sintaktik bo'lagi. Sintagma bir yoki undan ortiq so'zdan iborat bo'lishi, hatto gapga teng bo'lishi ham mumkin: *Sovxozimiz paxta planini muddatdan ilgari oshirib bajardi*. 2. Ikki so'zning sintaktik bo'lanishi bilan yuzaga keladigan nutq birligi (birikma yoki gap).

## **9. MA'RUZA: YOZUV**

### **Reja:**

#### **1. Til va yozuv.**

#### **2. Grafika va orfografiya.**

Tilning butun imkoniyatlari nutqda ifodasini topadi. Nutqning og'zaki va yozma shakli bo'lib, yozma nutq yozuv orqali namoyon bo'ladi. Yozuv ma'lum bir tarixiy jarayon mobaynida aloqa-munosabatning muhim vositasi bo'lib shakllanadi. Yozuvning tarixiy ahamiyati quyidagilarda aks etgan.

1. Yozuv ma'lum tarixiy jarayon natijasida shakllanadi va kishilar orasidagi bavo-sita aloqa-munosabat vositasi sifatida ijtimoiy manfaatlar uchun xizmat qiladi.

2. Kishilik jamiyati erishgan barcha ma'naviy yutuqlar yozuv orqali avloddan avlodga yetkaziladi.

3. Yozuv uchun masofa va vaqt ahamiyatsizdir.

4. Yozuvning xabar yetkazish imkoniyati tufayli turli masofadagi axborotlar umumiy ma'lumotga aylanadi.

5. Yozuv kishilik jamiyati taraqqiyotining muayyan bosqichlarini, xalq tarixi, etnografiyasini adabiyot va san'at tarixini, tilning tarixiy taraqqiyot bosqichlarini o'rganishda muhim ahamiyat kasb etadi. Yozuvsiz tilning va xalqning tadrijiy taraqqiyotini o'rganib bo'lmaydi.

Dunyodagi aksariyat tillar o'z yozuviga ega. Yozuvning hozirgi ko'rinishlari dastlabki shakllarning takomillashib borishi natijasida paydo bo'ldi. Tadqiqotlardan ma'lumki, yozuvning dastlabki ko'rinishlari ramziy ifodalar tarzida yuzaga kelgan. Fanda piktografik, logografik, ieroglifik, fonografik kabi yozuv turlari bor.

**Piktografik yozuv.** Voqea- hodisalar haqidagi tafakkur ma'lumotlari jonli va jonsiz vositalar orqali ifodalangan yozuv piktografik yozuv hisoblanadi. Bu atama "chizilgan" va "yozaman" degan ma'nolardagi so'zlardan tuzilgan. Yozuvning bu turi ma'lumotlarning dastlabki qaydlarini yetkaza oladi va mavhum tushinchalarni ifodalash imkoniyatiga ega emas.

Piktografik yozuvning takomillashib borishi natijasida **ideografik** (grekcha "idea-tushuncha", "grafo-yozaman") yozuv paydo bo'ldi. Yozuvning bu turi **logografik yozuv** deb ham yuritiladi. ("logos-so'z", "grafo- yozaman"). Negaki, bunday yozuvdagi ramzlar narsa-buyumlarni aks ettirib qolmay, tildagi so'zlarni ham ifodalaydi.

Ushbu yozuvda ma'lumot ma'nosini shakllar bilan aks ettirish qiyin bo'lgan logogrammlar orqali yetkaziladi.

Logografik yozuvning piktografik yozuvdan quyidagi afzalliklari bor.

a) logografik yozuv xabar qilinishi lozim bo'lgan mazmunni ancha mufassal aks ettiradi.

b) piktografik yozuvda so'z tartibi va so'zshakllari noaniq, logografik yozuvda esa aniq bo'ladi.

v) piktografik yozuvda subyektivlikka, ixtiyoriylikka yo'l qo'yiladi, logografik yozuv esa barqaror logogrammlardan tashkil topgan.

Logografik yozuvning bir oz mukammallashgan shakli **ieroglifik yozuv**dir. Ieroglif grekcha "ierogliv" so'zidan olingan bo'lib, "muqaddas yozuv" degan tushunchani anglatadi. Bu yozuvdan qadimgi Arabistonda keng foydalanilgan. Ushbu yozuvlar ifoda etilayotgan narsa-buyum xususiyatlarini imkon qadar aks ettiradi. Ieroglifik yozuv mavhum tushinchalarni ifodalay olishi bilan o'zidan oldingi yozuvlardan farqlanadi.

Yozuvning yuqorida qayd etilgan turlari ancha murakkab. Ularda fikr va ma'lumot ifodalash imkoniyati juda tor. Shuning natijasi o'laroq, yozuvni oson, qulay shaklga keltirish ehtiyoji tug'uladi. Yozuvni soddalashtirish quyidagi yo'llar orqali amalgam oshirildi.

1. Tushunchani yangi shakllar bilan berish o'rniga, mavjud logogrammlar yoki ierogliflar majmuasi orqali ifodash.

2. Logografik yozuvni soddalashtirishning ikkinchi yo'li so'zlarning grammatik shakllariga taalluqlidir. Masalan, logogrammlarni o'zak sifatida qoldirib, grammatik ma'nolar uchun yangi logogrammlar o'ylab topish, ularni o'zak logogrammlar ma'nosiga qarab qo'shish.

3. Yozuvni soddalashtirishning eng unumli va ma'qul usuli fonografik yozuvga o'tish edi. Bunday yozuv tilning grammatik qurilishini ifodalab qolmay, uning fonetik tuzilishini, ya'ni so'zning tovush tarkibini ham aks ettiradi.

**Fonetik yozuv.** Yozuvning bu turi bir necha ko'rinishlarga ega. Shulardan biri **bo'g'in yozuvi**dir. Bu yozuvda ierogliflar bo'g'inlarni ifodalaydi. Yozuv tarixida bo'g'inli yozuv muhim ahamiyat kasb etadi. Bo'g'inli yozuvda bir bo'g'inni, bir so'zni, bir tovushni ifodalaydigan belgilar qo'llangan. Ossuriya va Vavilon mix (qoziq) yozuvi ana shunday yozuvlardan hisoblangan. Bu yozuvda ayrim belgilar bir tovushni, butun bir bo'g'inni, ba'zi belgilar esa butun bir so'zni ifodalagan. Eronliklar Vavilonni bosib olganlaridan keyin Ossuriya va Vavilon mix yozuvidan foydalanib, fonetik (tovushli) yozuvni, ya'ni har qaysi belgi bir tovushni ifodalaydigan yozuvni ixtiro etganlar.

Dunyodagi aksar tillarning fonetik yozuvini ifodalovchi alifbe ya'ni fonetik yozuvlar finikiyaliklar yozuvi asosida shakllangan.

Grafika( yunoncha”chizuv”,”yozma”) yozuv va uning turlari haqidagi bo’lim.Harf asosiy grafik vositadir. Har bir nutq tovushi uchun olingan shartli shakl harf deyiladi. Yozuvda ishlatiladigan va qat’iy tartibda joylashtirilgan harflar yig’indisi alifbo deyiladi.

Hozirgi o’zbek tilida (rus grafikasi asosidagi o’zbek yozuvida) 33 harf 2 belgi bo’lib, shulardan 6 tasi unli (a,i,e, u,o’,o) 4 tasi yo-lashgan unli, 23 tasi undosh harf. O’zbek tilida 25 ta undosh tovush bo’lib, 23 ta harf bilan ifodalanadi.( ikki tovush yozma ifodasiga ega emas: j-juma,jurnal; ng-tong, senga).

*x* va *h* undoshlari alohida fonemalardir.

*i* bilan boshlanuvchi so’zlarning birinchi bo’g’ida *x* yoziladi: ix-tiyor, ix-cham, ix-los, ix-tisoslik; qolgan bo’g’inarida kelsa *h* yoziladi: il-hom, i-ho-ta, is-loh;

*e* bilan boshlanuvchi so’zlar tarkibida asosan *h* yoziladi: ehson, ehtirom, ehrom, ehtiyot, ehtiyoj.

*x* va *h* ayrim so’zlarda ma’no farqlashga xizmat qiladi: xol (dog’)-hol (ahvol); xam (egik)-ham (yuklama); shox (daraxt shoxi)-shoh (podshoh); rux (metall)- ruh (arvoh);

Ayrim so’zlarda yonma-yon kelgan ikkita bir xil undoshdan biri tushirilsa, so’z xato hisoblanmaydi, faqat so’z ma’nosi o’zgaradi; *qattiq-qatiq; silla-sila; tilla-tila; mashshoq-mashoq; cho’qqi-cho’qi; ushshoq-ushoq;*

*Siyla, biyron, ziyrak* so’zlarida *y* undoshi tushirilganda so’z xato hisoblanmaydi, ma’no o’zgaradi: sila, biron, zirak.

‘ belgisi.

‘ belgisi tovush ifodalamaydi:

‘ belgisi unli tovushdan keyin kelsa, unlini cho’ziqroq talaffuz etish uchun xizmat qiladi: ma’no, ma’rifat, ta’limot.

‘ belgisi undoshdan keyin kelsa, keyingi bo’g’inni ajratish uchun xizmat qiladi: mas’ud, mas’ul, jur’at, sun’iy.

‘ belgisi ma’no farqlash uchun ham xizmat qiladi: *sher (hayvon)-she’r (ijod mahsuli); qala (ish harakat)-qal’a (qarorgoh); tana (vujud)- ta’na (minnat); nasha (o’simlik)- nash’a (zavq); sanat (fe’l)-san’at (ot); surat (tasvir)-sur’at (tezlik); tarif (toifa)- ta’rif (sifatlash);*

Tilshunoslik fanida harflarni ishlatishning bir necha usuli mavjud. Ular quyidagilar:

**fonetik, fonematik, an’anaviy, morfologik va simvolik .**

*Fonetik prinsip.* Bunga asosan talaffuzda qanday tovush eshitilsa, shunga mos keladigan harf yozilishi lozim: *qorin-qornim, burun- burnim.*Bunda tovush tushishi kuzatiladi.

*Fonematik prinsip.* Bunga asosan tovushlar qanday talaffuz qilinishidan qat’iy nazar, bir xil yozilishini talab qiladi. Masalan, *olib ketdidagi b* harfi *p* deb talaffuz qilinadi. Lekin *b* yozilishi shart.

*An’anaviy prinsipda* so’zlar ularda mavjud, hozirgi vaqtda talaffuz qilinadigan tovushlarga asosan yozilmay, balki tarixda qanday yozilgan bo’lsa, hozir ham shunday yoziladi.

*Morfologik va simvolik* prinsiplar so’zlarning yozilishida grammatika va leksikaning manfaatlarini nazarda tutadi.

Hozirda ikki xil yozuvdan foydalanilmoqda. O’zbek xalqi VII asrlargacha runik, uyg’ur, so’g’d, moniy, braxma yozuvlaridan foydalangan. XV asrda arab yozuvi bilan bir qatorda uyg’ur yozuvi qo’llangan. VIII asrda 1929 yilgacha arab yozuvi; 1929-1940 yillarda lotin yozuvi; 1940 yildan hozirga qadar kirill yozuvidagi rus alifbosidan foydalanilmoqda.

Lotin yozuviga o’tish to’g’risidagi qaror 1993 yil 2 sentyabrda qabul qilindi. 1993 yil 2 sentyabrdagi qarorga muvofiq lotin alifbosi 31 ta harf va bitta tutuq belgisi (‘apostrof) dan iborat deb belgilandi. Keyinchalik, 1995 yil 6-7 may qaroriga muvofiq bu alifboga o’zgartirishlar kiritildi. Unga ko’ra alifbo 26 ta harf va 3 ta harf birikmasidan (Ch, Sh, Hg) iborat (jami: 29 ta harf) deb belgilandi. Lotin alifbosiga o’tish dastlab 2000 yilgacha bo’lgan muddatda belgilandi. O’zgartirish haqidagi qarorga asosan 2005 yilgacha, deb uzaytirildi.

## 10. MA'RUZA: YOZUV VA UNING TURLARI

### Lotin alifbosi

Aa	Bb	Dd	Ee	Ff	Gg	Hh	Ii	Jj
1	2	3	4	5	6	7	8	9
Kk	Ll	Mm	Nn	Oo	Pp	Qq	Rr	Ss
10	11	12	13	14	15	16	17	18
Tt	Uu	Vv	Xx	Yy	Zz	O'o'	G'g'	Shsh
19	20	21	22	23	24	25	26	27
Chch	NGng							
28	29							

Lotin yozuvi asosidagi "O'zbek tilining asosiy imlo qoidalarini" 1995 yil 24 avgustda qabul qilindi. Undagi asosiy qoidalar quyidagilar:

1. Undoshlar (ayrim) so'z o'rtasi va oxirida qo'shaloq kelishi mumkin; grammatika, metall, kilogramm. Qo'shimcha qo'yilganda biri tushadi: metalni.

2. Ayrim so'zlarda I, II, III shaxs egalik qo'shimchasi qo'shilganda y (u) tovushi qo'shib aytiladi va yoziladi: parvouim, mavqeying obro'yimiz, mavzuyingiz, parvoyi.

Xudo, mavzu, dohiy so'zlari III shaxsda *xudosi, mavzusi, dohiysi* tarzida yoziladi. Orzu so'zi: *orzum, orzung, orzusi* tarzida bo'ladi.

3. g, g' bilan tugagan so'zga jo'nalish kelishigi qo'shimchasi qo'shilganda quyidagicha yozish saqlanadi: barg-ga-bargga: cho'g'-ga-cho'g'ga: bog'-ga-bog'ga.

4. Qo'shimcha qisqartma otlarga qo'shib yoziladi: O'zMUning. Yonma-yon kelgan ikki qisqartma ajratib yoziladi: O'zR FA

5. Birikmadan yuzaga kelgan qo'shma otlar qo'shib yoziladi: so'zboshi, mingboshi

6. Juft so'zlar orasida -u,-yu yuklamalari bog'lovchi vazifasida kelsa, yuklama chiziqcha bilan yoziladi: do'st-u dushman, yer-u osmon.

7. Yuzma-yuz, rang-barang (yuzma-yuz, rang-barang) tarzidagi so'zlar ham chiziqcha bilan yoziladi.

8. Kirill alifbosida 3 yuklama (-mi, -oq, -gina) qo'shib, qolgani ajratib yozilar edi. Lotin yozuvida esa 4 yuklama (-mi, -oq, -gina, -ov) qo'shib, qolgani ajratib yoziladi.

9. Arabcha raqamlardan keyin tartibni bildiruvchi chiziqcha qo'yiladi: 60-yillar: 1999- yilning 1-sentabri

10. Qo'shma fe'llar doimo ajratib yoziladi: sotib ol, tasdiq qil.

11. Yildan yilga, kundan kunga tipidagi so'zlarda chiziqcha qo'yilmaydi (kirill alifbosida qo'yiladi: kundan-kunga, yildan-yilga). ko'pdan ko'p, yangidan yangi: (ko'pdan ko'p, yangidan yangi)

12. *Birato'la, birvarakayiga, biroq, birmuncha, buyon* so'zlari qo'shib yoziladi

13. Joy nomlarida atoqli ot tarkibidagi sifatlovchi ham bosh harfda yoziladi: shimoliy Kavkaz.

14. Xalqaro tashkilotlar, davlatlar, oliy tashkilotlar, mansab (oliy)lar tarkibidagi har bir so'z bosh harf bilan yoziladi: O'zbekiston Respublikasi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi, Birlashgan Millatlar Tashkiloti.

15. Ba'zi atoqli otlarning faqat birinchi so'zi bosh harf bilan yoziladi: O'zbekiston Milliy tiklanish partiyasi, Fanlar akademiyasi.

16. "She'ning har bir misrasi bosh harf bilan boshlanadi" , degan qoida lotin alifbosidagi imlo qoidalariga kiritilmagan.

17. Tartib raqami qavsda berilsa (1) 2) a) b)), jumla kichik harfdagi so'z bilan boshlanadi.

18. Insiiallar, "Boing- 767", "5- A sinf" kabi birikmalar bo'g'in ko'chirishda bir satrda yoziladi (bo'g'inga ajratilmaydi).

19. s undoshi so'z boshida, so'z oxirida, old qo'shimchadan keyin, undoshdan keyin kelsa S yoziladi: sirk, shpris, antisiklon, kvars, konsert;

s undoshi unidan keyin kelsa ts yoziladi: militsiya, litsey.

20. Rus tili orqali o'zlashgan ayrim so'zlarning yozilishi quyidagicha: oktabr, sentabr, budjet, lustra, flaga, dirijor, schotchik, uhot, aluminiy, bo'ks, molekular, yubilar.

21. belgisi yozilmaydi: palto, albom, yanvar; -o, -i dan oldin kelsa u yoziladi: batalon- batalyon, Ilin-ilyin.

22. ' belgisi o'rnida asosan '\_(tutuq belgisi, apostrof) qo'yiladi: ma'no, da'vo, san'at.

' (tutuq belgisi) unidan keyin kelsa, shu unlini cho'ziqroq talaffuz etishga, ta'kidlashga xizmat qiladi: ma'rifat, na'matak.

' (tutuq belgisi) undoshdan so'ng kelsa, o'zidan keyingi bo'g'inni ajratishga xizmat qiladi: sur'at, mas'uliyat, mas'ud, san'at.

' (tutuq belgisi) S va hni Sh harf birikmasidan farqlash uchun ham ishlatiladi: as'hob, Is'hoq.

Rus tilidan va rus tili orqali o'zlashgan so'zlarda ' belgisi yozilmaydi: razyezd, podyezd.

23. Ruscha o` harfi o'rniga o'zbek kirill alifbosida sh yoki shch harflari yozilar edi, o'zbek lotin alifbosida sh yoziladi (faqat meshshan so'zida ikkita sh yoziladi): obshina, yamshik.

1989 yil 21 oktyabrda o'zbek tiliga davlat tili maqomi berildi. 1995 yil dekabrda bu qonun qayta ko'rib, uning yangi tahriri tasdiqlandi.

Kirill alifbosi asosidagi o'zbek alfavitiga o'zbek tiliga xos bo'lgan 4 ta harf (tovush) qo'shilgan: o', q, g', h. Bu tovushlar lotin alifbosida ham o'z ifodasini topgan.

O'zbek tili alifbosidagi ba'zi tovushlar turli grafik formulalarga ega. Masalan, T harfining bosma shakli bilan yozma shakllari orasida ancha farq bor. Garchi fonografik yozuv hozirgi vaqtda keng tarqalgan bo'lsa ham, kundalik hayotda yozuvning boshqa turlari ham uchrab turadi, chunki har bir turning o'ziga xos afzalligi bor. Masalan, piktografik yozuv odatda reklama ehtiyojlari uchun qo'llaniladi.

Ideogrammalar ko'cha harakatini ta'minlashda, matematika (1,6,10), kimyoda (H<sub>2</sub>O) keng qo'llaniladi.

Piktogramma va logogrammalarning hozirgi vaqtda ko'plab qo'llanilishiga sabab, ularning tushunchalarni aniq, qisqa va tejimli ifodalashidir. Masalan, 12+29=41 deb so'zlar bilan yozsak, bizga ancha vaqt va joy kerak bo'ladi.

Orfografiya so'zi ikkita grekcha so'zdan tashkil topgan, ya'ni **orthos** to'g'ri va **grapho** yozaman. Demak, orfografiya so'zining ma'nosi **to'g'ri yozishdir**. Shu sababli orfografiyaning asosiy vazifasi alifboning yozuvdagi qo'llanish qoidalarini, so'zlarning yozilishi va bo'g'in ko'chirish qoidalarini o'rganishdan iborat.

## 11. MA'RUZA: TILLAR TASNIFI

### Reja:

#### 1. Tillarning geneologik tasnifi.

#### 2. Hind-Evropa tillar oilasi.

#### 3. Xalqaro tillar haqida tushuncha

**Tillarni bir-biriga muqoyasa** qilib, taqqoslab o'rganish shuni ko'rsatadiki, ba'zi tillardagi so'zlarning ma'nolari, shakllari, grammatik xususiyatlari bir-biridan juda katta farq qiladi. Albatta, bunday tillar bir-biriga yaqin, qardosh tillar bo'la olmaydi. Ammo ba'zi tillarning tuzilishi, grammatik xususiyatlari, shu tillardagi so'zlarning paydo bo'lish manbai, so'z shakllari va ma'nolari bir-biriga ancha yaqin bo'ladi. Bunday tillar bir umumiy o'zakli tildan kelib chiqqan bo'lib, **qardosh tillar** deyiladi. Grammatik tuzilishi va boshqa xususiyatlari jihatidan bir-birlariga yaqin bo'lgan tillar guruhi **til oilasi** deb ataladi. Chunonchi, o'zbek, uyg'ur, qozoq, qirg'iz, tatar, boshqird, ozorbayjon, yoqut, turkman, qoraqalpoq, turk, chuvash tillari kabilar

turkiy tillar oilasiga kiradi. Bu qardosh tillardagi o'xshashlik, yaqinlik ularning So'z boyligi, grammatik qurilishi va nutq tovushlarida ifodalanadi.

Shuni ham ko'rsatib o'tish kerakki, qardosh bo'lmagan ba'zi tillarning so'z boyligida alohida so'zlarning ma'no jihatidan o'xshashlik hodisalari uchrashi mumkin. Bunday hodisa bir tilga qarindosh bo'lmagan boshqa bir tildan kirgan so'zlarda uchraydi. **Masalan**, o'zbek tiliga arab tilidan: *oila, maktab, lug'at, kitob* singari, rus tilidan *samovar, mashina, stol, stul, choynak* kabi anchagina so'zlar o'zlashgan. Lekin bunday so'zlar o'zbek tilining arab tili yoki rus tili bilan qardosh til ekanligiga asos bo'lolmaydi, chunki birinchidan, bunday tillarning qarindosh ekanligini isbot qilish uchun faqat so'zning o'zi asos bo'la olmaydi. Ikkinchidan, har bir tilning so'z boyligida boshqa tildan kirgan so'zlar juda ozchilikni tashkil etadi va ularning grammatik xususiyatlari butunlay boshqacha bo'ladi. Uchinchidan, tarixiy taraqqiyot jarayonida turli munosabatlar tufayli boshqa tillardan kirib qolgan bunday tasodifiy so'zlar tillarning tarixini solishtirib, taqqoslab o'rganishda material bo'la olmaydi, chunki bunday tillarning tuzilishi bir-biriga to'g'ri kelmaydi.

Rus, bulg'or, chex, polyak tillari ham bir oiladagi qardosh tillarga qarashli bo'lganligi uchun bu tillarda so'z ma'nolari, grammatik tuzilishlari jihatidan birmuncha o'xshashlik, yaqinlik bor.

Bu misollar shuni ko'rsatadiki, qardosh tillarda so'z o'zaklari grammatik vositalar jihatidan farq qilsa ham, ularning manbai bir bo'lib, ular bir o'zak tildan kelib chiqqan. Biror so'z yoki grammatik vositalardagi tovush o'zgarishlari ma'lum bir fonetik qonuniyat asosida yuz bergan. Bir qardosh tilga, bir tovushga ikkinchi bir qardosh tildagi shunga muvofiq tovush to'g'ri keladi. Masalan, o'zbek tilidagi **g** tovushiga qozoq tilidagi **v (w)** tovushi muvofiq keladi: **bog - bav (baw), tog - tau (taw)**; o'zbek tilidagi **t** tovushiga ozarbayjon tilidagi **d** tovushi muvofiq keladi: **temir-demir, til-dil**; Qardosh tillardagi tovushlarning bir-biriga muvofiq kelishi fonetik qonunga asoslangandir hamda qardosh tillardagi so'zlarning ma'nolari va grammatik qurilishi bilan bog'liq.

Demak, qardosh tillar oilasiga kiradigan tillarda ba'zi tovushlar bir-biridan ozmi-ko'pmi farq qilsa ham, grammatik vositalar, so'zlarning ma'nolari o'zaro yaqin bo'ladi.

Tilning boyligi irqning oq yoki sariq ekanligiga bog'liq emas. Shunday qilib, geneologik tasnif qardosh tillarning tarixiy taraqqiyot jarayonida bir o'zak tilidan tarqalganligini va ularning o'zaro munosabatini, so'z ma'nolari va grammatik shakllarini, nutq tovushlarining bir-biriga yaqinligini, o'xshashligini nazarda tutib, tillarni guruhlarga ajratadi.

Hozirgi vaqtda tarixi o'rganilib, bir-biri bilan qardosh ekanligi aniqlangan tillar oilasi quyidagilardan iborat.

1. **Hind- yevropa tillari oilasi.**

2. **Xom-som tillari oilasi.**

3. **Turk tillari oilasi.**

4. **Ugor-fin tillari oilasi.**

5. **Kavkaz tillari oilasi.**

6. **Xitoy-tibet tillari oilasi.**

7. **Dravid tillari oilasi.**

8. **Indonei tillari oilasi kabilar.**

I. **Hind-evropa tillari oilasiga** hindiston, eron, slavyan, boltiq, german, roman, kel't, grek (yunon), alban, arman tillari kabi til guruhlari kiradi.

I. **Hindiston tillari guruhiga quyidagi tillar kiradi:**

a) **hind tili.** Bu tilda 450 milliondan ortiq kishi so'zlashadi. Hind tili hozirgi Hindiston Respublikasining (poytaxti Yangi Dehli) davlat tili bo'lib, eski hind yozuvi - devonagaridan foydalanadi.

b) **urdu tili.** Bu tilda 180 millioncha kishi so'zlashadi. U hozirgi Pokistonning (poytaxti Islomobod) davlat tili bo'lib, arab yozuvidan foydalanadi. Bundan tashqari Hindiston tillari guruhiga quyidagi tillar kiradi:

1. **Bengal tili.** Bu tilda 100 millionga yaqin kishi so'zlashadi.

2. *Maratxi tili*. bu tilda 40 milliondan oshiq kishi so‘zlashadi.
3. *Panjob tili*. Bu tilda 40 millionga yaqin kishi so‘zlashadi.
4. *Rajastoni tili*. Bu tilda 20 milliondan ortiq kishi so‘zlashadi.
5. *Gujarati tili*. Bu tilda 20 millionga yaqin kishi so‘zlashadi.

Bu tillarda so‘zlovchilarning aksariyati Hindistonda yashaydi.

Hind tillari guruhiga lo‘li, sindxi tillari, shuningdek, o‘lik tillardan sanskrit, pali, prokrit tillari kiradi. Sanskrit tili qadimgi hind mumtoz adabiy tili bo‘lib, bu tilda “**Mahabxarata**” (“Bxaratlarning buyuk jangi haqida doston”) hamda “Xito padasha” (“Yaxshi nasihat”) kabi bir qancha ajoyib epik asarlar yaratilgan. Bizning eramizdan oldingi IV asrda hind olimi Panini o‘zining mashhur “Sanskrit grammatikasi” asarini yaratgan.

#### 2. **Eron tillari guruhiga quyidagi tillar kiradi:**

- a) *fors tili*. Bu tilda 30 millionga yaqin kishi so‘zlashadi, u Eronning (poytaxti Tehron) davlat tili bo‘lib, arab yozuvidan foydalanadi;
- b) *pushtu-dari tillari*. Bu tillarda 15 millionga yaqin kishi so‘zlashadi. U Afg‘onistonning (poytaxti Kobul) davlat tili bo‘lib, unda arab yozuvidan foydalaniladi;
- v) *kurd tili*. 3 milliondan ortiq bo‘lgan kurd xalqi Eronda, Iroqda, Mustaqil davlatlar hamdo‘stligi mamlakatlarida va Turkiyada yashaydi;
- g) *tojik tili*. Bu til Tojikiston respublikasining (poytaxti Dushanbe) davlat tili bo‘lib, bu tilda ikki milliondan ortiq kishi so‘zlashadi.
- d) *osetin tili*. Bu til Osetiya respublikasining davlat tili bo‘lib, bu tilda 550 mingga yaqin kishi so‘zlashadi;
- e) *baluchi tili*. Bu tilda so‘zlovchilar Pokistonda va Eronda yashaydi.

Eron tillari guruhiga bulardan tashqari tolsh tili, tog‘ tili, o‘lik tillardan esa qadimgi fors, pahlavi, sug‘du, xorazmiy tillari kiradi.

#### 3. **Slavyan tillari guruhiga quyidagi tillar kiradi:**

- a) *rus tili*. Bu til RSFSR ning (poytaxti Moskva) davlat tili bo‘lib, bu tilda 150 million kishi so‘zlashadi;
- b) *ukrain tili*. Bu til Ukraina respublikasining (poytaxti Kiev) davlat tili bo‘lib, bu tilda 40 milliondan ko‘proq kishi so‘zlashadi.
- v) *belorus tili*. Bu til Belorussiya respublikasining (poytaxti Minsk) davlat tili bo‘lib, bu tilda 10 millionga yaqin kishi so‘zlashadi.
- g) *bulg‘or tili*. Bu til Bulg‘oriya Respublikasining (poytaxti Sofiya) davlat tili bo‘lib, bu tilda 9 millionga yaqin kishi so‘zlashadi;
- d) *serb-xorvat tillari*. Bu tillar Yugoslaviya Federativ Respublikasining (poytaxti Belgrad) davlat tili bo‘lib, bu tilda 10 milliondan ortiq kishi so‘zlashadi;
- e) *chex tili*. Bu til Chexoslavakiya Respublikasining (poytaxti Praga) davlat tili bo‘lib, bu tilda 10 milliondan ortiq kishi so‘zlashadi;
- j) *slovak tili*. Bu tilda 4 millionga yaqin kishi so‘zlashadi. Bu til ham Chexoslavakiya respublikasining davlat tili hisoblanadi. Bu tilda so‘zlashuvchilar Slovakiyada (poytaxti Bratislava) yashaydi;
- z) *polyak tili*. Bu til Pol‘sha Respublikasining (poytaxti Varshava) davlat tili bo‘lib, bu tilda 40 milliondan ortiq kishi so‘zlashadi.

Bundan tishqari, kashub, serboluj tillari, o‘lik tillardan qadimgi slavyan, polab, pomor tillari ham slavyan tillari guruhiga kiradi.

#### 4. **Boltiq tillari guruhiga quyidagi tillar kiradi:**

- a) *litva tili*. Bu til Litva respublikasining (poytaxti Vil‘nyus) davlat tili bo‘lib, bu tilda 2,2 million kishi so‘zlashadi;
- b) *latish tili*. Bu til Latviya respublikasining (poytaxti Riga) davlat tili bo‘lib, bu tilda 1,5 million kishi so‘zlashadi.

O‘lik tillardan prus tili ham boltiq tillari guruhiga kiradi.

#### 5. **German tillari guruhiga quyidagi tillar kiradi:**

a) *ingliz tili*. Bu tilda so‘zlashuvchilarning soni 400 millionga etadi. Bu tilda so‘zlashuvchilar Buyuk Britaniya, Irlandiya, Shimoliy Amerika Shtatlari, Kanada, Janubiy Amerika Ittifoqi va boshqa joylarda yashaydi. Ingliz tili buyuk Britaniya (Poytaxti London), Shimoliy Amerika Qo‘shma Shtatlari (poytaxti Vashington), Kanada (poytaxti Ottava) kabi bir qancha mamlakatlarning davlat tilidir;

b) *nemis tili*. Nemis tili Germaniya Federativ Respublikasining (poytaxti Berlin), Avstriya Respublikasining (poytaxti Vena) davlat tili bo‘lib, bu tilda so‘zlashuvchilarning soni 100 milliondan oshadi;

v) *daniya tili*. Bu til Daniyaning (poytaxti Kopengagen) davlat tili bo‘lib, bu tilda so‘zlashuvchilarning soni 4 millionga yaqindir;

g) *shved tili*. Bu til Shvetsiyaning (poytaxti Stokgolm) davlat tili bo‘lib, bu tilda 7 milliondan ortiq kishi so‘zlashadi;

d) *norveg tili*. Bu til Norvegiyaning (poytaxti Oslo) davlat tili bo‘lib, bu tilda 3,5 million kishi so‘zlashadi;

e) *golland tili*. Bu til Gollandiyaning (Niderlandiyaning) (poytaxti Amsterdam) davlat tili bo‘lib, bu tilda 13 million kishi so‘zlashadi;

j) *island tili*. Bu til Islandiyaning (poytaxti Reykyavik) davlat tili bo‘lib, bu tilda 250 ming kishi so‘zlashadi.

O‘lik tillardan vesgod va ostgot tillari ham german tillari guruhiga kiradi.

#### **6. Roman tillari guruhiga quyidagi tillar kiradi:**

a) *franso`z tili*. Bu til Fransiyaning (poytaxti Parij) davlat tili bo‘lib, bu tilda 60 million kishi so‘zlashadi;

b) *italyan tili*. Bu til Italiyaning (poytaxti Rim) davlat tili bo‘lib, bu tilda 50 millionga yaqin kishi so‘zlashadi;

v) *ispan tili*. Bu til Ispaniyaning (poytaxti Madrid) davlat tili bo‘lib, bu tilda 95 millionga yaqin kishi so‘zlashadi;

g) *portugal tili*. Bu til Portugaliyaning (poytaxti Lissabon) davlat tili bo‘lib, bu tilda 45 milliondan ortiq kishi so‘zlashadi;

d) *rumin tili*. Bu til Ruminiya Respublikasining (poytaxti Buxarest) davlat tili bo‘lib, bu tilda 18 millionga yaqin kishi so‘zlashadi;

e) *moldava tili*. Bu til Moldaviya respublikasining (poytaxti Kishinev) davlat tili bo‘lib, bu tilda 2 millionga yaqin kishi so‘zlashadi;

j) *provansal tili*. Bu tilda so‘zlashuvchilar 10 milliondan ko‘p kishi bo‘lib, ular Fransiyaning janubi-sharqida yashaydi;

z) *sardin tili*. Bu tilda so‘zlashuvchilar bir milliondan ortiq bo‘lib, ular Italiyaga qarashli Sardiniya orolida yashaydi;

i) *katalan tili*. Bu tilda so‘zlashuvchilar besh milliondan oshiq kishi bo‘lib, ular asosan, Ispaniyada yashaydi;

k) *reto-roman tili*. Bu tilda so‘zlashuvchilar 550 ming kishi bo‘lib, ularning aksariyati Italiyada yashaydi.

O‘lik tillardan latin, osk, umbr tillari ham roman tillari guruhiga kiradi.

#### **7. Kelt tillari guruhiga quyidagilar kiradi:**

a) *irland tili*. Bu til Irlandiya Respublikasining (poytaxti Dublin) davlat tili bo‘lib, bu tilda 800 ming kishi so‘zlashadi;

b) *shotland tili*. Bu tilda so‘zlashuvchilar 140 mingdan ko‘p kishi bo‘lib, ular Angliyada yashaydi;

v) *breton tili*. Bu tilda so‘zlashuvchilar bir milliondan ortiq kishi bo‘lib, ular Fransiyaga qarashli Bretan‘ yarim orolida yashaydi;

d) *uels (valli) tili*. Bu tilda so‘zlashuvchilar bir milliondan ortiq kishi bo‘lib, ular Angliyaning g‘arbiy qismida yashaydi.

O‘lik tillardan gal va kornoul tillari ham kelt tillari guruhiga kiradi.

#### **8. Grek (yunon) tili guruhiga yangi grek (yangi yunon) tili kiradi:**

Bu til Gretsiyaning (poytaxti Afina) davlat tili bo'lib, bu tilda 9 milliondan ortiq kishi so'zlashadi;

O'lik tillardan qadimgi yunon, o'rta yunon yoki Vizantiya tillari ham grek tili guruhiga kiradi.

**9. Alban tili guruhiga** alban tili kiradi. *Alban tili* Albaniya Xalq Respublikasining (poytaxti Tirana) davlat tili bo'lib, bu tilda 2 milliondan ortiq kishi so'zlashadi. Alban tilidagi yozuv yodgorliklari XV asrdan beri ma'lumdir.

10. **Arman tili guruhiga** hozirgi zamon arman tili kiradi. Bu til Armanistonning (poytaxti Erevan) davlat tili bo'lib, bu tilda 3 milliondan ko'proq kishi so'zlashadi. O'lik tillardan qadimgi arman tili ham bu guruhga kiradi.

**I. Hind-Evropa tillari oilasiga**, yuqorida ko'rsatib o'tganlarimizdan tashqari, xett, tozar tillari singari o'li tillar guruhi ham kiradi.

11. **Xom-som tillari oilasi**. Bu tillar oilasi ikki katta guruhga: 1) som tillari guruhiga va 2) xom tillari guruhiga bo'linadi.

1) **Som tillari guruhiga quyidagi tillar kiradi:**

*Arab tili*. Bu tilda 50 milliondan ortiqroq kishi so'zlashadi. Arab tili Birlashgan Arab Respublikasi (poytaxti Qohira), Iroq respublikasi (poytaxti Bag'dod), Sudan (poytaxti Xartum), Marokash (poytaxti Rabat), Livan (poytaxti Bayrut), Tunis (poytaxti Tunis), Iordaniya (poytaxti Irlandiya), Liviya (poytaxti Tripoli), Jazoir Xalq respublikasi (poytaxti Jazoir), Yaman respublikasi (poytaxti Sana), Suriya arab respublikasi (poytaxti Damashq) kabi bir qancha arab mamlakatlarining davlat tilidir.

Afrika qit'asida yashovchi yana bir qancha xalqlar arab tilida so'zlashadi. Shuningdek, janubiy arab tili, amxar tili, aysar tili hamda o'lik tillardan assuriya, vavilon, xonaney, qadimgi yahudiy va oramiy tillari ham som tillari guruhiga kiradi.

1. **Xom tillari guruhiga**: shilx, tuareg, kabil, amazirt tillari, o'lik tillardan esa liviya, numid, shtul, qadimgi misr tillari va boshqa tillar kiradi. Umuman, xom-som oilasiga kirgan tillar yaxshi tekshirilib o'rganilmagan.

**III. Kavkaz tillari oilasi**. Kavkaz tillari yana bir qancha guruhlarga, chunonchi, g'arbiy guruhga, veynax guruhiga, Dog'iston guruhiga bo'linadi.

**1. G'arbiy guruhga quyidagi tillar kiradi:**

a) *abxaz tili*. Bu til Abxaziya Respublikasida yashovchilarning xalq tili bo'lib, bu tilda 80 mingga yaqin kishi so'zlashadi;

b) *abazin tili*. Bu til Cherkas Avtonom Respublikasida yashovchi xalqlarning davlat tili bo'lib, bu tilda 25 mingga yaqin kishi so'zlashadi;

v) *adigey tili*. Bu til Adigey Respublikasida yashovchi xalqning tili bo'lib, bu tilda 80 mingdan ortiq kishi so'zlashadi;

g) *kabardin-cherkes tili*. Bu til Kabarda-Balkar va Cherkas Respublikalarida yashovchi xalqlarning davlat tili bo'lib, bu tilda 250 mingdan ortiq kishi so'zlashadi.

**2. Veynax guruhiga quyidagi tillar kiradi:**

a) *chechen tili*. Bu til Chechen respublikasida yashovchi xalqlarning davlat tili bo'lib, unda 500 mingga yaqin kishi so'zlashadi;

b) *ingush tili* (bu tilda 100 mingdan ko'proq kishi so'zlashadi, ular Ingush respublikasida yashaydi);

g) *basbi tili*. Bu tilda so'zlashuvchilar Chechen va Ingush Respublikalarida yashaydi.

**3. Dog'iston guruhiga Dog'iston respublikasida yashovchi xalqlarning tillari kiradi:**

a) *avartili*. Bu tilda 300 mingga yaqin kishi so'zlashadi;

b) *dargin tili*. Bu tilda 160 ming kishi so'zlashadi;

v) *lazgin tili*. Bu tilda 230 mingga yaqin kishi so'zlashadi;

d) *lak tili*. Bu tilda 70 ming kishi so'zlashadi;

e) *tabassaran tili*. Bu tilda 34 ming kishi so'zlashadi.

Bulardan tashqari, nufuzi kam bo'lgan bir qancha tillar ham dog'iston guruhiga kiradi. Bu tillarda so'zlovchilarning aksariyati Dog'iston Avtonom Respublikasida yashaydi.

**4. Janubiy guruhga gruzin tili** kiradi. Gruzin tili Gruziya respublikasining (poytaxti Tbilisi) davlat tili bo'lib, bu tilda 2,5 milliondan ortiq kishi so'zlashadi.

Shuningdek, 110 ming kishi so'zlashadigan chan tili, 290 ming kishi so'zlashadigan migrel tili va 15 ming kishi so'zlashadigan svan tili ham janubiy guruhga kiradi.

**IV. Ugor-fin tillari oilasi 2 guruhga:** 1) ugor tillari; 2) fin tillari guruhiga bo'linadi.

1. **Ugor tillariga quyidagilar kiradi:**

a) *venger (mojar) tili*. Bu til Vengriya Respublikasining (poytaxti Budapesht) davlat tili bo'lib, bu tilda 13 milliondan ko'p kishi so'zlashadi;

b) *mansi tili*. Bu til Xanti-Mansi milliy okrugida yashovchi xalqlarning davlat tili bo'lib, bu tilda 7 mingga yaqin kishi so'zlashadi;

v) *xanti tili*. Bu tilda so'zlashuvchilar 22 mingdan ko'p bo'lib, ular ham Xanti-Mansi milliy okrugida yashaydilar.

2. **Fin tillariga quyidagilar kiradi:**

a) *fin tili*. Bu til Finlandiyaning (poytaxti Xel'sinki) davlat tili bo'lib, bu tilda 4 millionga yaqin kishi so'zlashadi. Bu tilda so'zlovchilarning bir qismi Kareliya Respublikasida yashaydi;

b) *eston tili*. Bu til Estoniya respublikasining (poytaxti Tallin) davlat tili bo'lib, bu tilda bir milliondan ortiq kishi so'zlashadi.

3. Ming kishi so'zlashadigan veps tili, 15 ming kishi so'zlashadigan ijor tili ham fin tillari guruhiga kiradi. Bu tillarda so'zlashuvchilar Sankt-Peterburg viloyatida yashaydilar;

v) *komi-permyak tili*. Bu tilda so'zlashuvchilar 180 mingga yaqin kishi bo'lib, ular Rossiya Federasiyasining Komi-Permyak milliy okrugida yashaydilar;

g) *komi-ziryan tili*. Bu tilda so'zlashuvchilar 250 mingga yaqin kishi bo'lib, ular Komi Respublikasida yashaydilar;

d) *udmurd tili*. Bu tilda so'zlashuvchilar 580 ming kishi bo'lib, ular Udmurd Respublikasida yashaydilar.

e) *mari tili*. Bu tilda so'zlashuvchilar 500 mingga yaqin kishi bo'lib, ular asosan, Mari Respublikasida yashaydilar.

Bulardan tashqari, erzya va moksha-ijor tillari ham fin tillari guruhiga kiradi.

**V. Turkiy tillar oilasiga quyidagi tillar kiradi:**

a) *ozarbayjon tili*. Bu tilda so'zlashuvchilarning soni 15 milliondan oshadi. Bulardan 9 milliondan ko'prog'i Eronda, 6 milliondan ko'prog'i esa Ozarbayjonda yashaydi. Bu til Ozarbayjon Respublikasining (poytaxti Boku) davlat tilidir;

b) *turk (usmonli turk) tili*. Bu til Turkiyaning (poytaxti Anqara) davlat tili bo'lib, bu tilda 40 millionga yaqin kishi so'zlashadi;

v) *turkman tili*. Bu til Turkmaniston Respublikasi (poytaxti Ashxobod) davlat tili bo'lib, bu tilda 2 millionga yaqin kishi so'zlashadi;

g) *o'zbek tili*. Bu til O'zbekiston Respublikasining (poytaxti Toshkent) davlat tili bo'lib, bu tilda 16 milliondan ortiq kishi so'zlashadi;

d) *qozoq tili*. Bu til Qozog'iston respublikasining (poytaxti Olma Ota) davlat tili bo'lib, bu tilda 10 millionga yaqin kishi so'zlashadi;

e) *qirg'iz tili*. Bu til Qirg'iziston Respublikasining (poytaxti Bishkek) davlat tili bo'lib, bu tilda 1,5 milliondan ortiq kishi so'zlashadi;

j) *tatar (Qozon tatarlari) tili*. Bu til Tatariston Respublikasining asosiy davlat tili bo'lib, bu tilda so'zlashuvchilar 6,5 milliondan ortiqdir;

z) *uyg'ur tili*. Bu tilda so'zlashuvchilar 5 milliondan ortiqroq bo'lib, ular asosan Xitoy Xalq Respublikasining Sin szan-uyg'ur avtonom tumanida yashaydilar;

i) *chuvash tili*. Bu til Chuvash Respublikasida yashovchi xalqning tili bo'lib, bu tilda 1,5 milliondan ko'prog'i kishi so'zlashadi;

k) *boshqird tili*. Bu til Boshqirdiston respublikasida yashovchi asosiy xalqning tili bo'lib, bu tilda 1 millionga yaqin kishi so'zlashadi;

l) *yoqut tili*. Bu til Yoqutiston respublikasida yashovchi xalqning tili bo'lib, 300 mingdan ko'p kishi so'zlashadi;

m) *qoraqalpoq tili*. Qoraqalpog'istonda yashovchi xalqlarning tili bo'lib, bu tilda 200 mingdan ortiq kishi so'zlashadi;

i) *tuva tili*. Tuva respublikasida yashovchi asosiy xalqning tili bo'lib, bu tilda 150 mingdan ko'proq kishi so'zlashadi.

Shuningdek, qumiq tili (310 ming kishi so'zlashadi), qorachoy tili (100 mingcha kishi so'zlashadi), balqar tili (50 ming kishi so'zlashadi), xakas tili (60 ming kishi so'zlashadi) va yana bir qancha boshqa tillar hamda o'lik tillardan o'rxo'n, pechena, qipchoq, qadimgi uyg'ur, bulg'or va xazar tillari ham turkiy tillar oilasiga kiradi.

#### **VI. Mo'g'ul tillari guruhiga quyidagi tillar kiradi:**

a) *xalxa-mo'g'ul tili*. Mo'g'uliston Respublikasining (poytaxti Ulan-Bator) davlat tili bo'lib, bu tilda 3,5 millionga yaqin kishi so'zlashadi. Bu tilda so'zlashuvchilarning bir qanchasi Xitoy Xalq Respublikasida (Ichki Mo'g'uliston ham Sinszanda) yashaydi;

b) *buryat tili*. Buryat respublikasida yashovchi asosiy xalqning tili bo'lib, bu tilda 270 mingdan ko'proq kishi so'zlashadi;

v) *qalmiq tili*. Qalmiq respublikasida yashovchi xalqlarning tili bo'lib, bu tilda 105 dan ko'proq kishi so'zlashadi.

#### **VII. Tungus-manjur tillari.**

##### **1). Tungus guruhiga quyidagi tillar kiradi:**

a) *evenk tili*. Rossiya Federatsiyasining Evenk milliy okrugida hamda mamlakatimizning shimoli-sharqiy tumanlarida yashovchi xalqning tili bo'lib, bu tilda 20 mingga yaqin kishi so'zlashadi;

b) *even tili*. Bu tilda so'zlashuvchilar 10 mingcha kishi bo'lib, ular asosan Rossiya Federatsiyasining Even, Oxot, Chukotka, Koryak milliy okruglarida yashaydi.

##### **3. Manjur guruhiga quyidagi tillar kiradi:**

a) *manjur tili*. Xitoy Xalq Respublikasining Shimoli-Sharqiy qismida yashovchi xalqning tili bo'lib, bu til hozir o'lik tillar qatoriga o'tyapti;

b) *nanay tili*. Rossiya Federatsiyasining Quyi Amur milliy okrugida yashovchi xalqning tili bo'lib, bu tilda 8 ming kishi so'zlashadi.

*Udey, ulq, oroch* tillari ham manjur guruhidagi tillarga kiradi.

#### **VIII. Xitoy-Tibet tillari oilasiga tay-xitoy va tibet tillari guruhlarini kiradi.**

##### **1. Tay-xitoy guruhiga quyidagi tillar kiradi:**

a) *xitoy tili*. Xitoy Xalq Respublikasining (poytaxti Pekin) davlat tili bo'lib, bu tilda bir milliarddan ko'p kishi so'zlashadi. Xitoy tili bir necha mustaqil dialektlarga bo'linadi. U juda qadimgi (eramizdan ikki yarim ming yil burungi) tillardan biri bo'lib, boy yozuv-yodgorliklariga egadir;

b) *dungan tili*. Bu tilda so'zlashuvchi xalqning soni 3,5 million kishidan ortiq bo'lib, ular asosan, Xitoy Xalq Respublikasida so'zlashadi;

g) *vetnam tili*. Vetnam Xalq demokratik Respublikasining (poytaxti Xanoy) davlat tili bo'lib, bu tilda 30 millionga yaqin kishi so'zlashadi;

d) *tay (siam) tili*. Taylandning (poytaxti Bangkok) davlat tili bo'lib, bu tilda 46 millionga yaqin kishi so'zlashadi.

2. *Tibet tillari*. Bu tilda so'zlashuvchilar 4 milliondan ortiq kishi bo'lib, ular asosan, Xitoy Xalq Respublikasining Tibet avtonom tumanida va Hindistonda yashaydi;

b) *birma tili*. Birma Ittifoqining (poytaxti Rangun) davlat tili bo'lib, bu tilda 33 millionga yaqin kishi so'zlashadi. Assam tillari ham tibet tillari guruhiga kiradi.

#### **IX. Dravid tillariga quyidagi tillar kiradi:**

a) *tamil tili*. Bu tilda so'zlashuvchilar 3,5 millionga yaqin kishi bo'lib, ular Hindistonning Janubi-sharqida va Seylon orolining shimolida yashaydi;

b) *malayalam tili*. Bu tilda so'zlashuvchilar 13 milliondan ko'proq kishi bo'lib, ular Hindistonning Janubi-g'arbida yashaydi;

v) *kannara tili*. Bu tilda so'zlashuvchilar 14,5 million kishi bo'lib, ular G'arbiy Hindistonda yashaydi;

g) *telugu tili*. Bu tilda so‘zlashuvchilar 31 million kishi bo‘lib, ular Hindistonning Janubi-sharqida yashaydi;

d) *braxun tili* (260 mingga yaqin kishi so‘zlashadi) va boshqa bir qancha kichik tillar dravid tillar oilasiga kiradi.

**X. Malay-polineziya tillari.** Bu tillarga malay yoki indoneziya tili kiradi. Indoneziya Respublikasining (poytaxti Jakarta) davlat tili. Shuningdek, madura tili, bali tili, yavan tili, tagalog tili, maori tili, samoa tili va uvea tili kabi bir qancha tillar ham shunga kiradi. Bu tillarda so‘zlashuvchi kishilar soni hali yaxshi aniqlanmagan. Umuman, malay-polineziya tillarida 90 milliondan ortiq kishi so‘zlashadi.

**XI. Avstraliya guruhi tillari.** Bu tillar oilasiga juda ko‘p tillar kiradi, lekin ular ham yaxshi o‘rganilmagan.

**XII. Papua tillari.** Bu tillarda so‘zlashuvchilar Yangi Gvineya orolida yashaydi. Bu tillar ham hali yaxshi o‘rganilmagan.

**XIII. Sudan tillari.** Sudan tillarida so‘zlashuvchilar Afrikada yashaydi. Bu tillar bir necha guruhlariga bo‘linadi: chunonchi: nil-chad, nil-abissan, nil-ekvator, kardofan, nil-kongo, ubang, shor niger-chad, niger-kamerun, quyi-niger, dagomey, niger-latgal, liberi va senegal gviney guruhlari kabi.

**XIV. Bantu tillari.** Bu tillarda so‘zlashuvchilar markaziy va Janubiy Afrikada yashaydi. Bu tillar: teke, songo, suaxeln, konde, makua va sotko kabi bir necha guruhlariga bo‘linadi.

**XV. Paleoafrika tillari.** Bu tillarda so‘zlashuvchilar ham Afrikada yashaydi. Ular ikki guruhga ya‘ni bushmen va gottentog tillari guruhiga bo‘linadi.

**XVI. Paleoosiyo tillari.** Bu tillarda so‘zlashuvchilar Rossiya Federasiyasining Shimoli-Sharqida yashaydi. **Paleoosiyo tillari ikki guruhga:**

1) *Chukot guruhi va 2) Sibir‘ guruhiga* bo‘linadi. Chukot guruhiga chukot tili (1,5 ming kishi so‘zlashadi), koryak tili (7 ming kishi so‘zlashadi), kamchadal tili (2,5 ming kishi so‘zlashadi) kiradi. Sibir guruhiga odul tili (ming kishi so‘zlashadi), nivx tili (4 ming kishi so‘zlashadi), ket tili (2 ming kishi so‘zlashadi) kiradi.

**XVII. Eskimos tillari guruhi.** Bu tillar guruhiga: eskimos tili (bu tilda so‘zlashuvchilar Chukotka yarim orolida, Vrangel‘ orolida, alyaskaning shimolida, Kanadada. Grenlandiyada yashaydi) va aleut tili (bu tilda so‘zlashuvchilar Komandor va Aleut orollarida yashaydi) kiradi.

**XVIII. Amerika hindularining tillari.** Amerika hindularining tillari 200 dan oshiq bo‘lib, ular uch guruhga:

1) *Shimoliy Amerika;* 2) *Markaziy Amerika;* 3) *Janubiy Amerika* guruhlariga bo‘linadi.

**XIX. Austr-Osiyo tillari.** Bu tillarga: mon-kxmer (6 millionga yaqin kishi so‘zlashadi), bunda (6 milliondan ko‘p kishi so‘zlashadi), malakk, markaziy va janubi-sharqiy tillar guruhi kiradi.

**XX. Hech qanday tillar guruhiga** kirmagan Uzoq Sharq tillari:

1) *yapon tili.* Yaponiyaning (poytaxti Tokio) davlat tili bo‘lib, bu tilda 100 millionga yaqin kishi so‘zlashadi;

2) *ryukyu tili.* Bu tilda so‘zlashuvchilar Ryu-Kyu orolida yashaydi;

3) *quriya (koreya) tili.* Quriya Xalq Demokratik Respublikasining (poytaxti Pxen‘yan) davlat tili va Janubiy Quriya Respublikasining (poytaxti Seul) davlat tili bo‘lib, bu tilda 60 milliondan ortiq kishi so‘zlashadi;

4) *ayn tili.* Bu tilda so‘zlashuvchilar 18 mingga yaqin bo‘lib, ular Yaponiyaning shimolidagi Xokkaydo orolida yashaydi.

**XXI. Burjaski tili.** Bu til ham hech qanday guruhga kirmaydi. Bu tilda so‘zlashuvchilar 30 mingga yaqin kishi bo‘lib, ular Hindistonning shimolida, Qorakorum dovonlarida yashaydi.

Shuni ham alohida ta‘kidlab o‘tish kerakki, geneologik tasnif har bir tilning kelib chiqishini, tarixiy taraqqiyotini, tillarning o‘zaro munosabatini hozirgi ahvolini va shu kabi qator masalalarni chuqur o‘rganishni talab qiladi. Lekin anchagina tillar bu jihatdan ham chuqur

tekshirilib o'rganilmagan. Shuning uchun bu tillarning qaysi tillar bilan qardosh ekanligi, qaysi til oilasiga, qaysi til guruhiga mansub ekanligi ham hali hal qilinmagan.

## **12. MA'RUZA: TILLARNI FUNKTSIONAL VA AREAL TASNIFLASH.**

Tillarning muayyan belgilar asosida hamda tadqiqotning umumiy maqsadidan kelib chiqadigan qarashlarga moye keluvchi ma'lum tasnifiy bo'limlar bo'yicha guruhlariga ajratilishi. Tillar tasnifi muammosi ularni qiyosiy o'rganish vaqtida paydo bo'ladi va ba'zan qiyosiy o'rganishning pirovard maqsadi deb tasavvur etiladi. Tillar tasnifining 2 asosiy turi mavjud: tillarning genealogik tasnifi va tillarning morfologik (tipologik) tasnifi. Ular orasidagi asosiy farq shundaki, tasniflarning birinchisi tillarning qarindoshligi tushunchasiga asoslanadi; u qiyosiytarixiy tilshunoslik paydo bo'lgandan keyingina ro'yobga chiqqan. Bunda qarindosh tillar qarindoshlik darajalariga qarab oilalarga (mas., hindevrova, finugor, turkiy, somhom va boshqa tillar oilalari), bir oila doirasidagi yaqin qarindosh tillar esa guruh va guruhchalarga (mas., hindevrova oilasining slavyan guruhidagi sharqiy slavyan tillari guruhchasi yoki turkiy tillar oilasining sharqiy va g'arbiy guruhlari) biriktiriladi. Oiladan kattaroq tasnifiy birliklar (til oilalari to'plami, makrooilalar va boshqalar)ni aniqlash, belgilashga urinishlar ham mavjud.

Tillarning morfologik tasnifi esa tipologik va grammatik xususiyatlarga asoslanadi. U uzgarmas lug'aviy birliklarga ega bo'lgan tillar hamda o'zaro birikib, o'zgarishlarga uchrovchi lug'aviy birliklari bulgan tillarni kiyoslash asosida paydo bo'lgan. Nemis olimi A.V.Shlegel Tillar tasnifining ushbu prinsipini tillarni grammatik qurilishli tillar va grammatik qurilishsiz tillarga ajratgan holda rivojlantirdi. Tillarni amorf tillar, agglutinativ tillar, flektiv tillar va polisintetik tillarga ajratish ham shu tasnifga asoslanadi. Mazkur turlarning birortasi ham sof holda uchramaydi: dunyodagi barcha tillarning xususiyatlari biridan ikkinchisiga utuvchan xarakterga ega. Nemis olimi G.Shteyntal, avstriyalik F.Misteli va amerikalik E.Sepirning 19-asrda morfologik (tipologik) tasnifni takomillashtirish yo'lidagi urinishlari birmuncha sodda, umumiy tarzda bo'lgan.

Tillar tasnifining uchinchi xili — areal yoki geografik tasnif ham mavjud. Bu tasnif mazkur ikki tasnifga nisbatan qo'shimcha, yordamchi mavqeda bo'lib, tillarning yoki bir til doirasidagi lahja va shevalarning geografik joylashuvidan kelib chiqadi (yana qarang [Lingvistik geografiya](#)). Umuman, Tillar tasnifi dunyodagi ko'plab xilmaxil tillarni yaxshiroq o'rganish, tadqiq etishda katta yordam beradi.

Hozirgi kunda er uch mingdan 5 ming tilga ega. Farqi ikkinchidan, ikkinchidan, masofa va foydalanish sohasidagi tafovutlar va foydalanish sohasidagi farqlar bilan bog'liq, uchinchidan, tilning "hayotiyli" ni baholash bilan bog'liq.

Tillarning ko'payishi tasniflash zarurligini keltirib chiqaradi. Zamonaviy tilshunoslikda 4 tasniflar ishlab chiqilgan:

- 1) Areal (geografik)
- 2) funktsional
- 3) tipologik (morfologik)
- 4) Generalogik

Birinchisi dunyo tilining til xaritasini o'rganishga asoslangan. Tarqatish chegaralari tasvirlangan.

Ikkinchisi tildan foydalanish funktsiyalari va funktsiyalarini o'rganish (madaniy, diplomatik, ta'lim tili va boshqalar)

Eng muhimi - bu tipologik va generalogik tasnif.

## **2. Tillarning tipik tasnifi: analitik va sintetik tizim tillari**

Ikkinchi yo'nalish - bu til tuzilishining xususiyatlaridan tashqari, genetik yoki fazial yaqinliklarning ma'lumotlariga asoslangan holda, tilning tuzilishi yoki faziatli yaqinligidan qat'iy nazar tillarning tipologik (morfologik) tasnifi ishlab chiqilmoqda. Tillarning tipologik tasnifi dunyoning barcha tillarining materiallarini qamrab olishga, ularning o'xshashliklari va farqlarini aks ettiradi va har bir tilning yoki tipologik o'xshash tillar guruhini aniqlash uchun, Ma'lumotlarga nafaqat morfologiya, balki fonologiya, sintaksis, semantikaga bog'liq.

Tilni tillarni tipik tasnifga kiritish uchun asos - bu tilning turi, ya'ni uning tuzilishining asosiy xususiyatlarining xususiyatlari. Biroq, turni mutlaqo mutlaqo amalga oshirilmaydi; Har bir tilda bir necha turda, ya'ni har bir til polliologik hisoblanadi. Shuning uchun, ushbu tilning tuzumi qaysi bir yoki boshqa turdagi turdagi bo'lsa, shuni aytish o'rinli bo'ladi; Shu sababli, tilning tipologik xususiyatlarini miqdoriy talqin qilish uchun urinishlar amalga oshiriladi.

Eng ko'p qabul qilingan [tipologik tasnif](#) Tillar:

izolyatsiya (amorfouse) tur - bu so'zlar tartibining grammatik ahamiyatga ega bo'lgan o'zgarmas so'zlar (masalan, qadimgi xitoy, vetnam, yoruba);

agglutizing (Agglinnativ) tur - bu aniqlik tizimi, ildizda grammatik alternativ tizim, morflar (aniq chegaralar) bo'lgan barcha so'zlarning yo'qligi (uchun aniq chegaralar). Misol, Finno-Igri tillari, turk tillari, tillar kamonlari);

flektsiya (Flection) turdagi flexia, ya'ni ildiz (semit tillari) va tashqi flexia, Fuzia, ya'ni bir vaqtning o'zida grammatik qadriyatlarining ifodasi bilan bir vaqtning o'zida grammatik jihatdan muhim alternativali tillarni birlashtiradi Bitta affiks (masalan, qo'llar bilan - samarali, ko'p sonli), morfosiya va uylanishning xilma-xilligi o'rtasidagi kuchli rishtalar (aniq chegaralar yo'q); Qadimgi va ba'zi zamonaviy indo-evropa tillarida, ichki flexia va termosiya birlashtirilgan.

Tillarning tipologik tasnifi, asosan, uning tuzilishini hisobga olgan holda alohida tilning butun xususiyatlarini aks ettira olmasliklari sababli yakunlanmaydi. Ammo uning tarkibida tilning boshqa sohalarni tahlil qilish orqali aniqlash imkoniyati mavjud. Masalan, klassik xitoy, Vetnam, Ginean kabi izolyatsiya qiluvchi tillarda morfemaga teng, siyosiy kasallikning mavjudligi va bir qator boshqa tomonlar mavjud bo'lgan so'zlarning monozitsiyasi mavjud.

Lingvistik qarindoshlik kontseptsiyasi - bu fikrlash tarzi va kollektiv ona spikerining asosiy mafkuraviy paradigisi nazariyasi ikkinchisining o'ziga xos xususiyatlaridan. "Odamlarning tili uning ruhi va odamlarning ruhi uning tili" va shu ma'noda "har bir tilda" har bir tilda "bu dunyoqarashi". Shunday qilib, ijtimoiy hayotning tipologiyasi o'zlarini ifoda etadigan madaniyatlarining o'zgaruvchanligiga qarab tushuntirish kerak [turli tillar](#). Shu munosabat bilan kontseptsiyaning tilsiz nisbiyligi doirasida jahon madaniyatini rivojlantirishning taxminiy modeli hind-evropalik til matritsasiga va unga mos keladigan Evropa madaniyati matritsasiga asoslanib bo'lmaydi va Qayta tiklanadigan vaqtning chiziqli tushunchasi, ammo boshqa til materiallari. Bu dunyo madaniyatining shakllanishiga olib keladi deb taxmin qilinadi

Oddiy sintetik tillar qadimgi yozma [hind-Evropa tillari](#): Sanskrit, qadimiy yunon, lotin, gotik, Staroslavskiy; Hozirgi vaqtda asosan Litva, Germaniya, rus (ham ko'plab faol tahlil xususiyatlari bilan bog'liq bo'lsa); Tahliliy: Romanesk, ingliz, Daniya, Novoglar, Novroperside, novo hindistonlik; Slavidan - bolgarcha.

Turkiyani grammatikani affiksatsiya qilishda ustunlik qilish, ularning grammatikani affiks-dagi barcha tahlillar, ularning affikslash xususiyatlari tufayli juda ko'p tahlillarga ega; Xuddi shu tillarda arabcha, sintetik, chunki ularda grammatika so'z ichida ifodalangan, ammo ular murakkabligi murakkab tendentsiyaga nisbatan analitik. Albatta, bu jihatdan og'ish va qarama-qarshiliklar mavjud; Shunday qilib, nemis tilida fenomen analitik hisoblanadi, ammo bu ish bilan bog'liq bo'lsa, sintetikizmdir; [ko'paytirilgan raqam](#) Ingliz tilidagi otlar, qoida tariqasida, bir marta, hodisa tahliliydir.

### 3. Generalogik tasnif

Genetik tasnif - qarindoshi - tarixiyligi va tarixiymum tamoyilining lingvistik tadqiqotlar kontsepsiyasidan keyin (19-asr) bo'lgan qarindoshlik belgisiga asoslangan. Bu qiyosiy tarixiy usul yordamida tillarni o'rganish natijasida rivojlanadi. Shu bilan birga, ba'zi tillarning o'zaro munosabatlari ushbu tillarning morfemaning muhim qismining kelib chiqishi, barcha grammatik affikslar va ko'plab ildizlarning paydo bo'lishini isbotladi. Odatda maxsus barqarorlik bilan ajralib turadigan lug'atning o'sha qismlarida, tananing ba'zi qismlarining "suv", "Sun", "Bo'l", "Bo'ling" degan ma'noni anglatadi ",", "" ", " ichimlik va boshqalar. Ildiz va aşınmalarning umumiy kelib chiqishi, ularda muntazam ravishda fonetik yozishmalar mavjudligi bilan tasdiqlanadi. Agar qiyosiy tarixiy fonetiklar yaratilgan bo'lsa, bu sizning qoziq tili va izini (qat'iy qoidalarga ko'ra), ular avlodlarning tillarining ildizlariga aylanishi, keyin ularning o'zaro munosabatlari o'rnatilgan deb hisoblanadi .

Shu ma'noda, qadimgi dunyodagi tillar oilalarining o'zaro munosabatlari: hind-evropalik, Ural (Finno-Ugorskaya bilan), turkiy, mo'rian, tunuko-manchur, dravidian, Carvela, Semit Hamitskaya (Afrazian), 60-yillarda. 20 V. Nostratik (boran) birlashdi [yettinchi til](#). Ushbu tillarning qiyosiy fonetlarini qurish, 600 dan ortiq ildiz va affikslardagi doimiy fonetik jurnallarda kuzatilishi mumkin edi. Evrosiyoning tillari, Xitoy-Tibet tillar oilasi, Yenisey, Ansame, Aynskiy va antik davrdagi ba'zi tillar: Sumeriy, Kassian, Xattskiy va boshqalar. Hammasi ko'p [til guruhlari](#) Afrika (semitiya-xamitlar bundan mustasno) uchta faraziy oilalarga: Nigero-Korofan, Nilo-Shakar va Koisan.

Tillarning genetik tasnifi bitta sxema shaklida mavjud. Lingvistikasi sifatida u antropologik va, xususan, antropologik va xususan, bitta poygaga tegishli tillarga tegishli bo'lgan xalqlarga tegishli emas. Garchi til oilalarining shakllanishi doimiy ravishda paydo bo'lsa-da, ularni shakllantirish, qoida tariqasida, qoida tariqasida, sinf jamiyatining paydo bo'lishidan oldin davri. Zamonaviy tillarning zamonaviy genetik tasnifi eski tilshunoslikdagi ommaboplik kontsepsiyasida dunyoning tillari haqidagi konsepsiya bilan qo'llab-quvvatlash uchun asos bermaydi.

**Qiyosiy tarixiy usul B. [kech Xix](#).** Ushbu tillarning tillarni o'rganish paytida ushbu tillarning o'xshashliklari o'rnatilgan asrlar asr.

Tasalli o'xshashlik asosida, ushbu tillarning o'zaro bog'liqligi va ularning kelib chiqishi yuzaga keladigan gipoteza bo'lishi kerak, shuning uchun asta-sekin qiyosiy tarixiy usul tilshunoslik sohasida maxsus sanoatni shakllantirish uchun asos bo'ldi.

Qiyosiy tarixiy tilshunoslikni shakllantirish va rivojlantirishning kaliti va protealo-evropa tilini - Evropa-Evropa tashuvchilarning qoldiqlari saqlanib qoldi. Urushdan oldingi adabiyotlarda Evropaning shimolida germaniyalik xalqlar Aryan poygasining eng toza tashuvchisi deb e'lon qilindi.

Shimoliy Yevropa pranododiyinining g'oyasidan keyin (hind-evropa tillarida, dengizning umumiy belgisi bor), shuningdek, evropaliklarning dog'lari bo'yicha asosiy darslar tashkil etildi:

O'quv gipotezasi

1. 1956 yilda Mariya Gimbutas tomonidan taklif etilgan eng keng qamrovli qabul qilingan gipoteza. Uning so'zlariga ko'ra, Pranodina Hind-evropaliklar - Volga va Qora dengiz cho'narlari (yammy madaniyati). Asta-sekin, hind-evropalik to'lqinlarning turli xil filiallari ajdodlarning turli yo'nalishlarida ko'chib o'tdi. Dastlabki tumanlarning eng uzuni plant va slavyanlarning ajdodlari egalladi.

2. Anadolyan gipotezanida (Renfreke tomonidan shakllantirilgan), Pireto-Evropa tili neolitlar haqida aniqlanganidan ancha oldin mavjud deb taxmin qilinadi, bu esa 7-6 ming mil. Anadolida (Hind-evropaliklar yodgorligi Chatel-Xyuklar yodgorligi), shundan so'ng, shundan keyin 6 ming. Hind-evropalik tillar esa sharbatni kesib o'tdi va Evropaning janubi-sharqiy Evropaga tarqaldi.

§ 304. Zamonaviy dunyoda bir necha ming til bor. Turli sabablar va eng muhimi, tushunarli bo'lishi mumkin emasligini aniqlash mumkin emas, bu har doim ham til va hududiy dialektni aniqlab bo'lmaydi: "Turli tillar va lahjalar o'rtasidagi farq shartli ravishda bitta til. " Masalan, zamonaviy polshada, quyidagi parametrlarni ajratish odatiy holdir: Buyuk Polsha, Molhopskiy, Mazovski, Silziya va Kashubski. Shu bilan birga, ba'zi tilshunolar (Kashef san'ati. Ramuld, Germaniya, rossiyalik olimlar, - A. Selishchev, A. M. Salishchev va boshqalar) Mustubiyi-ni mustaqil g'arbiy deb hisoblash Slavyan tili. Romanda romantika tillari soni, bunday tillar yoki dialektlarning holati haqida nizolar bo'lib, masalan, gal (alohida, [mustaqil til](#) yoki dialekt [portugal tili](#)), Gaskkonskiy (alohida til yoki diundusicions), franko financeloni (mustaqil tili yoki frantsuz yoki frantsuz tili) va boshqalar, katalani va Oktili (turli tillar yoki bir tilning variantlari) va boshqalar.

Turli manbalarda turli xil jahon tillari ko'rsatilgan. Quyidagi gaplarni taqqoslang: "Dunyoda ikki mingdan ortiq narsa bor [turli tillar](#)"; "[Zamonaviy fan](#) 2500 dan ortiq tillar mavjud "; " ... dunyo bo'ylab 2800 ga yaqin tillarda "; " Hozirgi kunda dunyodagi 2500 dan 5000 ta tilda ". Moskvada 2006 yil 25-26 may, 2006 yil 25-26 may kunlari "tartibga solish va tavsiflovchi terminologiya" xalqaro ilmiy konferentsiyasi xabar qilindi.

Ilmiy izlanishlar va tillarning tavsiflari ularning ostida ba'zi guruhlariga tillarni taqsimlash (sinflar, guruhlar, kichik guruhlar va boshqalar) turli xil uslubiy belgilar asosida tushuniladi. Ta'rif bo'yicha, V. A. Vinogradova, tillarning tasnifi "dunyo tillarini taqsimlash ma'lum bir taksonanik (i.e., tasnifi bo'yicha. V.N.) Tadqiqotning umumiy maqsadlaridan kelib chiqadigan va muayyan belgilar asosida rubrikalarda va ma'lum bir belgilar asosida. "

Tillarni tasniflash turli belgilarga, ya'ni tillarning kelib chiqishi, ularning genetik munosabatlari (nohologik tasnif); tillar, tilshunoslik turlari (tipologik tasnifi) tipologiyasi (tipicologik tasnifi); Bir yoki boshqa til maydoniga tegishli, ma'lum bir umumiy umumiy jamoat (anal tasnifi).

Lingvistik adabiyotda, odatda, tillarning dastlabki ikki tasnifi bo'lib, generalogik va tipik, ko'pincha ikkinchisiga e'tibor qaratadi.

## Tillarning nasabnomasi

Ba'zan genetik deb nomlangan tillarning nasabq tasnifi (nizo yunon. *genos* - "Tayoq, tug'ilish, kelib chiqishi" va *logos* - "Kontseptsiya, o'qitish") turli guruhlarining o'zaro munosabatlarni hisobga olgan holda tegishli bog'liqliklar asosida turli guruhlarining taqsimlanishi. Til munosabatlari munosabatlari bilan, ushbu tillarning umumiy tilidan yoki himoya tilidan kelib chiqqan bir hil lingvistik elementlar o'rtasidagi o'xshashliklarning mavjudligi ostida.

**"Rodium tili – umumiy mulk** ikki yoki bir nechta. Asl minimal ahamiyatli elementlar (ildiz morfemalari va affikslar), to'g'ri o'zgarishlarning muntazamligini aks ettiruvchi tegishli bo'lib, ular to'g'ri o'zgarishlarning muntazamligini aks ettiradi ... Umumiy manbaga ko'tariladi - *prAEEask*".

Tillarning boshqa mumkin bo'lgan tasniflaridan farqli o'laroq, nasabnoma mutlaqdir. Bu shuni anglatadiki, ushbu tasnifda "Har bir til bitta so'zga tegishli. Genealogiya, guruhlash, guruhlash va bu aksessuarni o'zgartira olmaydi."

Generallashtirish tasnifida dunyo tillari odatda bunday guruhlariga bo'lingan [til oilalari](#), filiallar, guruhlar, kichik guruhlar. Shu bilan birga, tilshunoslikda tegishli tillar guruhlarini bildiruvchi shartlar tilshunoslikda qo'llaniladi (pastga qarang).

§ 306. Generallashtirish tasnifidagi eng katta tillar birlashmasi **tillar oilasi** yoki **tillar oilasi**. Til oilasi - bu o'zaro munosabatlar bilan bog'liq tillar to'plamidir (katta yoki kamroq darajada) munosabatlar munosabatlari va ma'lum elementlarning o'xshashligini saqlash.

**Tillar oilasi** - umumiy amaliyot meros ", bu« bir til-odamdan sodir tegishli tillarda birikmasi ..., yoki (masalan, hind-Yevropa SI uchun) Praevka "moddiy jamg'armasi taniqli jamoat ( Qattiq ovozli o'yinlarni aks ettiruvchi so'zlar, morfemalar, ildizlar, affikslar). "

Tillar oilasida boshqa shartlar qo'llaniladi: "Katta oila" ("kichik oiladan farqli o'laroq") yoki "Makros" ("Microsimete"), "Faliya"). Shu ma'noda, "tillar guruhi" atamasi yoki til guruhi ham qo'llaniladi.

Dunyoning tillari orasida bir necha o'nlab lingvistik oilalar farq qiladi. Bular kabi tillar uyushmalari, masalan: Indo-Evropa (tarqatish hududi), Turkiya va Osiyo mamlakatlari, ko'plab mamlakatlar, tahdidli-fin yoki Finno-Igri (Vengriya) , Norvegiya, G'arbiy Sibir), Tununupomachurian yoki manchurian-Tonussian (Sibir, uzoq Sharq), Chukotka-kamchatka (Chukotka, Kamchatka va boshqalar), Eskimo-Aluca (Chechka, Alyaska, Kanada, Geluta orollari va boshqalar), Sharqiy Kavkaz Kavkaz (Checheniston, Dog'iston, Ozarbayjon, Gruziya (Checheniston, Dog'iston, Ozarbayjon) , Turkiya), Mo'g'uliston (Mo'g'uliston), Sino-Tibet, yoki Sino-Tibetan (Xitoy), Tailand (Indochina va Janubiy Xitoy), Avstrokskaya yoki Avstro'yiya (janubi-sharq) Janubiy Osiyo), Avstrossiya, yoki Malayziya-Polinesian (Indoneziya, Filippin va boshqalar), Dravida (Janubiy Osiyo tubi va boshqa orollar), papuan (yangi Gvineya va boshqa orollar) tinch okeani), Kongo va Kordero-Korofan (Afrika), Nilo-Shakar (Afrika), Coison (Afrika, Janubiy Afrika), Afrikan, Afrosia, Hamito-Semit (Afrika, Osiyo), Avstraliya (Avstraliya), Hindiston, Amerika, Ormerin (Markaziy va Janubiy Amerika), Karib dengizi yoki Karaibik (Janubiy Amerika), ko'rfaz tillari (Shimoliy Amerika).

Hozirgi kunda hind-evropalik oilalarning tillari eng batafsil o'rganib chiqilgan. Hammasi bo'lib 100 dan ortiq hind-evropalik tillar mavjud. Ba'zi ma'lumotlarga ko'ra, ularning soni 127 ga etadi. Olimlar, boshlang'ich (yoki nisbatan erta) tarqalish hududida "Markazdan. Evropa va

Shimoliy. Bolqon. Qora dengiz viloyati (janub. Dasht) So'nggi besh asr davomida hind-evropalik oilasining tillari shimoliy va [Janubiy Amerika](#), Avstraliya va qisman Afrikada.

Turli xil oilalarning tillari bir-birlaridan til tuzilishining turli sohalaridagi turli sohalaridagi o'ziga xos xususiyatlari bilan - fonetika, lug'at, morfologiya, sintaksis va boshqa sohalarda farq qiladi. Shunday qilib, sohada hind-evropalik tillar uchun morfologiya, animatsiya va inanimik otlarning kontrasti, taniqli indekshirish shakllari mavjud, ularda turli xil moyilliklarning mavjudligi, turli xil moyilliklarning mavjudligi va boshqalar. Zamonaviy indo-Evropa tillari lug'atida. Aloqa endo-evropalik kelib chiqishi so'zlari saqlanib qoladi. Bularga qarindoshlik darajasining ba'zi ismlari (onasi, qizi, o'g'li, singil va boshqalar), daraxtlar (eman, echki, Berez va boshqalar) kiradi. .) Va boshqa ko'plab so'zlar (qirg'oq, dengiz, suv, oy, olov, tuz, kesma, uch, to'rt, to'rt, to'rt va boshqalar).

Ko'p tillarning ko'plab oilalari bo'lingan **filiallar**ko'pincha kichik oilalar yoki guruhlar deb ataladiganlar. Til filiallari oilalarga qaraganda kichikroq tillardir. Xuddi shu filialning tillari yaqin qarindoshlarni saqlab qolishadi, o'xshashliklarga ko'proq xususiyatlarga ega.

Hind-evropalik oilalar tili, masalan, bunday tillarning filiallari ajralib turadi, masalan: Slavyan, Boltiq, German, Romanesk, Seltik, Germaniya, Hindiston (boshqacha tartibli), Inoiranskiy (Aryan), torak va boshqa boshqalar. Bundan tashqari, hindu yevropalik tili oilasi maxsus filiallarni shakllantirmaydigan ba'zi bir tillarni o'z ichiga oladi: albaniya, arman, pensskiy, trakiya, Frrian.

Chuqur Fin til tili oilasi to'rtta filialga ega: Boltiqbo'yi, Volzshskaya, Perm va Ugorsk; Bundan tashqari, bu oila Sami egalik qiladi, bu ro'yxatga olingan filiallarga kiritilmagan.

Chukchi-Kamchatka oilasining tillari ikkita filialga bo'linadi: Chukotka-Karyak va Iliamenna.

Ichki tilshunoslik sohasida slavyan filiallarining hind-yevropalik tillari eng yaxshi o'rganildi va dastlab Evropa va Janubiy Evropa hududida taqdim etilgan va keyinchalik Evropa va Osiyoning turli mintaqalarida keng tarqalgan.

### **13. MA'RUZA: TILLARNI TIPOLOGIK TASNIFLASH.**

**TILLARNING MORFOLOGIK (TIPOLOGIK) TASNIFI** - tillarni grammatik shakl hosil qilish usullarida farq qilishiga ko'ra guruhlarga ajratish; tillarni tipologik tasniflashning bir turi. Bu tasnifga ko'ra, tillarning quyidagi turlari ajratiladi: amorf (o'zak) tillar, maye xitoy, bamana, annam, Jan.Sharqiy Osiyo mamlakatlari xalklarining talay tillari. Bu tillarning lug'at tarkibi, asosan, bir bo'g'inli so'zo'zaklardan iborat bo'lib, ularda turlanish, tuslanish xususiyatlari yo'q. Shu bois ushbu tillarda so'z yasovchi affikslar, yordamchi so'zlar vazifasini bajaruvchi yuklamalargina mavjud. O'zak tillarda so'z tartibi muhim ahamiyat kasb etadi.

Agglyutinativ tillar (turkiy, bantu, mo'g'ul, finugor tillari)da so'zlar o'zak va unga birikib keladigan affikslardan iborat bo'ladi hamda so'zning morfologik tuzilishi (o'zak va affiks) aniq ajralib turadi. Bunda har bir affiks bir ma'no, vazifa bilan qatnashadi. Mas., turkiy tillarda, jumladan, o'zbek tilida yasama so'zlar va so'z shakllari asosga muayyan izchillik bilan affikslar qo'shish orqali hosil qilinadi va bunda affikslarning har biri uz ma'nosi bilan qatnashadi: terimchilarimizga.

Flektiv tillar affikslarning o‘zak bilan birikib, unga singib ketishi bilan tavsiflanadi. Bunday tillarda grammatik ma’nolar fleksiya yo‘li bilan ifodalanadi: mas., arab tilida kitob (birlik) — kutub (ko‘plik) yoki rus tilida drug (birlik) — druzya (ko‘plik), ularga hindevropa va som tillari oilalari kiradi. Flektiv tillar sintetik va analitik tillarga ham ajratiladi. Sintetik tillarda grammatik ma’nolar (gapda suzlarning uzaro munosabati) shakl yasovchi affikslar vositasida ifodalanadi (mas., rus, nemis tillari). Analitik tillarda esa grammatik ma’nolar so‘z shakllari (shakl yasovchi qo‘shimchalar) vositasida emas, balki yordamchi so‘zlar, suz tartibi, ohang yordamida ifodalanadi (mas., ingliz, fransuz, ispan tillari).

Polisintetik tillar (Shim. Amerika indeyslari tillari)da asosiy nutq birligi suzgapdir. Tasnif etilgan tillar orasiga qat’iy chegara ko‘yib bo‘lmaydi, chunki bir tilda uchraydigan ayrim til hodisalari boshqalarida ham uchrab qolishi mumkin. Mas., Okeaniya tillarini ham amorf tillar, ham agglutinativ tillar sifatida tavsiflash mumkin.

Tillarning morfologik tasnifit. dunyo tillarini muayyan morfologik xususiyatlariga ko‘ra guruhlash, ularning umumiy chizmasini yaratish jihatlaridan muhim, shu bois u hozir ham o‘z e’tiborini yo‘qotmagan.

#### **14. MA’RUZA: TILLARNI GENEALOGIK TASNIFLASH.**

**Tillarning genealogik tasnifi** — tillarning kelib chiqishi va qarindoshligini aniklashga asoslangan tasnif. Dastlabki, ilk asos tildan kelib chiqqan tillar o‘zaro qarindosh tillar hisoblanadi (mas., hozirgi 20 dan ortiq turkiy tillar dastlabki kad. turkiy tilning, hozirgi slavyan tillari esa dastlabki umumslavyan tilining makon va zamondagi variantlaridir). Tillarning genetik qarindoshligi tillar o‘rtasidagi fonetik, grammatik va leksik uxshashliklar tizimini aniklash orqali belgilanadi. T.g.t.ning ilk manbalari, asoslari sifatida M.Koshg‘ariyning turkiy lahja(til)lar bo‘yicha, bir qancha arab olimlarining som tillari bo‘yicha izlanishlarini ko‘rsatish mumkin. T.g.t.ning maydonga kelishi qiyosiytarixiy tilshunoslikning paydo bo‘lishi (19-asr) bilan bog‘liq. Bu tasnifda qarindosh tillar kichik guruhchalarga, guruhlarga, oilalarga, ba‘zan esa undan kattaroq birliklarga — makrooilalarga yoki til formatsiyalariga (mas., uraloltoy tillari) birlashtiriladi (mas., T.g.t.ga ko‘ra, o‘zbek tili turkiy tillar oilasining sharqiy guruhiga, rus tili esa hindevropa tillari oilasining slavyan guruhidagi sharqiy slavyan guruhchasiga mansub). Aksariyat tillarni genealogik jihatdan tasnif qilish va ularni u yoki bu oilaga kiritish ko‘pincha munozarali bo‘ladi. Mas., Kavkaz tillari oilasining mavjudligini hamma olimlar ham tan olgan emas (yana qarang [7mllar tasnifi](#). Lingvistik geografiya. Tillarning morfologik tasnifi).

#### **15. MA’RUZA: TIL VA MADANIYAT.**

##### **TILLARNING O‘ZARO XAMKORLIGI VA RIVOJLANISH QONUNIYATLARI**

**Reja:**

- 1.Til taraqqiyotining ichki omillari**
- 2.Shevalarning tillar rivojlanishidagi o‘rni**
- 3.Differensiya va integratsiya jarayonlari**

Rivojlanish - obyektiv, dialektik jarayon bo‘lib, bir sifatdan boshqa sifatga o‘tish natijasida yuz beradigan o‘zgarishlar tufayli ro‘y beradi. Dunyodagi har bir predmet, hodisa doimiy harakatdadir. Xuddi shuningdek, til ham hamisha o‘zgarishda. Bu esa til bevosita bog‘liq bo‘lgan jamiyat hayoti, uning doimiy harakati, rivojlanishi bilan bog‘liq. Jamiyat bu harakatdan to‘xtasa yoki bu aloqa uzilsa, o‘sha zahoti til ham rivojlanishdan to‘xtaydi, yo‘qoladi.

Xuddi shu fikrni V.A. Zveginsev ham ishonch bilan ta'kidlaydi: "Jamiyatsiz til rivojlanish xususiyatini yo'qotadi va u sun'iylashadi. Masalan, lotin tili katolik dinining tiliga aylandi, o'rta asrlarda esa ilm-fanning xalqaro tili vazifasini bajardi. Xuddi shuningdek, O'rta Sharq mamlakatlarida mumtoz arab tili ham analogik rol o'ynadi" (Zveginsev V.A. Ocherki po obo'emu yazykoznaniyu. M., 1962, str.: 178- 179).

Ilm-fan, texnika va madaniyat mudom o'zgarib, yangilanib, rivojlanib boradi. Til taraqqiyotida ichki va tashqi omillar mavjud. Til taraqqiyotining ichki omillari til tizimidagi sathlarning o'ziga xos rivojlanishiga asoslansa, tashqi faktorlar til va jamiyat, tillararo munosabat va ta'sir, nutq jarayoni, o'zlashma, qatlam singari lisoniy, aniqrog'i ekstralingvistik hodisalarda aks etadi. Shunga ko'ra, tilshunoslik 2 ga: ichki tilshunoslik hamda tashqi tilshunoslikka bo'linadi. Ichki tilshunoslik tilning ichki qurilishini, sistemasini o'rgansa, tashqi tilshunoslik tilning ijtimoiy ahamiyati va vazifasini, ya'ni jamiyatda yashovchi inson, so'zlovchining tildan qay tarzda foydalanishi-yu, tilning jamiyatga ta'siri, shuningdek, bir xil hamda turli til oilasiga mansub tillarning o'zaro munosabati, tilga tashqi ta'sir natijasida ro'y beradigan o'zgarishlar kabilarni tadqiq qiladi.

Ichki lisoniy qonuniyatlar til tizimi sathlarida o'z aksini topadi. Lisoniy qonuniyatlar o'ziga xos ko'rinishda namoyon bo'ladi. Shu jihatdan qaraganda til taraqqiyotida umumiy va xususiy qonuniyatlarni kuzatish mumkin. Umumiy qonuniyatlar – barcha tillarga xos bo'lgan lisoniy hodisalarni, jarayonlarni anglatadi. Masalan, tilning kommunikativlik va ekspressivlik funksiyalari, til sathlarining notekis rivojlanishi, ya'ni leksik qatlamning boshqa lisoniy qatamlarga nisbatan tez o'zgaruvchanligi, doimiy harakati va hokazolar.

Xususiy lisoniy omillar esa har bir konkret tilning o'ziga xos qoidalarini o'z ichiga oladi, chunonchi, har bir til (hattoki bir tillar oilasiga mansub tillarda ham) o'ziga xos fonetik tizimga, leksik sathga, grammatik qurilishga, stilistik uslublarga ega. Demak, bu ikki tur qonun yoki faktorlar bir- birini taqozo qiladi; umumiylik xususiyatlarni o'z ichiga oladi.

Endi lisoniy sathlarning ichki rivojlanish xususiyatlari tahliliga o'tsak. Lingvistik taraqqiyot hodisasi, asosan, uch aspektda o'rganiladi: leksik, fonetik, grammatik.

Mu'lumki, til sathlari (leksika, fonetika, morfologiya, sintaksis) notekis rivojlanadi. Tilning eng tez rivojlanuvchan, harakatchan qismi – lug'at tarkibi hisoblanadi. Leksema doimiy o'zgaruvchan, yangilanuvchan qatlamdir. Insonlarning moddiy va ma'naviy hayoti, shubhasiz, leksikada o'z aksini topadi. Buni kunda sodir bo'lib turuvchi neologizm va arxaizmlar hodisasidayoq kuzatish mumkin. Fan-texnika, ilm-fan va dunyoqarash o'sib borgan sari tilimizda yangi so'zlar paydo bo'laveradi: *kosmonavt, yadro, klip, estrada, kompyuter, internet, elektron pochta, sistema, leksema* va hokazo. Shuningdek, ijtimoiy va siyosiy hayotda qatnashmaydigan so'zlar til tizimida eskirib, arxaizmga yoki istorizmga aylanadi: *bo'zchi, mirob, faytun, qozi, amir, saroybon, obkom, raykom* va boshqalar. Yaqin o'tmishda *raykom, traktor, televizor, radio* so'zlari neologizm, yangi kirib kelgan so'zlar edi. Hozirda esa ularning ko'pchiligi kundalik so'zlashuv leksikaga aylangan.

Leksik rivojlanishning ichki omillari faqat shulardan iborat emas. Semantik rivojlanish lug'atning asosini tashkil qiladi. So'zlar vaqt o'tishi bilan yoki biror- bir sabab, sharoitga ko'ra, o'z ma'no semalarini yo'qotib, boshqa sema (ma'no, tushunchaga) ga ega bo'ladilar. Masalan, o'zbek tilidagi *qishloq* so'zini olib qaraylik. Ilgari *qishloq* tushunchasi-qishlash uchun joy, qishlov ma'nosini bildirgan bo'lsa, hozirda butunlay o'zgacha, yangi ma'no anglatadi: *qishloq*- shahardan tashqarida, shahar atrofida joylashgan, asosan qishloq xo'jalik ishlari: ekin va chorvachilik uchun mo'ljallangan aholi yashash joyi. Shuningdek, *sovchi* so'zi ham qadimgi turkiy tilda sab(v)chi – so'zchi, ya'ni birovning so'zini yetkazuvchi, xabarchi, elchi ma'nosida ishlatilgan bo'lsa, hozirga qadar- uylanish niyatida bo'lgan yigit (kuyov)ning qiz (kelin) uyiga vakil kishisini yuborshi, qiz tomonning roziligini so'rash uchun harakat (ko'pincha, onasi yoki ayol qarindoshlari) ma'nosida tushuniladi. Bu kabi hodisalarni barcha tillarda kuzatish mumkin.

Rus tilidagi (hozirgi) *muchit* so'zi, dastlab ishlamoq ma'nosida ishlatilgan. Og'ir mehnatga nisbatan ishora qiluvchi *muchenie, muka-rabota* tushunchalari bora-bora taraqqiy

etaverib, alohida soʻz va tushunchalarga aylangan: *muchit* – azoblamoq, *muchitsya*- mashaqqat va nihoyat – *rabotat* – *truditsya*, *zanyatsya rabotoy*.

Xuddi shu maʼnoviy (semantik) oʻzgarish fransoʻz tili leksikasida ham uchraydi, masalan: fransoʻz tilidagi *fravail* (ish) va *fravail lor* (ishlamoq) aslida latincha *frupalium* soʻzidan kelib chiqqan. *Tripalium* – otlarni taqalash paytida qattiq qisib turuvchi stanok boʻlgan. Xullas, *fravailler* (ishlamoq), dastlab *frupalium* yordamida *qiynash* semasini, keyinchalik haqiqiy *qiynash* maʼnosini anglata boshlagan. Faqat keyinchalik bu soʻz ishlash maʼnosini anglata boshlagan (Qarang: Budagov R.A. Проблемы развitiya языка М.-Л. 1965. str.: 42-43).

Bundan tashqari, til tizimida yahlitlanish, atamalashish (terminologizatsiya), soddalashish kabi koʻplab usullar mavjudligi, ular lugʻat tarkibining oʻzgarib turishiga xizmat qiladi. Soʻzlarni koʻchma maʼnoda qoʻllash leksika taraqqiyotida muhim omil boʻlib xizmat qiladi. *Oq oltin*, *oltin qoʻllar*, *boʻri* (hayvon va salbiy maʼnoda kishiga nisbatan), *tulki*, *ilon* (ayyor maʼnosida), *xola*, *otajon*, *amaki* (koʻchma maʼnoda begona kishiga nisbatan) kabi misollar shu turkumga mansubdir.

Til taraqqiyotining ichki qonuniyatlari fonetikada yanada konkret aks etadi. Maʼlumki, fonetika nutq tovushlarini, nutqning fonetik boʻlinishini oʻrganadi. Fonetikada assimilyatsiya, dissimilyatsiya, singarmonizm, diftongizatsiya, enkliza, prokliza singari koʻplab qonuniyatlari mavjud. Har biri oʻziga xos fonetik tabiatga ega. Masalan, oʻzbek tilida urgʻu hodisasi unumli emas, shunday boʻlsa-da, oʻzbek tilidagi urgʻu koʻchuvchanligi bilan ajralib turadi (odatda oxirgi boʻgʻinga tushadi: *kitob- kitobni...*). Rus, xitoy, yapon tillarida urgʻu unumlidir: *u okna - okna*, *ruki - ruki*, *pasporta - pasporta*.

Fonetik qonuniyatlarning muhim jihati shundaki, ular xususiy hodisalar uchun umumiylik rolini oʻtaydi. Masalan, ingliz tilidagi *leat* (urmoq) soʻzi  $\varepsilon > e > i$  fonetika jarayonining mahsulidir: *leat* –  $b\varepsilon: te > be: t > bi: t$ . Shuningdek, oʻz > 4 almashinuvi, taraqqiyoti qonunini ham quyidagi misollar, xususiyliklarda kuzatish mumkin: *moon-mo:n > mu:n*.

Oʻzbek tilining fonetik taraqqiyotini qadimgi turkiy tilni oʻrganganda sezish mumkin. Hozirgi oʻzbek adabiy tilida unililar 10 ta va ularning talaffuzi ham oʻzgargan: *at-ash*, *abagʻ-oyoq*. Fonetikamizda milliy hodisa sifatida saqlanib qolgan qonuniyat – singarmonizm. Singarmonizm – oʻzak va qoʻshimchadagi unlining uygʻunlashuvi, oʻxshab qolishidir: *unum*, *soʻzuk*, *kulgu*, *qiliq*, *toroq* (Toshkent shevasida), *qilgʻiliq* va h.z.

Grammatika – til sathlari ichida eng turgʻun boʻlim hisoblanadi. Grammatik taraqqiyot bu tilning sifatii rivojlanishni aks ettiradi, chunki tildagi qatlam (math)lararo miqdoriy oʻzgarishlar grammatikada umumlashadi hamda grammatik kategoriyalarning, grammatik maʼno ifodalovchi vositalarning taraqqiyotiga ichki omil boʻlib xizmat qiladi. Tillardan grammatik kategoriyalarning nisbati bir xil emas, chunonchi, ingliz va nemis tillaridagi otlarni farqlovchi xususiyat shundaki, nemis tilida (xuddi rus tilidagidek) rod kategoriyasi mavjud: *tad* (kun) – muj.r.; *wasser* –(suv) -serd.r.; *yunge* (til) jen.r. Bu hodisa qadimgi ingliz tilida ham boʻlgan: *doy* (kun) muj.r.; *water* (suv) – sred.r.; *tongue* (til) – jen.r

Biroq, zamonaviy ingliz tilida bu grammatik kategoriya “bosib oʻtilgan”, “unutilgan” koʻrinish hisoblanadi. Shuningdek, otlardagi turlanish (kelishiklar) hodisasi har ikki tilda sintetik boʻlgan, hozirda esa faqat nemis tili bu turkum qonuniyatlarini saqlab qolgan: *Imenitelnyy padej - Tad*; *roditelnyy – Tages* va hokazo.

Zamonaviy ingliz tili zamonaviy nemis tilidan hozirda grammatik tuzlishi jihatidan katta farz qiladi, chunki ulardan birinchisi analitik turkumdagi tilga aylangan boʻlsa, keyingisi sintetik turkumda davom etmoqda. Yoki yana bir misol, ingliz tilidagi kelasi zamon maʼnosini beruvchi *Shall/will* modal feʼllari oʻrta asrlarda keng tarqalgan edi. Bu ikki feʼlning rivojlanish xususiyatlari quyidagicha:

*Will* – odatda, insonning xohish, mayl va istagi ustunroq boʻlgan oʻrinlarda (*/will study - Men oʻqimoqchiman*);

*Shall* – zaruriyat yo majburiyat maʼnosida (*/shall look to my brother - Men ukamga qarashim kerak*) qoʻllanilgan.

Bibliya uslubida *shall*, badiiy uslubda *will* qo'llanilar edi. Djorj Mezon 1622-yilda bu ko'makchi fe'llarning funksional jihatlarini asoslab bergan ("Grammaire Anglaise") va *shallning* I shaxsda, *willning* esa qolgan shahslarda ishlatilish me'yorini belgilagan edi.

Nemis tilida ham parallel ravishda kelasi zamon modal fe'llari taraqqiyotida dinamik holatni kuzatish mumkin. XI-XIV asrlarda keng ishlatila boshlangan *soller / woller* modal fe'llari aynan kelasi zamoni ifodalashda o'ziga xoslik kasb etadi. Barcha shaxslarda ko'pincha *soller* qo'llanmalar edi. Biroq, keyinchalik uning o'rnini keyingisi egallay boshlaydi, xususan, Lyuterning bibliyasida bu shakl juda kam ishlatiladi. XI asrda paydo bo'lgan va XII – XIII asrlarda keng foydalanilgan *werden* formasi endilikda kelasi zamon ma'nosini bera boshlagan. Zamonaviy nemis tilida *Futurumni* ifodalash uchun har uchchala shakl qo'llaniladi. *Ich werdet kommen; Ich will in die Bibliothek gehen* (Qarang: Deutsch.T., 1977).

Endi, o'zbek tili grammatikasidagi o'zgarishlar haqida qisqacha to'xtalsak. Avvalo milliy grammatikamizning chinakam o'zbekona, milliy tabiatga ega bo'layotganligi, ko'pgina muvaffaqiyatli yutuqlar qo'lga kiritilayotganligini ta'kidlab o'tmoq joiz. Morfologiya sohasida deyarli barcha narsa-so'z turkumlari tasnifidan boshlab qo'shimchalar tasnifigacha ilmiy asosli izlanishlar olib borildi.

O'zbek tilining turkona tabiatidan kelib chiqib, sintaksisda ham muhim rivojlanish sodir bo'lmoqda. Bu sohada "gap markazi", [WpM] qolipi, atov birlik, predikativ singari tushunchalarning isbotlanishi o'zbek tili milliy grammatikasi talqinini tubdan oydinlashtirdi. "Gap markazi" tushunchasi SG va QG hodisalariga aniqlik kiritdi.

Shevalar til tizimida dialektizmlar sifatida tadqiq qilinadi. Shevalar – hududiy tushuncha bo'lib, muayyan bir territoriyada yashovchi kishilar, adabiy tildan farqlanib turuvchi o'ziga xos til hisoblanadi. Sheva va dialektizmlarni o'rganuvchi tilshunoslik sohasi- dialektologiya deb ataladi. Unda lahja va shevalarning fonetik, morfologik, sintaktik va leksik xususiyatlari tavsif qilinadi. Milliy tilning paydo bo'lishi va rivojida shevalarning tutgan o'rnini, milliy tilga asos bo'lgan shevalar aniqlanadi. Shevalararo, shuningdek, adabiy til va qardosh tillar bilan ularning munosabati aniqlanadi.

Shevalar –til lug'at boyligini oshiruvchi ichki manba hisoblanadi. O'zbek adabiy tili uchun Toshkent va Farg'ona shevalari asos qilib olingan. Aslida, sheva so'zi- forscha so'z bo'lib, ovoz , til, so'zlashish, odat, yo'sin, ravish degan ma'nolarni bildiradi. Sheva-biror bir tilning o'ziga xos fonetik, leksik va grammatik xususiyatlarini o'zida aks ettiruvchi kichik qismi hisoblanganligi bois lahja tushunchasidan kichikdir. Lahja shevalar yig'indisidir.

Badiiy uslubda, ya'ni badiiy asarlar yaratayotganda shevalardan foydalanish voqea, hodisalarga mahalliy, hayotiy va ijtimoiy tus berishda, shuningdek, personajlar nutqini individuallashtirishda ulkan ahamiyatga ega. Misol uchun, *shoti* so'zi Farg'ona shevasida narvon ma'nosida ishlatilsa, adabiy tilda "arovaning bir qismi", *tovoq* so'zi ham "lagan" ma'nosida, Toshkent shevasida esa lagan-katta tovoq ma'nolarida ishlatiladi. *Tovoq* so'zi Buxoroda *tabaq* shaklida keladi. Xorazm shevasida *g'uch* so'zi – mard, botir; *galadi* - keladi, *nishatamiz* - nima qilamiz kabi ma'nolarni bildiradi. Toshkent shevasi fe'llardagi hozirgi zamon formasi (-*yapti*) ning -*votti* shaklida ishlatilishi bilan ajralib turadi: *borvotti, borvomman*. Shuningdek, olovchi fonetika ham Toshkent shevasida kuzatiladi: *oka, torog', johongir, davlat*. [u] fonemasining [i] bilan almashinishi holatlari: *eshu-eshik, kichu-kichik*. [t] o'rnida [ch] kelishi: *chochu-sochiq, choch-soch*.

O'g'uz lahjasida esa (Xorazm) [t]-[d] almashinishlari uchraydi: *til - dil; [k]- [ch]- kul-gul, kel-gall*: [-ga] jo'nalish kelishigining [-ya], [-a] tarzida kelishi ham bu sheva uchun xos: *Buxoroya, jonima, ko'nglima*.

Shevalardan o'rinli foydalanish badiiy ijodning, umuman, nutqning badiiyligini, uslubning fazilati, ta'sirchanligini oshiradi. Ammo shevalarning ishlatilish doirasi va me'yorlari chegaralangan. Shevalarni faqat adabiy va so'zlashuv uslubida qo'llash mumkin. Rasmiy, ilmiy uslublarda shevaga xos so'zlarni qo'llash noto'g'ridir.

Til taraqqiyotidagi tashqi omillar- jamiyat va til, nutqiy situatsiya, tilning boshqa tillar bilan o'zaro aloqasi va ta'siri, tir taraqqiyotida differentsiya va integratsiya hodisalari, tilning

ekstralingvistik faktorlarini o'z ichiga oladi. Paralingvistika, psixolingvistika, areal lingvistika, sotsiolingvistika, ekstralingvistik singari sohalar mana shu tashqi omillarni tadqiq qiladi.

Lisoniy rivojlanishning tashqi omillari tilning hududiy (areal), davriy, ijtimoiy va tarixiy sharoitlariga ko'ra yuz beradi. Bunda nutq jarayoni aloqa va kontakt masalalari va vaziyatlari (situatsiya) hisobga olinadi. Tillarning o'zaro ta'siri va bilingvizm hodisasi, nutqiy iqtisod va tushunarlilik qonuniyatlari o'rganiladi. Tashqi omillarning asosini- tilning ijtimoiy ahamiyati va funksiyalari, tillarning tarixiy taraqqiyotini tashkil qiladi.

Til hamisha jamiyat bilan aloqadorlikda ekan, so'zlovchilarning ekstralingvistik omillar ta'sirida bo'lishlari ham shu munosabatdan kelib chiqadi.

Til – jamiyat a'zolarini birlashtiruvchi qadriyat. Til umumiy, nutq esa –xususiydir, ya'ni har bir kishining nutqi o'ziga xos, individual. Kishilar o'z tafakkur tarziga, fikrlash qobiliyati va imkoniyatlariga ko'ra so'zlaydilar. Bundan tashqari nutqidan uning bilish saviyasini, umumiy dunyoqarashi - odatlarini, madaniyat darajasini – ma'naviy olamini bilsa bo'ladi, qolaversa, har birimiz o'z uslubimiz (stil) va estetik, etik didimiz, tushunchalarimizga ko'ra turlicha nutqqa egamiz.

Inson – jamiyatda tug'ilib voyaga yetadi, kamol topadi. Demak, insoniy til ham jamiyat bilan birgalikda rivojlanishdadir. Til ijtimoiy hodisa sifatida tabiiy hodisalardan ajralib turadi. Masalan, kishilarning tabiiy biologik xususiyatlari (ovqat eyishi, nafas olishi va h.) tabiat qonunlariga muvofiq, jamiyatga bog'liq bo'lmagan holda rivojlanib boradi. Ammo tilda so'zlashish va fikrlashish uchun kishilik jamiyati (sotsial muhit) bo'lishi shart. Til nasldan-naslga, avloddan-avlodga o'tadigan irsiy hodisa emas, aksincha, til jamiyat taraqqiyotining mahsulidir. Agarda yosh go'dak kimsasiz orolga yoki hayvonlar orasiga tashlab qo'yilsa, u insoniy tildan bexabar bo'lib o'sadi (olimlar bunday tajriba o'tkazishgan yoki eslang: Maugli) yoki agar xitoy bolasi o'zbeklar orasida ulg'aya, tarbiyalansa, u faqat o'zbekcha so'zlab, ajdodi tilini bilmasligi mumkin. Lekin xitoy bolasining biologik belgilari (yuz ko'rinishi) irsiy holda o'zgarmaydi.

Til va jamiyatning uzluksiz ta'sirini tildagi argo, jargon, tabu va evfemizmlar yoki semantik o'zgarishlar misolida kuzatish mumkin.

Tilimizda muayyan bir guruh kishilarni ishlatuvchi- *“ko'kidan”, “soqqa”, “mullajiring”, “malak”, “shef”, “oqidan”, “kabutar”* kabi so'z va tushunchalar tilga, jamiyatga oid hodisalardir. Shuningdek, tabu va evfemizmlarning paydo bo'lishi ham, ijtimoiy tafakkur, aniqrog'i irim va e'tiqodlar bilan bog'liq. Masalan, *ilon - “arg'amchi”, pes – “oqarmoq”* kabi qo'llashlar bu yomon hodisalarning oldini olish, irim bilan bog'liq bo'lsa, *tug'moq- “yengil bo'lmoq”, “ko'zi yorimoq”, “o'g'il yo qiz ko'rmoq”; erga bermoq - “turmushga chiqarmoq” (uzatmoq), “baxti ochilmoq”* singari qo'llashlar etika (madaniyat)ga daxldordir.

Differensiya va integratsiya jarayonlari til taraqqiyotining o'ziga xos ijtimoiy qonuniyatlari hisoblanadi. Differensiya – tillarning bo'linishi, farqlanishi bo'lib, til doirasidagi sheva va lahjalarning yoyilishi, tarqalishidir. Differensiya natijasida tillar qardosh tillarga yoki dialektlarga bo'linib ketadi. Integratsiya esa, aksincha, sheva va dialektlarning qisqarib, adabiy tilga yaqinlashuvi, uyg'unlushvi hodisasidir. Demak, bular bir-biriga zid tushunchalar bo'lib, differensiya tillar va dialektlar sonini ko'paytirsa, integratsiya ularni qisqartiradi. Har ikkala holat ham tilning **tarixiy** va **davriy** omillariga tegishli bo'lib, lisoniy taraqqiyotning o'ziga xos ijtimoiy tarixini ifodalaydi. Bu hodisalar ilm- fanda ijtimoiy mehnat nazariyasi asosida rivojlantirilgandir. Chunonchi, kishilarning dastlabki ibtidoiy to'dalari bora-bora urug'ga, so'ngra qabilaga aylangan. Bu qabilaning o'z tili (dialekti) bo'lgan. Qabila ma'lum bir ijtimoiy-siyosiy., hududiy sabablarga ko'ra bo'linib ketgach, qarindosh - urug'lar paydo bo'ladi. Endi bu qarindosh - urug'lar bir til doirasida, lekin turli sheva va dialektlarda so'zlashuvchi xalqqa aylanadi. “Yangi – yangi dialekt va tillarning paydo bo'lishida ikki faktor hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'ldi: vaqt va masofa. Vaqt o'tgan sayin masofaning kengaya borishi yangi dialekt va tillar paydo bo'lishiga olib keladi” (Qarang: Sodiqov A. va b. Tilshunoslikka kirish. T., 1981. 212-b.).

Integratsiya jarayonini shunday tasavvur qilish mumkin: bir til doirasida mavjud bo'lgan ta'siri tufayli yo'qolib boradi; masalan, televizor va radio, ommaviy matbuot va axborot sur'atining jadallashishi, adabiy til mavqeining oshishi, barcha uslublarda, adabiy tildan foydalanish integratsiya jarayonini yanada oshiradi, uning ta'sir doirasini kengaytiradi. Chunki, har bir millat adabiy tilning mustahkamlanishi, boyishi uchun qayg'uradi va shu borada sa'y – harakat olib boradi. Xuddi shuningdek, o'zbek adabiy tilining yuksalishi va mustahkamlanishi uchun astoydil intilishimiz zarur.

Til hamisha rivojlanishdagi hodisa sifatida boshqa tillarga o'zaro ta'sir qiladi yoki tashqi ta'sirga uchraydi. Ilm-fan va texnika taraqqiyoti, savdo-sotiq, madaniy va maishiy aloqalar, hattoki, urush va bosqinlar ham tilga o'z ta'sirini o'tkazadi. Tillar tarixiga nazar tashlydigan bo'lsak, tashqi ta'sir natijalarini ko'ra olamiz. Masalan, hozirgi o'zbek adabiy tilidagi aksariyat so'zlar arabcha va ruscha-internatsionaldir. Arablar bosqini va arab tili ta'siri, hukmronligi oqibatida tilimizga ko'plab arabcha so'zlar kirib keldi: *kitob, madrasa, ma'lum, mashhur, maktab, domla, maktub, iymon*. Arabcha leksika tilning kattagina qismini egallab olgan. Shuningdek, qardosh xalqlar bilan munosabat, savdo-sotiq va boshqalar fors-tojik, uyg'ur, xitoy tillaridan so'z o'zlashtirishga asos bo'ldi: *xona, barg, xazon, devor, zimiston, dil xhat, kulba, shahar, siyoh; manti, lag'mon, xonim* va hokazolar.

Chor Rossiyasining O'rta Osiyoni zabt etishi hamda ruslashtirish oqibatida o'zbek tili leksikasida, umuman butun til tizimida kuchli ta'sir sodir bo'ldi. *Bolshevik, partiya, sovet, kommunizm, sotsializm* singari ko'rinishlar o'sha davr neologizmlari edi. *Stol, stul, papka, sumka, doska, klass, lampochka, ostanovka, dirijyor, muzikant, televizor* va hokazo so'zlar ommalashdi. Rus tili orqali inglizcha-baynalmilal so'zlar kirib keldi: *telefon, aktyor, artist, radio, kollektiv, ideya, obyekt* va boshqalar.

Bunday lisoniy ta'sir xususiyatlarini barcha tillarda kuzatish mumkin; masalan, hozirgi ingliz tili lug'at boyligidagi so'zlarning taxminan 30 foizigina sof inglizcha so'zlar, qolganlari qardosh xalqlardan, roman, franso'z yoki italyan, sharq tillaridan o'zlashgan so'zlardir. Tillarning bir- biriga o'zaro ta'siri tillarning chatishuvi va belingvizm hodisalariga sabab bo'ladi. (Agar so'z o'zlashtirilish tilning ichki (grammatik) strukturasi ta'sir ko'rsatmasa, bu tillarning hamkorligi (языковые контакты) deyiladi, agarda bir til boshqa tilga tazyiq o'tkazib, uning ichki strukturasi o'rnashsa, bu tillarning chatishuvi deyiladi. Lekin bu tushunchalar ham nisbiydir. Masalan, arab xalifaligi davrida turkiy-zabon va eroniy xalqlar uning tazyiqi ostida edilar. Arab tili nafaqat davlat tili, balki madaniy va diniy (ilohiy kitob "Qur'on" arab tilida bo'lganligi, hamda uni o'rganish, o'qish majburiy qilib qo'yilganligi bois mustamlaka xalqlardan arab tilining nafaqat leksikasini, balki grammatikasi va fonetik, ifodali (qiroat) o'qish malakalarini egallashlarini ham talb qilar edi) ta'sir vositasiga aylantirilgan edi. Biroq, arab tili turkiy tilga jips singganligi bilan, uning grammatik qurilishi (flektiv) turkiy tilga ko'chmagan.

Fransiyaning XI asrda Britaniya orolini bosib olishi va franso'z tili bilan anglosakson tillari orasidagi kurash natijasi chatishuvga misoldir. Franso'z tili Angliya hududida g'olib, ingliz tili esa mag'lub bo'ldi, lekin franso'z tili o'z vatanida yashar, rivojlanar ham edi. Xullas, til kurashlaridan keyin, g'oliblar o'z tillarini unutib, anglosakson tilini qabul qiladilar. Ingliz tili ham franso'z tilidagi so'zlarning ma'lum bir qismini saqlab qolib, tilning (kelgindi tilni) o'zini siqib chiqaradi. Demak, bu yerda superstrat hodisasi, ya'ni kelgindilar tilining mahalliy tilga ta'siri sodir bo'lishi, lekin uni siqib chiqarolmasligi yuz bergan.

Endi bilingvizm jarayoni haqida. Bilingvizm – ikki tillilik demakdir. Turkiy xalqlar uchun ikki tillilik ularning butun tarixiy taraqqiyoti davomida va barcha hududlarda tarqalishi doimiydir. Ancha intensiv ifodalangan ikki tillilikning qadimiy davrdagi ko'rinishlari turkiy-mo'g'ul, turkiy - fin-uyur va turkiy – fors, turkiy- arab bo'lib, ularning o'zaro ta'sirini ko'rsatuvchi xususiyatlar hozirgi davrgacha saqlanib qolgan. Bu ta'sir bir tomondan, Sibir va Volga bo'yi turkiy tillarida, boshqa tomondan O'rta Osiyo va Kavkaz turkiy tillarida hozirgacha ko'rinadi. Sovet ittifoqi davrida turkiy-rus bilingvizmi bu davr tilining asosini tashkil etdi.

Bilingvizm shevalararo ham bo'lishi mumkin: masalan, Buxoro shevasida tojik-o'zbek ikki tilligi mavjud.

Tillarning o'zaro ta'siri tufayli tilning fonetik, leksik va grammatik tizimida ma'lum o'zgarishlar sodir bo'lishi mumkin. Rus tili ta'sirida o'zbek tili tizimida sezilarli o'zgarishlar ro'y berdi: ruscha- internatsional so'zlar kirib keldi, kalkalash va terminologiya rivojlandi, dublet so'zlar va variantlar paydo bo'ldi, har xil tarkibli so'z va iboralar paydo bo'ldi: *sovxoz, qishloq xo'jaligi*. Bu jarayonlar o'zbek tili leksik strukturasi o'zgartirdi.

Fonetik strukturada esa, ru tili va boshqa tillardan (fors - tojik, tatar, boshqird, arab) o'zlashgan fonemalar ham uchraydi: masalan, lab, tish fonemalar – [v], [f], affrikatlar - [s], [g], sirg'aluvchilar – [x], [sh], ba'zi tillarda – [o], [e] (tatar, boshqird) unlilari.

Sintaksis sohasida birmuncha jiddiy oqibatlar kuzatildi. Jumladan, rus va hind-evropa tillari uchun xos bo'lgan gap strukturasi zo'rma-zo'rakilik bilan o'zbek tiliga tiqishtirildi, chunonchi, bosh bo'laklar, bir sostavli va ikki sostavli gaplar kabi. Birgina – *Mevalar terildi* gapining shaxssiz gap sifatida talqin qilinishi (mantiqiy subyektga tayanilib) o'zbek tili sintaksisida g'ayrimilliy, noto'g'ri oqibatlar yuzaga kelganligini ko'rsatadi.

Til taraqqiyoti tilning yashash tarzi, mavjud bo'lishlik shartidir. Tilda hech bir narsa yo hodisa birdaniga, o'z-o'zidan sodir bo'lmaydi, lisoniy hodisa va jarayonlar til rivojlanishining ma'lum bir qonuniyatlari asosida asta-sekin, evolyutsion ravishda yuz beradi. Til taraqqiyoti uning tashqi va ichki omillariga bog'liq. Bu omillar til taraqqiyoti sistemasini, zanjirini hosil qiladi. Sistemadan har bir komponent, zanjirdagi har bir xalqa esa boshqalari bilan chambarchas, zich bog'langan bo'ladi. Tilning rivojlanishida ham har bir lisoniy omil (ichki omillar, tashqi ekstralingvistik omillar, sotsial omillar) muhim ahamiyatga ega. Mana shu obyektiv qonuniyat, munosabat tufayli tillarning rivojlanishi, o'zgarishi, taraqqiyoti sodir bo'laveradi.

**II. MUSTAQIL  
TA'LIM VA  
MUSTAQIL  
ISHLAR  
MAVZULARI**

**Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar mazmuni va ular bo'yicha ajratilgan soatlarning taqsimoti**

<b>№</b>	<b>Mavzu</b>	<b>Soat</b>
1	Tilning vazifalari.	2
2	Til va madaniyat.	2
3	Tilning paydo bo'lishi to'g'risidagi nazariyalar.	2
4	Turli tillardagi fonetik hodisalar. Turli tillardagi fonemalar sistemasi.	2
5	Grammatika va uning predmeti. Grammatik kategoriya, grammatik ma'no va grammatik shakl.	2
6	Turli tizimli tillarda so'z yasash usullarining umumiy va farqli jihatlari.	2
7	Turli tillarda so'z turkumlariga tasniflash tamoyillari.	2
8	Morfema. Morfemaning turlari.	2
9	So'zlarning sintetik va analitik shakllari.	2
10	Leksikologiya va semasiologiya.	2
11	So'z tilning markaziy birligi sifatida.	2
12	Etimologiya.	2
13	Ilmiy etimologiya, xalq etimologiyasi va "yolg'on etimologiya".	2
14	Leksikografiya.	2
15	Lug'at turlari.	2
16	Frazeologiya.	2
17	Frazeologik ekvivalentlik hodisasi.	2
18	Gap turlari. Gaping aktual bo'linishi. Sintaktik inversiya.	2
19	YOzuvning tarixiy va zamonaviy turlari. YOzuvning maxsus turlari.	2
20	Tillarning genealogik tasnifi.	2
21	Dunyoning lisoniy xaritasi.	2
22	Til aloqalari. Til va aloqaning boshqa vositalari. Bilingvizm, diglossiya va interferentsiya.	2
23	So'z turkumlari.	2
24	Umumiy va xususiy tilshunoslik. Nazariy tilshunoslik. Amaliy tilshunoslik.	2
25	Verbal va noverbal muloqot.	2
26	Tilning paralingvistik belgilar va sun'iy belgilar tizimi bilan aloqasi.	2
27	Tilning tabiati. Til va nutq. Tilning kelib chiqishi haqidagi diniy, antik davr va zamonaviy farazlar.	2
28	Tillar integratsiyasi va differentsiatsiyasi.	2
29	Adabiy til - til mavjudligining oliy ko'rinishi.	2
30	Millatlararo va xalqaro aloqa tillari. Sun'iy tillar. Klassik tillar. Interlingvistika.	2
	Umumiy soat:	<b>60</b>

# **III. GLOSSARY**

## Glossariy

**Abbreviatura** (ital)-qisqartma so'zlar.

**Abzats** (nem)-xat boshi.

**Abstrakt** ot (lot.)-mavhum ot.

**Avtor gapi** - muallif gapi.

**Adabiy til**-umumxalq tilining ishlangan, sayqal berilgan, ma'lum me'yorga solingan, xalqning turli madaniy ehtiyojlariga xizmat qiluvchi shakli. Adabiy tilning ikki shakli bor: 1) yozma shakli. 2) og'zaki shakli.

**Alfavit** - alifbo (yunon alifbosidagi birinchi ikki harfning nomi: alpha va beta).

**Antonim** (yun.)-o'zaro zid, qarama-qarshi ma'noli til birliklari.

**Argo** (frans.)-yasama til. Biror ijtimoiy guruh, toifa (masalan, talabalar, sportchilar, o'g'rilar)ning o'ziga xos, boshqalar tushunmaydigan lug'aviy birliklardan iborat yasama tili.

**Arxaizm** (yun.)-ma'lum davr uchun eskirgan, iste'moldan chiqa boshlagan til birligi (so'z, frazeologizm va b.).

**Affiks** (lot.)-qo'shimcha.

**Assimilyatsiya** – qator kelgan nutq tovushlarining bir-biriga ta'sir qilib o'ziga moslashtirishidir. **Progressiv assimilyatsiya** - aytdi-aytti, yurakga-yurakka.

**Regressiv assimilyatsiya** – yigitcha-yigichcha, tuzsiz-tussiz.

**Dissimilatsiya** – ikki o'xshash tovushning o'rin almashinuvi.

**Progressiv dissimilyatsiya**: birorta-bironta.

**Regressiv dissimilyatsiya** – ittifoq-intifoq

**Eksperimental fonetika** – nutq tovushlari artikulyatsiyasidagi havo tebranishi, tebranish miqdori sarflangan vaqt, oberton qanday yuzaga chiqishi kabilar ma'lum texnik apparatlar vositasida aniqlanadi va shu asosda fonetik qonuniyatlar bo'g'in, urg'u, intonatsion xususiyatlar aniqlanadi.

**Fraza** – nutqning yagona intonasiyaga ega o'zaro to'la pauza bilan ajraluvchi qismi.

**Fonetik transkripsiya** – talaffuzni aniq ifodalashga xizmat qiladi va xorijiy tillar lug'atida keng qo'llaniladi. Har bir talaffuz qilingan tovushni aks ettirish fonetik transkripsiyaning asosiy vazifasidir. Transkripsiya har qanday alfavitga asoslangan bo'lishi mumkin. Ba'zi maxsus tovushlarni belgilash uchun esa diakritik belgilardan, boshqa alifbelardan qo'shimcha belgilar olishdan, mavjud belgilarni teskari yozish yo'lidan foydalaniladi. Fonetik transkripsiya chet tilini o'rganishda muhim ahamiyatga ega..

**Fonematik transkripsiya** – Grammatika kitoblarida misollarning morfologik strukturasi ko'rsatish uchun ko'proq ishlatiladi, chunki bunday hollarda so'z talaffuzidan ko'ra so'z tarkibi ahamiyatlidir; mazkur transkripsiya asosan fonemalarni qanday o'rinda ishlatilgan bo'lishidan qat'i nazar, doim bir xil belgi bilan ko'rsatishdir.

**Flektiv tillar** –o'zak morfema va affiksial morfema chegarasini ajratish qiyin bo'lgan tillar.

Unga xos belgilar:

- bir affiks bir necha ma'noni beradi
- affiks bir vaqtda ham shaxs, zamon va sonni ko'rsatishi mumkin.
- affiks bir necha variantga ega bo'lishi mumkin
- o'zak va negizga affikslar qo'shilganda tovushlar almashinuvi kuzatilishi mumkin.
- o'zak va negiz, negiz va grammatik affikslar o'rtasidagi chegarani belgilash qiyinchilik tug'diradi.

**Fonetika** – tilshunoslikning nutq tovushlari, ularning hosil bo'lishi, tiplari, tovushlar o'zgarishi, bo'g'inlar, ularning tuzilishi tiplari, strukturasi; urg'u, urg'u tiplari va intonatsiya haqidagi tarmog'idir.

**Vulgarizm** (lot.)- dag'al so'z.

**Grammatika** (yun.)-tilshunoslikning so'z shakllari (shakl yasalishi), so'z birikmalarining turlari, gap turlari (tilning grammatik qurilishi) haqidagi bo'limi.

**Grammatik ma'no** - so'zning shakliy qismi grammatik shakli ifodalaydigan ma'no.

**Графика** (yun.)-nutq tovushlarini yozib ifodalash vositalarining muayyan tuzilishi.

**Диалект** (yun.)-umumxalq tilining ma'lum bir hududda qo'llanadigan ko'rinishi.

**Диалог** (yun.)- suhbatdoshlarning bevosita bir-biriga qaratilgan nutqi.

**Жаргон** (fr.)- biror guruh vakillarining o'z nutqi bilan ko'pchilikdan ajralib turish maqsadida o'zgacha ma'noda qo'llaydigan so'z va iboralar.

**Лексема** (yun.)- tilning lug'at tarkibiga xos birlik; til qurilishining lug'aviy ma'no anglatuvchi birligi.

**Лексик ма'но**- so'zning material qismi (лексема) bildiradigan ma'no; lug'aviy ma'no.

**Лингвистика** - tilshunoslik.

**Морфема** (yun.)- tilning ma'noli, boshqa ma'noli qismlarga bo'linmaydigan eng kichik birligi. Морфема ikki xil bo'ladi: 1) o'zak (so'z) морфема; 2) affixsal морфема (qo'shimcha морфема).

**Морфемика**-морфемалarning mohiyati, tuzilishi, turlari haqidagi bo'lim, ta'limot.

**Морфологиya** (yun.)-грамматик ma'no so'z shakllari, so'z turkumlari haqidagi грамматик ta'limot.

**Неологизм** (yun.)- yangi so'z, iboralar. Неологизмлар – taraqqiyotni jadallashtirishga aloqador tushunchalarni belgilash maqsadida yaratilgan yangi, hali o'zlashib ketmagan so'zlardir.

**Нумератив**-hisob so'zlari.

**Нутq товushi** – o'pkadan kelayotgan havoning nutq organiga urilishidan hosil bo'lgan tebranish.

**Олинма so'z** - o'zlashma so'z.

**Сингармонизм** – unli tovushlarning moslashuvi, ohangdoshligi, uyg'unligi demakdir. Bu hodisa faqat turkiy tillarda uchraydi.

**Тавсифий фонетика** – nutq tovushlari, ularning xususiyati va xarakteri qayd etiladi. Фонетикaning sillabika, akustika, intonasiya, tovush o'zlgarishi va uning qonuniyatlari haqida ma'lumot beriladigan sohasi.

**Тарихий фонетика** – nutq tovushlari taraqqiyoti o'zgarishi bilan bog'langan hodisalar, qonuniyatlar beriladi. Tilga xos fonetik jarayonlar tarixiy yodgorliklar orqali yoritiladi.

**Трифонглар** – tarkibi uch tovushdan iborat. Masalan: [av..]

**Транскрипсиya** – tovush va harf orasida nomutanosiblik bor bo'lgan tillarda ushbu yozuv muhim ahamiyat kasb etadi, undan o'qish-o'qitish ishlarida keng foydalaniladi.

**Қийосий фонетика** – qardosh tillar uchun umumiy hodisa va qonuniyatlarning holati, qo'llanish miqdorlari, o'ziga xosligi qiyos qilinadi.

### Словарь терминов по Языкознанию

**Агглютинативные языки** – языки, в которых грамматическое значение выражается стандартными, однозначными, механически присоединяющимися к основе и друг у другу аффиксами и прилепами.

**Аккомодация** – комбинаторное изменение, заключающееся в приспособлении гласных и согласных друг к другу по тому или иному артикуляционному признаку.

**Активные органы** – подвижные органы речи, совершающие различные движения, необходимые для создания преград и форм прохождения воздушной струи: голосовые связки, язык, губы, мягкое нёбо, uvула, фаринкс).

**Активный словарь** – это те слова, который говорящий на данном языке не только понимает, но и сам употребляет.

**Алломорф** – конкретная реализация морфемы в речи.

**Аллофон** – конкретная реализация фонемы в речи.

**Алфавит** – совокупность букв какого-либо фонографического письма, расположенных в исторически установленном порядке.

**Аналитическая форма** – составная словоформа, в которой компоненты, составляющие единое целое, представлены линейно, разорвано, аналитично.

